

65, 9
v. 28

I.F.Ismatullayev

BANK OPERATSIYALARINI SUG'URTALASH



65.9
14-78

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

I.ISMATULLAYEV

BANK
OPERATSIYALARINI
SUG'URTALASH

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti
Toshkent — 2005



I.Ismatullayev. **Bank operatsiyalarini sug‘urtalash.** O‘quv qo‘llanma, -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. 152 b.

O‘quv qo‘llanmada tijorat banklari faoliyatida sodir bo‘ladigan risklarning tavsifi, ularni aniqlash usullari va risklarni minimallashtirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilib berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma iqtisodiyot yo‘nalishi oliy o‘quv yurtlarining talabari, bank va moliya muassasalari xodimlari hamda boshqa qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

O.Yu.Rashidov,
TDIU “Xalqaro moliya” kafedrasi mudiri.

Taqrizchilar:

I.Hakimov,
AT «Paxtabank» Metodologiya markazi departamenti direktori;
I.R.Toymuhamedov,
“Xalqaro moliya” kafedrasi dotsenti

Ekspertlar:

O.K.Iminov,
fan doctori, prof. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Jamiat qurilish Akademiyasi qoshidagi Oliy Biznes maktabi
“Moliya” kafedrasi mudiri;
R.R.Tojiyev,
TDIU “Xalqaro moliya” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Исматуллаев И. Страхование банковских операций. Учебное пособие. -Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2005. 152 с.

В учебном пособии дана характеристика рисков в деятельности коммерческих банков, излагается методика их определения и основные направления их минимизации.

Настоящее учебное пособие предназначено для студентов высшего среднего специального образования, работникам коммерческих банков и слушателям магистратуры.

**Ответственный
редактор:**

О.Ю.РАШИДОВ,

заведующий кафедрой «Международные
финансы» Тошкентского Государственного
экономического университета.

Рецензенты:

И.Хакимов,

начальник управления банковской методологии АК
«Пахтабанк»;

И.Тоймухамедов,

к.э.н., доцент кафедры «Международный финансы»
Ташкентского Государственного экономического
университета.

Эксперты:

О.К.Иминов,

д.э.н., профессор, заведующий кафедрой
«Финансы» Высшей школы бизнеса Академии
государственного и общественного
строительства при Президенте Республики
Узбекистан;

Р.Р.Тожиев,

Старший преподаватель кафедры
“Международный финансы Ташкентского
Государственного экономического
университета.

Ismatullayev I. Education guidance. T.: pub. LFUWU 2005, 152 p.

This book was discussed and approved at the special meeting held at International Finance Department.

This book describes main characteristics of risks in the activity of commercial banks, and gives methods of their nomination and main directions of their minimization.

This text-Book is devoted to students of higher and secondary education and employers of commercial banks.

Editor-in-chief:

O.Yu.Rashidov,

Doctor of economic science, professor,

Head of "International Finance" department of
Tashkent State University of Economics.

Reviewers:

I.Khakimov,

Head of department of methodology of Joint stock
Bank "Pakhta bank";

I.R.Toymukhamedov,

Candidate of economic science, assistant professor
at the "International Finance" department.

Editor-in-chief:

O.K.Iminov,

Head of "International Finance" department of
Business Higher School at the Academy of state and
Society Building under the President of the
Republic of Uzbekistan;

R.R.Tojiev,

Senior teacher of the "International Finance"
department of Tashkent State University of Economics.

KIRISH

Fanni o'qitishning dolzarbliji. Bank risklari va ularni sug'urtalash talabalarga pul munosabatlarning asoslari, bank tizimi, pul-kredit munosabatlarini olib borishda tijorat banklarining ahamiyati haqida, har qanday kredit shartnomalarini va ularning ishtirokchilarini va bunday munosabatlarni rivojlantirishda banklarning o'rni, banklar faoliyatida duch keladigan risklar, ularning kelib chiqishi, shakllari va ularni aniqlash usullarini o'rganish hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etishi haqida ma'lumot beradi.

Bundan tashqari banklarning, korxonalar valyuta resurslari shakllanishi manbalarini, valyuta operatsiyalarini bajarishdagi paydo bo'ladigan risklarni aniqlash, hisoblash va ulardan sug'urtalanishning asosiy usullarini o'rganish o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi deb qabul qilingan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, qo'llanma yordamida «Bank ishi» mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oluvchi talabalar zamonaviy xalqaro moliya nazariyasi va moliyaviy boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy masalalarni o'rganadilar va olgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jumladan bank ishi fanida banklar bajaradigan operatsiyalarning bajarish texnikasi o'rganiladi, ammo operatsiyalarini amalga oshiradigan risklarni aniqlash, hisoblash usullariga to'xtalib o'tilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish to'grisida»gi Farmonida bank tizimini yanada erkinlashtirish, banklar bilan mijozlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirish bilan bo'lgan tavakkalchilikni tijorat banklari rahbariyatining vakolatiga yuklash lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Shunga qaramasdan, iqtisodiy adabiyotlarda, ayniqsa, mahalliy-iqtisodiy adabiyotimizda, iqtisodiyotning xususiyatlarini inobatga olgan holda, banklar faoliyatining samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda risklarning banklar faoliyatiga ta'sir qilish tomonlarini chuqur o'rganib chiqish lozimligi, risklar, xususan, bank risklari mohiyatini ochib berishda mavjud fikrlarning turli -

tumanligi, risk turlari va ularning bank faoliyatiga ta'sirining chuqur o'rganilmaganligi, riskni oldindan bashorat qilish, banklarning kredit portfelini diversifikatsiyalash asosida kredit risklarini kamaytirish yo'llarini aniqlash va hal qilish, bozor iqtisodiyoti sharoitida jahon andozasiga mos keluvchi likvidlikka ega bo'lувчи bank tizimini shakllantirish respublika bank tizimiga tatbiq qilinishi zarur bo'lган mavzulardan ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir.

Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlardan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lган ko'п qirrali tushunchadir. Risk inson faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lган tarixiy va iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilar faoliyatida yoki tabiiy hodisalarda mumkin bo'lган zararning salmog'ini bildirgan, tovar pul munosabatlarining rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va subyektlar faoliyatiga mustahkam o'rashib olishiga imkoniyat yaratdi, shuning uchun risklar har doim bizning yonimizda. U bizning hayotimizda har doim ham qochib bo'lmaydigan va yechish lozim bo'lган bir jarayon bo'lib, biron-bir natijaning yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bunday natija salbiy va ijobjiy bo'lishi mumkin.

Fan bo'yicha o'quv adabiyotlar tahlili. Riskning tub mohiyati shundan iboratki, «Risk» so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib «Suv ostidagi qoya» degan ma'noni bildiradi. Taniqli lug'atchi S.N.Ojigovning rus tili lug'atida «risk» muvaffaqiyatga intilish, umid degan ma'noni anglatadi deyilsa, mashhur Vebstr lug'atida riskka «xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli» deb qaralgan.

V.T. Sevruk o'zining «Bankovskie riski» degan kitobida «risk—bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir» degan ta'rif beradi.

Professor Usoskin V.M. «Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, o'z navbatida oldindan ko'ra bilish qiyin bo'lган yoki mumkin bo'lmanan voqealar bilan bog'liq bo'ladi» deb izohlaydi.

E.S. Stoyanov «risk bu rejalshtirilgan variantga nisbatan daromad ola bilmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir» deb ta'rif keltiradi.

Yuqorida qilarga o'xshagan ta'riflarni mahalliy iqtisodchilarimizning ishlarida ham uchratish mumkin. Bundan

tashqari ko‘pgina mualliflarning ishlarida «risk» so‘zini o‘zbekchaga tarjima qilishga harakat qilinmoqda. Ba’zi iqtisodchilar riskni «xavf-xatar» deb ifodalasa, boshqalari riskka «xato», «ikkilanish», «noaniqlik», «mavhumiylik» va hokazolar deb ta’rif berish to‘gri degan xulosaga kelmoqdalar. (A.O’lmasov, Sh.Sharifxodjayev. «Iqtisodiyot nazariyasi» 387 bet, A.O’lmasov «Iqtisodiyot assoslari», 165 bet, E. Abdullayev., T.Boboqulov. «Kredit: 100 savolga 100 javob».)

O’quv qo‘llanmada bozor iqtisodiyoti sharoitida munosabatlarning subyekti sifatida tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish tamoyillari, ularning faoliyatida yuzaga keluvchi risklar, ularning turlari, bank risklarini kompleks tahlil qilish va ularni boshqarish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi masalalar aks ettirilgan.

Mazkur o’quv qo‘llanmada bayon etilgan ba’zi fikrlar moliya, pul muomalasi va kredit yo‘nalishidagi olib borilayotgan ilmiy, uslubiy ishlar olib boruvchi magistrler, aspirantlar, oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun qiziqarli va foydali bo‘lishi mumkin deb o‘ylaymiz.

I BOB

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA RISKLAR VA ULARNING TURLARI

1.1. Bozor iqtisodiyoti va uning bo‘g‘inlarida risklar va unda bank riskining tutgan o‘rnii

Samarali bozor iqtisodiyotida mahsulot ishlab chiqarish kam xarajat qilish bilan, uning taqsimoti esa bozor talabiga asosan amalga oshiriladi. Bizga ma’lumki, faqat iqtisodiy erkinlik, mulkchilik huquqi, raqobat va boshqa bozor atributlashi mavjud bo‘lgan holda iqtisodiyot samarali bo‘lishi mumkin.

Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma’noga ega bo‘lgan ko‘p tarmoqli tushuncha. Shuning uchun bank faoliyatining samaradorligini oshirish, uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun iqtisodiyotdagi mavjud risklar, ularning bank faoliyatida ta’sir qilish tomonlarini chuqur o‘rganib chiqish zarur.

Risk insoniyat faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan tarixiy va iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u kishilar faoliyatida yoki tabiiy hodisalarda mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar salmog‘ini bildirgan. Tovar pul munosabatlarining rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va subyektlar faoliyatida mustahkam o‘rnashib olishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham risklar bizni doimo har joyda o‘rab keladi. U bizning hayotimizda har doim ham qochib bo‘lmaydigan va yechimi lozim bo‘lgan bir jarayon bo‘lib biror-bir natijaning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Bunday natija salbiy va ijobji bo‘lishi mumkin. Riskning sinonimi sifatida biz ishonchhsizlik, imkoniyatsizlik, bir voqeanning bo‘lish-bo‘lmasligini oldindan aytib bera olmaslik kabilarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Insoniyat tabiatan riskdan qochishga intiladi. Agar biz riskni nazorat qila olmasak, odatda undan qochishga harakat qilamiz. Chunki har qanday ishonchhsizlik o‘ziga xos tarzda ma’lum darajadagi yo‘qotishlarni olib keladi.

Biz hayotimizda riskning mavjudligini tan ola turib har bir harakatimizda riskni minimum darajaga tushirishga harakat qilamiz.

Har bir faoliyatini amalga oshirishda ikkilanish yoki xavf-xatar bo‘lishi

mumkin. Lekin ularni risk mazmunida ifoda etib bo'lmaydi. Xavf-xatar deganda biz oldindan biron salbiy natija beruvchi yoki biron-bir salbiylikka yoki zarar, talofatga olib keluvchi jarayon mavjudligini bilamiz va shu voqelikka yondoshamiz. Fikrimizcha xavf-xatar oldindan mayjud voqelikdir, ya'ni aksariyat hollarda xavf-xatar birlamchi. Risk ikkilamchi. Odatda xavf-xatr mavjudligini bila turib, uni ijobjiy hal qilishga qaror qilish riskni yuzaga keltiradi. Xavf-xatar aksariyat holda salbiy natijaga olib keladi. Ijobjiy natijaga faqat risk qilish orqaligina erishishimiz mumkin. Xavf-xatarni kamaytirish yoki uni umuman yo'q qilish bo'yicha risk qilinmasa, u doimo salbiy natija olib keladi va uning natijaviy imkoniyati kengroq bo'lishi mumkin.

Masalan, yongin – bu xavf-xatar. Yongin o'chirilmasa, u katta zarar keltiradi. Biz ushbu yonginni o'chira olamizmi yoki yo'qmi? Agar o'chira olsak, qanday natijaga erishamiz? Shularni hisob-kitob qilgan holda biz riskka boramiz.

1-hol. Xavf-xatar risk qilinmagan holda – salbiy natija mol - mulkni yo'qotish, daromad yo'qotish, bankrot bo'lish va hokazolar.

2-hol. Xavf-xatar. Risk qilish. - Ijobjiy natija – mol-mulk saqlanib qoladi. Daromad ham shakllanadi.


Xavf-xatar va riskning bog'liqligi



X-har bir xavfli holat risk qilish orqali ijobjiy natija.

Risk nisbiylikni ifodalaydi. Mayjud xavf-xatarlarning barcha hollarida ham risk qilinmasligi mumkin. Risk qilish doimo ijobjiy natijaga erishish bilan bog'liq. Har bir subyekt ijobjiy natijaga erishish maqsadida riskka boradi. Shu asnoda xavf-xatar darajasining qancha yuqori bo'lishi risk qilish imkoniyatining shunchalik past bo'lishiga olib keladi. Bunday hollarda risk qilinmasligi mumkin.

Risk va xavf-xatarning alohida tushunchalar ekanligini va bir-biriga bog'liqlik darajasini quyidagicha ifoda etishimiz mumkin.



Chizma 2. Risk chegarasi va xavf-xatar darjasini o'ttasidagi bog'liqlik.

Chizmadan ko'rinish turibdiki, risk chegarasi va xavf-xatar darajali bir-biriga teskari proporsionaldir. Xavf-xatar mavjud barcha hollarda ham risk qilinavermaydi. Xavf-xatar darjasini past sharoitda to'liq ishonch bilan risk qilinadi, chunki bu holda biror ijobjiy natijaga erishish mumkin. Chizmadagi mavjud holatni tenglamada quyidagicha ifodalash mumkin.

$$Nq1 \quad A(\) = B(\).$$

$$0 < X < 1 \text{ oralikda}$$

$$N^* < R < oo, \text{ ya'ni}$$

$$X - OR - oo$$

$R=n$, ya'ni bu tenglama risk darjasini () bilan xavf-xatar (X) bir

X biridan farq qiluvchi va bir-biriga teskara proporsional bo'lgan alohida ko'rsatkichlar ekanligini ko'rsatadi. Tenglama $Xq1$ bo'lganda n bo'lishini va chizmada $A(X1: R n)$ nuqta. Ya'ni xavf-xatarning $X1$, birligida risk qilishdan yuqori foyda ko'rish mumkinligini ko'rsatadi. Rq1 tenglashganda $Xq n$ bo'ladi va $V(X n: R1)$ nuqta ya'ni xavf-xatarning yuqori bo'lishi risk qilish imkonini qolmasligi.

Aniqrogi risk qilish ijobiy natija bermasligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, agar $O < X < n$ oraliqda tebransa risk (R) darajasi $n < r < Q$ oraliqda bo'lishini ko'rish mumkin.

Aksincha, $O < R < 1$ oraliqda $n < r < Q$ bo'ladi nol yaqinlashganda esa bu omillar tenglashishi ham mumkin. Demak, xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan holatda risk qilishga xojat yo'q, chunki bu risk muvaffaqiyatsiz tugaydi. Demak xulosa qilib aytganda, risk va xavf-xatar bir xil tushuncha emasdir. Bu xulosamizning asosi quyidagilar hisoblanadi:

-birinchidan, xavf-xatar riskka nisbatan aksariyat hollarda birlamchidir:

-ikkinchidan, xavf-xatar darajasi past bo'lgan hollarda risk qilinadi.

-uchinchidan, xavf-xatar va risk bir-biriga teskari proporsional bo'lgan jarayondir.

-to'rtinchidan, xavf-xatar darajasi (kulami) yuqori bo'lsa, u holda risk « O » bo'ladi.

Endi biz iqtisodiyotning tabaqaflashgan darajasida risklarni tasniflash va ularning shakllarini ta'riflab o'tamiz va risklarning uch asosiy sinfini ajratib ko'rsatamiz.

1. Iqtisodiy risk.

2. Ijtimoiy – siyosiy risk.

3. Fiskal-monetary risk.

Iqtisodiy risk deganida yirik tizim va uning rivojlanishida umumi iqtisodiy muvozanat, ya'ni Ya.I.M. uning uchishi dinamikasi va boshqa ko'rsatkichlarning pasayishini tushunamiz.

Ijtimoiy – siyosiy risk deganda:

-aholining barcha guruhini umumiy riskdan ijtimoiy himoya.

-aholi daromadlarining adolatli taqsimlanishiga.

-ishsizlikni qisqartirishga va boshqalar. (taklif va talabning tartibga solish) tushuniladi.

Fiskal-monetary risk deganda davlat tomonidan o'tkazilayotgan moliyaviy-byudjet siyosati, narx darajasini barqarorlashtirish, optimal soliq me'yorlari, pul massasining ta'minoti va boshqalarni tushunamiz.

Risklarni boshqarish nazariyasini shakllantirish va risklarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir kuchini aniqlash, ularning umumiylig darajasiga qarab iqtisodiyotning tabaqalashgan darajasida ko'rib chiqish lozim. Tahlil qilinayotgan risklar umumiyligini «sinf», «kichik sinf», «guruh», «kichik guruh», «tur», «tip» darajalar bo'yicha tahlil qilish risklar va darajalarni boshqarish tizimi ishonchliligini oshirishga imkon beradi.

Risklarni guruhlarga bo'linishiga asos bo'lib:

1. Maqsadning funksionalligi.
2. Vazifalarning umumiyligi.
3. Operatsiyalarning o'xshashligi darjasini va boshqa omillarga qarab risklarni iqtisodiyotning tabaqalar — makro, mezo va mikro darajada tasniflash lozim. Bundan tashqari, risklarni namoyon bo'lishi va oldindan aytib berish belgisi bo'yicha qo'shimcha tasniflash zarurdir.
Bular:
 - 1 Oldindan aytib bo'lmaydigan risklar — tashqi risklar.
 - 2 Oldindan aytib bo'ladijan risklar — korxonaning ichki risklari firmaning xo'jalik faoliyati, uning investitsiya loyihasini amalga oshirish ehtimoli.

1.2. Makro va mezo darajadagi risklar

Risklarni makro, mezo va mikro darajada to'liq ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular quyidagicha tasniflanadi.

Makro darajada iqtisodiy risk—tashqi va ichki oldindan aytib bo'ladijan va aytib bo'lmaydigan. Mezo darajada sanoat agrar va xizmat ko'rsatish sohasidagi risklarga bo'linadi.

Mamlakat miqyosida makrodarajada iqtisodiy risklarni aniqlash juda muhim bo'lib, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish, chetdan investitsiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy qo'yilmalar jalb qilishda katta ahamiyatga egadir. Har bir mamlakatning rivojlanishi risklar, xalqaro bank amaliyotida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo'lgan risklar bilan bevosita bog'liq. Bu risklarni bo'lishi va ularning darjasini esa import yoki eksport, davlatga yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog'liq. Biror-bir davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o'rnatishda, ayniqsa kredit: hisob-kitob operatsiyalarini olib

borishda undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib, risk darajasini aniqlash lozim. Jahan amaliyotida shu maqsadda tavsija etiladigan yo'llardan biri – bu mamlakat iqtisodiy risklar hajmini tahlil qiluvchi beri indeksidan foydalaniladi. Uning yordami bilan oldindan mamlakat iqtisodiy risklarining hajmi belgilanadi.

Mamlakat iqtisodiy riskini bashorat qiliishda davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdek amaliy ma'lumotlar va nisbatlarni o'matishga asoslangan miqdor ko'rsatkichlariga tayanish kerak.

Tahlilning ichki turi. Sifat va miqdorning uyg'unlashuvi aniq va ravon bo'lishi barcha jadvallar va taqqoslangan ma'lumotlar tahlilni yengillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun qisqartmalarining ochib berilishini o'z ichiga olishi kerak. Bu asosiy tamoyillar mamlakat riskini aniqlashda tahlil qilinayotgan statistik va analitik yo'nalishlarning ikki pog'onali tizimini tashkil qilishga olib keldi.

Birinchi pog'onada holat to'g'risidagi hisobot tashkil qilinadi. Eng avvalo tahlilning muhim bo'lagi, ya'ni mamlakat iqtisodiy riskining darajasi haqida xulosa keltiriladi.

Ikkinci pog'onada aniq iqtisodiy-siyosiy vaziyat tahlil qilinadi, marketing shakllanishining natijalari ko'rib chiqiladi va omillar riski asosida davlatning iqtisodiy risk darajasi aniqlanadi.

Makrodarajada mamlakat iqtisodiy riskini baholashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar tahlil qilinishi mumkin:

- iqtisodiy samaradorlikning (YaIM) yillik o'sishi;
- siyosiy risk darajasi;
- jahon banki ma'lumotlariga asosan olingan kredit miqdori, tashqi qarzlar, tashqi savdo oboroti va boshqalar;
- bank kreditlarini olish imkoniyati;
- uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;
- tashqi qarzlar bo'yicha to'lanmagan majburiyatnomalar.

Iqtisodiyotning mezo va mikrodarajada risklarining turlari va ta'sirchanlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bu o'z navbatida risklarga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq bo'ladi va bu omillarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Obyektiv-boshqarilmaydigan.
2. Subyektiv-boshqariladigan.

Birinchi guruhgaga, subyektga bog‘liq bo‘lmasan omillar (inflyatsiya, raqobat, Krizislar).

Ikkinci guruhgaga korxona yoki firmanın faoliyatidan kelib chiqadigan, ishlab chiqarishni tashkil etish, texnikaviy imkoniyat, mehnatni tashkil etish va boshqalar kiradi.

Qisqacha xulosalar

Shunday qilib, iqtisodiyotning bo‘g‘inlarida risklar va unda bank risklarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining iqtisodiyotdagagi islohotlarini amalga oshirishdagi ahamiyati, banklar ahamiyati faoliyatidagi risklar turlari, tasniflash va ularning shakllari ta’riflari va sifatlarini ajratib ko‘rsatadilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Risk o‘zi nima?
2. Risk bilan xavf –xatarning farqi bormi?
3. Riskni qabul qilishni tushuntirib bering.
4. Iqtisodiy risk o‘zi nima?
5. Ijtimoiy-siyosiy riskni tushuntirib bering.
6. Fiskal monetar risk nima?
7. Bank balansi tahlilining risk darajasini pasaytirishga ta’siri.
8. Bozor riski deganda nima tushuniladi?
9. Risklarga ta’sir etuvchi omillarni guruhgaga bo‘ling?
10. Tahlilning ichki turi qanday amalga oshiriladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк risklari va creditlasi. -T.: Molija, 2003.
2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. -M.: Экономика, 2004.


3. Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки: конспект лекций.
М.: Приор издат., 2004.
 4. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2004.
 5. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит.
Экспресс справочник для студ. вузов. – Ростов н/Д. изд. Центр
Март, 2004.
6. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
 7. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>

II BOB

BANK RISKLARI, ULARNING TURLARI VA HISOBLASH USULLARI

2.1. Bank aktiv operatsiyalari bo'yicha risklar

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoni tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritish tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir.



I-chizma.

Vujudga kelish sababi bo'yicha risklar

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek, tijorat banklari faoliyatidan ko'zlangan natija foyda olishdir. U risk bilan bog'liq bo'ladi. Shu tufayli tijorat banklari oldida turgan birinchi masala bu risk va foydalilik o'rtasidagi optimal darajaga erishishdir.

Tijorat banklari o'z faoliyati bilan bir tomondan o'z aksiyadorlari oldida javobgar bo'lsalar, ikkinchii tomondan o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadir.

Rivojlangan mamlakatlar banklariga nisbatan MDH davlatlari tijorat banklari yanada ko'proq riskga ega bo'lmoqda. Buning asosiy sababi bank faoliyatini hozirgi davr talabiga javob beradigan holda qayta tashkil etish va yangi turdag'i bank operatsiyalarini amalga oshirishda yetarli tajribaning yo'qligi.

Shu tufayli bank riski, uning mohiyati, turlari, kelib chiqish sabablarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank amaliyotida risk har doim kutilmaan hodisa emas. Bank faoliyatining barcha turi risk bilan bog'liq. Bank faoliyat turi yoki operatsiya riskli ekanligini bilib turib, ushbu operatsiyani amalga oshirishga qaror qiladi va amalga oshiradi.

Bank riski iqtisodiy risklarning bir qismini tashkil qilib, bank bilan jismoniy va huquqiy shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga tayanadi.

Mablag'arni kreditlash tamoyiliga qarab mijozlarga berilishi, banklar ishining ma'lum tamoyillariga asosan tashkil qilinishi ular faoliyatining turlari risklar bilan bog'liq ekanligini anglatadi. Bu hol esa bank riskining obyektivligini ifodalaydi.

Bank faoliyatiga boshqa omillarning ta'siri, ular natijasini hisoblash imkoniyatining mavjudligi va bir turdag'i riskning turli sharoitda bo'lishi, uni turlichcha qabul qilish va hisobga olish — uning yuzaga kelishining subyektiv sabablari hisoblanadi.

Bank faoliyatida risklar yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o'rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma'lumotning yetarli emasligi;

-kreditlanadigan loyiha, obyekt va mijozlar to‘g‘risida, ularning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida ma’lumot va axborotlarning to‘liq emasligi;
-tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;
-subyektlar yoki mijozlarning ongi. Mablag‘dan foydalanish bo‘yicha bilimi.

Yuqoridagilarga asoslanib bank riski bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag‘larining bir qismini yo‘qotish yoki daromad olmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit investitsiya, valyuta) o‘tkazishdir degan ta’rifni keltiramiz.

Bank faoliyatining risk bilan bog‘liq bo‘lishi xarajatlar, zararlar va yo‘qotishlar kabi kategoriyalarning doimiy uchrab turishi va ular bank amaliyotining kunlik monitoringida bo‘lishini taqozo etadi. Harajatlar, zarar, yo‘qotishlar risk hisoblanmaydi. Bu tushunchalarning har biri o‘z mohiyatiga ega.

Bankning depozitlar, jamg‘armalar va boshqa jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha foiz to‘lash. Boshqa moliya kredit institutlaridan jalb qilingan mablag‘lar uchun ish haqi to‘lash va boshqa operatsion xarajatlar bilan bog‘liq risklar quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

-bozor iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar, aholi jamg‘armalari bo‘yicha to‘lanadigan foiz stavkalarining oshib borishi, kredit resurslari yetishmovchiligi va boshqalar. Bunday holatda banklar o‘z daromadlari bilan xarajatlarini yopa olmaydi.

Bankning zarar ko‘rishi. Bank faoliyatida uchraydigan risklarning oldini ololmaslik natijasida yuzaga keladi. Bank faoliyatida risklar kelajakda amalga oshiriladigan operatsiyalarni tahlil qilmaslik, holatni yaxshi o‘rganmaslik, bozor imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bera olmaslik bank faoliyati uchun salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Yo‘qotishlar bank foydasini kamaytiruvchi omil hisoblanib, u bank faoliyatining risklilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Riskning hajmi bank amalga oshiradigan operatsiyalarning risklilik darajasiga, risk sohasidagi strategiyasi sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Daromadlilik va risk o‘rtasidagi nisbatni saqlab turish bankni boshqarishning eng asosiy va murakkab muammolari hisoblanadi. Banklarni ba’zan «risk sotib oluvchi va sotuvchilar» deb ataydilar.

Bank risklarini boshqarishni samarali tashkil etish ularni muayyan belgilari bo'yicha aniq guruhlarga bo'lish bilan bog'liq.

Risklar tasnifi, har birining umumiy tizimdag'i o'rnini belgilash ularni boshqarishning samarali usullarini qo'llash imkonini beradi.

2.2. Bank risklarini hisoblash usullari

Bank risklarini hisoblash quyidagi asosiy tamoyillar asosida olib boriladi.

1. Riskning paydo bo'lish sabablari va ta'sir qilish xarakteri bo'yicha.

2. Namoyon bo'lish shakllari bo'yicha.

3. Boshqarish imkoniyatiga qarab risklarni bo'lib chiqish.

4. Hisoblash usuliga qarab risklarni ajratish.

5. Yuzaga kelish va ta'sir vaqtiga qarab risklarni ajratish.

6. Yuzaga kelish sohasiga qarab risklarni tasniflash.

Paydo bo'lish sabablariga ko'ra. Risklar sof va sun'iy risklarga bo'linadi. Sof risklar ko'pincha obyektiv xususiyatga ega va salbiy «o» natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bunday risklarga tabiiy ekologik transport risklari, tijorat riskining bir qismi kiradi.

Namoyon bo'lish shakllariga qarab bank risklari tizimli yoki tizimsiz risklarga bo'linadi. Tizimli risklar bank tizimidagi umumiy vaziyat natijasida bankning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimoli sifatida ta'riflanadi.

Tizimsiz yoki nomuntazam risklar bank tizimida umumiy ahvol barqaror saqlangan holda alohida olingan bankning moliyaviy ahvoli yomonlashishi ehtimolini bildiradi.

Boshqarish imkoniyatiga ko'ra bank risklari ochiq va yopiq bo'ladi. Ochiq risklarni tartibga solib bo'lmaydi. Yopiq risklarni esa boshqarish mumkin. Yopiq risklar diversifikatsiya siyosatini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ya'ni bunda bank operatsiyalari umumiy hajmini saqlash maqsadida bir necha mijozlarga berilgan kreditlarni kichik summalaridan keng miqyosda taqsimlash yoki yirik kreditlarni konsortsial asosda berish; depozit sertifikatlarini joriy qilish, qayta hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish, kredit va depozitlarni sug'urtlash amalga oshiriladi.

Balanslashmagan likvidlilik riskining paydo bo‘lishi bank boshqaruv va xodimlari malakasi, bank faoliyati va nazoratini tashkil qilish, risklarni tartibga solish uchun qo‘llanayotgan usullarning ishonchliligi, alohida bank operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo‘yicha risklar koeffitsiyenti shkalasini tuzishga asoslanadi.

Bank faoliyati natijalariga ta’sir etish darajasiga ko‘ra bank risklari bir nechta toifalarga bo‘linadi. Eng asosiy belgilariiga ko‘ra ular kichik, o‘rtacha va to‘la risklarga bo‘linadi. Bank riski darajasi bank yo‘qotishlariga olib boruvchi voqealar ehtimoli bilan xarakterlanadi. Ular foizlarda yoki muayyan koeffitsiyentlarda ifodalanadi. Chet el tijorat banklari, jumladan Britaniya banklari risklarini besh toifaga ajratadi, bular:

1. A toifa – kichik yoki nol risk.
2. B toifa – oddiy risk.
3. V toifa – oshgan risk.
4. G toifa – katta yoki yuqori risk.
5. D toifa – nomaqbul risk.

Bizda risk toifalarining darajalanishi bank aktivlari risk darajasini hisobga olgan holda guruhash ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

- balans operatsiyalari riski;
- balansdan tashqari operatsiyalar riski;
- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq risklar.

O‘z navbatida balans operatsiyalari risklari bankning aktiv operatsiyalari riski, balansning passiv operatsiyalari riski, aktiv va passivlarni boshqarish sifati bilan bog‘liq riskka bo‘linadi.

Agar risklar tasnifini yanada aniqlashtirish kerak bo‘lsa:

- Aktiv operatsiyalar riskiga kredit, hisob-kitob kassa, bozor, valyuta, lizing, faktoring risklari, moliyalashtirish va investitsiyalar bilan bog‘liq risklar;
- kredit riski – mijoz tomonidan olingan qarz summasini va foiz to‘lovlarining to‘la olmaslik ehtimoli bo‘lganda;
- hisob-kitob risklari – bank tomonidan shartnomaga asosan mijozga o‘z vaqtida hisob-kitoblarni o‘tkaza olmaslikda yuzaga keladi;
- kassa risklari – bank kassasi orqali o‘tuvchi naqd pullar saqlanishi bilan bog‘liq holatlarda yuzaga keladi;
- bozor riski – bozor foiz stavkalarini barqaror etmasligi oqibatida

moliyaviy aktivlarni bozor qiymatini o'zgarish sababli yuzaga keladi;

-valyuta riski —valyuta kursi o'zgarishi natijasida yuzaga keladi, natijada chet el valyutasida olib boriladigan operatsiyalar bo'yicha yo'qotishlar bo'lishi mumkin;

-lizing operatsiyalar riski —ijarachining bankdan olgan mulkidan samarali foydalana olmasligi natijasida yuzaga keladi;

-faktoring operatsiyalar bo'yicha risk —bankning uchinchi shaxsdan olgan qarzdorning majburiyatları bo'yicha to'lovlarni amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi;

-investitsiya risklari —bank tomonidan sotib olingen qimmatli qog'ozlar bo'yicha oladigan daromadlarning tushib ketishi natijasida yuzaga keladi.

Banklarning passiv operatsiyalari risklari asosan aktiv operatsiyalarni resurslar bilan ta'minlashda yuzaga keladi. Bankning passiv operatsiyalari risklari bankning omonatlar, depozitlar, boshqa moliya kredit muassasalarining muddatidan oldin talab qilib olinmaydigan aniq muddatli kreditlari shaklida yetarlicha miqdorda resurs jalb eta olish imkoniyatidan iborat.

Balansdan tashqari operatsiyalar riskiga mijozlarning majburiyatları yuzasidan berilgan kafolatlar bo'yicha to'lash zaruriyati yuzaga kelishi ehtimoli bilan bog'liq.

Aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklarga to'lovga layoqatsizlik riski, balanslashmagan likvidlik riski, foiz riski, foyda ola bilmaslik riski, suiste'mol etishlari riski va boshqalar kiradi.

- to'lovga diqqatsizlik — o'z kapitali va resurslarni yo'qotishi oqibatida o'z majburiyatları bo'yicha to'lovga layoqatsiz bo'lish va faoliyatni to'xtatish bilan bog'liq riskdir.

-balanslashmagan likvidlilik riski bankning resurs sifatida jalb qilingan mablag'lari bilan berilgan kreditlar, muddati, foiz stavkasi darajasi bo'yicha mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi.

-foiz riski bankning kreditga bergen mablag'lari bo'yicha oladigan foiz stavkasiga nisbatan jalb qilingan resurslari bo'yicha yuqori foiz stavkalarini to'lashga majbur bo'lgan holda yuzaga keladi.

- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda risklar operatsion, texnologik risklarni, innovatsion risklari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

-operatsion va texnologik risklarga bank texnologiyalarida uchrab

turadigan (uzilish) axborotlarni yo'qotish, hujjatlarni yo'qotish, kompyuter ta'magirliklari, bank xodimlari faoliyatida xatolarni yo'q qilish va boshqalar.

Risklar tijorat banklarining turlariga ko'ra ham guruhlarga bo'linadi.

Universal tijorat banklari mijozlarga qaysi tarmoq tegishligidan qat'iy nazar, juda keng xizmat turlarini ko'rsatadi. Shuning uchun ular deyarli barcha risklarga uchraydi. Biroq universal tijorat banklari aktivlari yuqori darajasida diversifikatsiyalanishi bilan ifodalanadi, ya'ni ba'zi sohalarda ko'rilgan zarar boshqalardan olingan foyda bilan qoplanishi mumkin.

Tarmoq tijorat banklari bir soha bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ular uchraydigan risklar asosan mijozlarning faoliyatida uchraydigan iqtisodiy risklarga bog'liq bo'ladi.

Ixtisoslashgan tijorat banklari o'z yo'nalishidagi maxsus bank operatsiyalari bo'yicha risklarda ham uchraydi.

Ichki risklar bankning turi va xususiyatiga, uning faoliyatiga, hamda uning mijozlari tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Bank aktiv operatsiyalarning risklari foiz risklari darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Bu risklar banklarning o'z faoliyati jarayonida yuzaga keladi.

Foiz risklari boshqarilishida aktiv va passivlar — boshqarishning bir necha tamoyillari mavjud.

Bular quyidagalar:

1. Bankning foiz darajasi qancha yuqori bo'lsa, foiz riski darajasi shuncha past bo'ladi.

2. «Spred» tamoyili. Bunda olingan aktivlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka va to'langan majburiyatlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka o'rtasidan farq tahlil qilinadi.

3. Bankning o'zgarmas va suzib yuruvchi foiz stavkalari bilan balansdan tashqari aktiv va passivlar tahlil qilinadi.

Foiz risklarining darajasi quyidagilarga bog'liqdir:

-aktivlar tuzilishidagi o'zgarishlar, shu jumladan kredit va investitsiyalar hajmi aktivlarning qayd qilingan va suzuvchi stavkalarda ularning bozordagi narxining dinamikasi;

-passivlar tuzilishidagi o'zgarish, ya'ni shaxsiy zayom mablag'larning mutanosibligi muddatli va jamg'arma depozitlar;

-foiz stavkasi dinamikasi- foiz risklari darajasini boshqarish va nazorat qilish bank faoliyatining aniq bir holatiga bog'liq holda strategiyalar ishlab chiqiladi.

Portfel risklari qimmatli qog'ozlarning alohida turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo'yicha zarar ko'rish ehtimoli bilan belgilanadi. Portfel risklari moliyaviy likvidlik risklar, tizimli va tizimsiz risklarga bo'linadi.

Moliyaviy risklar quyidagicha aniqlanadi. Banklar aksiyadorlar, qo'shma banklar qancha ko'p zayom mablag'lari ega bo'lsa, ularning aksionerlariga, ta'sischilariga nisbatan riski shuncha yuqori bo'ladi. Qabul qilingan me'yorlarga asosan, qarzdorlar uchun o'z mablag'lari bilan jalg qilingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat-qarzdorlik koefitsiyenti

$K_k = 0,2-0,3$ o'rtasida tebranib turishi lozim. Bu risk leveraj riski qimmatli qog'ozga qo'yilgan kapital bilan daromadning belgilangan darajasi o'rtasidagi nisbatga, daromadning belgilanmagan darajasi bilan bankning hamma asosiy va aylanma kapitalining hajmiga bog'liq bo'ladi.

Bunday risklarni hisoblash usullari quyidagilardir:

Risk darajasi faoliyatida maqsad nimaga yo'naltirilganiga qarab zararlar bo'lishini va xo'jalik subyektining faoliyat natijasi ma'lum yo'qotishlar bilan tugashi yoki yuqori daromad olishi mumkinligini ifodalarydi.

Mavjud risk darajasi va u bilan bog'liq yo'qotishlar ehtimolini aniqlashning bir necha yo'llari mavjud.

-ekspert baholash usuli (subyektiv usul).

Bu usul riskni tahlil qiliuvchi iqtisodchining malaka darajasiga asoslanadi.

Ehtimollik subyektiv tarzda aniqlanganda har bir kishi bitta hodisaning qiymatini turlicha belgilashi va u haqda turlicha qaror qabul qilishi mumkin.

Bu usulda bankning faoliyatida o'tkazilgan barcha operatsiyalar bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilinishi lozim. Bunda imkonи boricha ko'proq yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan operatsiyalarni tahlil qilish ko'zda tutiladi. Yo'qotishlar oraliq'ini quyidagicha aniqlash mumkin.

$$Y = \frac{in}{S}$$

Y- yo'qotishlar oralig'i darajasi.

Ix- yo'qotishlarga olib keluvchi holatlar soni.

S- statistik tahlil qilinayotgan holatlar soni.

Bu yerda s-bankning faqat yo'qotish, zararlarga olib kelishi mumkin bo'lган operatsiyalarning sonini emas, balki barcha operatsiyalarni, jumladan foyda keltiruvchi operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Agar shu qoida inobatga olinmasa, bankning oraliq yo'qotishlar darajasi va u bilan bog'liq risk darajasi juda yuqori chiqishi mumkin, ya'ni yo'qotishlar oralig'i darajasi $0 < y < 1$ oralig'ida bo'lib, ushbu «y» qancha «o» soniga yaqin bo'lsa, risk darajasi shuncha kichik bo'ladi.

Agarda «y» qanchali «1» soniga yaqin bo'lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu usul risk darajasini yoki yo'qotishlar bo'lishi ehtimolini statistik ma'lumotlarga asoslanib yuqori aniqlikda ifodalab beradi.

Ehtimollik har doim ma'lum bir natija olishni ifodalaydi. Ehtimollar nazariyasi usullarini iqtisodiy masalalarni hal qilishga qo'llaydigan bo'lsak, u biron-bir natija bo'lishi mumkin bo'lган holatga tan berish kabilarni aniqlaydi. Bunga misol tariqasida quyidagi amaliy holatni ko'rib chiqishimiz mumkin. Tijorat banki kredit resurslarini kichik biznes sohasiga qo'yadigan bo'lsak;

100 ming daromad olish ehtimoli 0,7 bo'lsin, agar mablag'ni o'rta biznes sohasiga qo'yadigan bo'lsak va 120 ming so'm daromad qilish ehtimoli 0,4 ga teng bo'lsin deylik.

Shu holda kapital qo'yishdan daromad olishning kutilgan summasi quyidagicha bo'ladi.

Kichik biznes bo'yicha 70 ming so'm ($100 \times 0,7$)

O'rta biznes bo'yicha 48 ming so'm ($120 \times 0,4$)

Daromad olishning risk bilan bog'liqlik darajasini quyidagi hisoblarda ham keltirish mumkin.

Agar kichik biznesga kapital qo'yilganda 150 holatdan 60 tasida

100 ming so'mdan foyda olinsa (buning ehtimoli 0,4ga teng)

45 holattan 90 ming so'm foyda olinsa (ehtimoli-0,3) va 45 tasida 110 ming so'm (ehtimoli-0,3)teng foyda olinsa, unda o'rtacha kutilayotgan daromad 100 ming so'mni tashkil qiladi. (120x0,4+90x0,3+110x0,3)

Bank risklarini baholashning statistik eksport usuli ko'riliши mumkin bo'lган zararlar ehtimolini ikkita mezon yordamida baholashga asoslangan.

1. Kutilayotgan o'rtacha qiymat.

2. Ehtimol qilingan natijaning o'zgaruvchanligi.

Kutilayotgan o'rtacha qiymat tushunchasi vaziyatning noaniqligi bilan bog'liq bo'lib, erishilishi mumkin bo'lган barcha natijalarning o'rtacha qiymatidan iborat va bunda har bir natijaning ehtimolidan tegishli qo'llanmang tez takrorlanishi yoki salmog'i sifatida foydalaniladi.

Agar qandaydir voqeanning ehtimol qilingan ikkita natijasi X₁ va X₂ qiymatiga ega bo'lsa ulardan har birining ehtimolligi R₁ va R₂ bo'lsa, kutilayotgan o'rtacha qiymat (O'sx) quyidagicha bo'ladi.

$$O'(x)=R_1X_1+R_2X_2.$$

Bo'lajak natijaning o'zgaruvchanligi bo'lajak natijaning kutilayotgan o'rtacha qiymatidan farqlanishi darajasini anglatadi. Buning uchun odatda amaliyotda bir-biri bilan mustahkam bog'langan ikkita ko'rsatkich: diskret tasodifiy miqdor dispersiyasi va o'rtacha kvadrat farq qo'llaniladi. Qandaydir voqeanning mumkin bo'lган ikkita natijasi X₁ va X₂ qiymatga ega bo'lib, ehtimollik R₁R₂ va kutilayotgan o'rtacha qiymat O'(x) bo'lganda diskrent tasodifiy miqdorning dispersiyasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$D(x)=R_1(x_1)O'(x)+R_2(X_2-O'(x)).2$$

Hisoblarni soddashtirish, bo'lajak zararlar darajasini faqat ikkita qiymatidan foydalanish mumkin, bunda qiymatlarning ehtimolligi bir xil bo'lган holda ular o'rtasidagi oraliq qancha katta bo'lsa, risk darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

O'rtacha miqdor-mavjud miqdorlarga son jihatidan o'rtacha ta'rif beradi va biror-bir qo'yilgan kapital tomoniga yoki foydasiga yondoshishga yo'l qo'ymaydi.

Dispersiya-bu haqiqiy erishilgan natijalar o'rtacha tortilganining o'rtacha kutilayotgan natijalar farqlanish kvadratining kuzatuvchi soniga bo'lgan nisbatidir

Ya'ni:

$$O^2 = E(x-x) \cdot n$$

En

Bunda O^2 dispersiya

X-har bir kuzatilayotgan operatsiya bo'yicha kutilayotgan natija.

X-o'rtacha kuzatilayotgan natija.

n - operatsiyalar yoki kuzatuvlar soni.

O'rtacha kvadratik farqlanish dispersiyasining kvadrat ildizi bo'lib quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi.

$$O^2 = E(x-x) \cdot n$$

En

Har ikkala ko'rsatkich ham absolyut o'zgaruvchan parametrlardir. O'zgaruvchanlikning nisbiy ko'rsatkichi variatsiya koefitsiyentini hisoblash yordamida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich o'rtacha kvadrat farqlanishning kutilayotgan o'rtacha arifmetik miqdorga bo'lgan nisbatini ifodalaydi.

$$V = + \times 100$$

Bunda. V-variatsiya koefitsiyenti-%.

O- o'rtacha kvadrat farqlanish.

X- o'rtacha kutilayotgan qiymat.

Variatsiya koefitsiyenti O dan 100%gacha o'zgarib turishi mumkin. Koefitsiyent qanchalik yuqori bo'lsa, farqlanish yoki risk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Variatsiya darajasini baholashda quyidagi intervallardan foydalanish mumkin.

Odan 10 %gacha kam farqlanish.

10% - 25%- me'yorda yoki sezilarli farqlanish.

25% - yuqori - ko'p farqlanish.

Variatsiya koefitsiyenti bo'yicha farqlanish darajasining kam yoki ko'p bo'lishi bank amalga oshiradigan operatsiyalar bo'yicha risk darajasining past yoki yuqori bo'lishini ko'rsatadi.

Bankning operatsiyalari bo'yicha risk darjasini variatsiya koefitsiyentiga to'g'ri proporsionaldir.

Bank kichik va o'rta biznes bo'yicha taqdim qilingan kreditlar sohasida 150 holat bo'yicha bank ehtimolini hisoblab 100 ming daromad olishni mo'ljallagan.

O'rta biznes sohasida 120 holat o'rtacha 120 ming so'm foyda olish mo'ljallanmoqda. Ushbu holatda bankning asosiy vazifasi ushbu loyihalar ichidan risk kam bo'lgan loyihalarni ajratib olishi kerak. Buning uchun yuqoridagi ko'rib o'tilgan dispersiya usuliga murojaat qilamiz va uni hisoblaymiz.

3-jadval

No	Kredit berilgan sohalar	Olinadigan foyda (x) ming so'm	Operatsiyalar soni ()	(x-x)	(X-x)-2	(X-x)2
Kichik biznes uchun						
A	100	60	-	-	-	-
B	90	45	10	100	450	
V	110	45	+10	100	450	
Jami	X=100	150			900	
O'rtacha biznes sohasi						
A	120	48	-	-	-	-
B	140	42	+20	400	16800	
V	100	30	-20	400	120.00	
Jami	X=120	120			28800	
1 Asaka bank hisobotidan olingan						
Demak: Kichik biznesga kapital qo'yishning o'rtacha kvadratik farqlanish O <u>900</u> = + 2,46 teng bo`lsa						
150						

Xususiy biznes sohasiga kredit berish bo'yicha o'rtacha kvadrat farqlanishi

$$O = 28800 = Q \cdot 15,5 \text{ teng}$$

$$120$$

Bu holda variatsiya koefitsiyenti kichik biznes sohasiga qo'yilgan kapital bo'yicha

$$= 2,46 \times 100 = 2.46 \%$$

100

O'rtacha biznes sohasi bo'yicha;
 $= 15,5 \times 100 = 12,9 \%$

100

Shunday qilib kichik biznes sohasiga kapital qo'yish bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 2,46%

O'rta biznes esa 12,9% teng.

Hisob -kitoblarimiz shuni ko'rsatadiki, o'rta biznes sohasiga kredit berishda risklilik darajasi qariyb 5,4 marta yuqori, demak variatsiya koeffitsiyentlariga qarab qaysi sohaga kredit berishni aniqlash mumkin.

Bank risklarini baholashning yana bir usuli tahliliy (kompleks) usul bo'lib, bu usul o'yinlar nazariyasi unsurlarining qo'llanishiga asoslanadi. O'yinlar nazariyasi unsurlaridan foydalangan holda vazifalarni hal qilish jarayoni juda katta va ko'p vaqt sarf qilinadi. Shu sababdan bu usulni qo'llash hozirgacha iqtisodiy jihatdan maqsadga unchalik muvofiq bo'lmasligi mumkin.

Qisqacha xulosalar

Shunday qilib bank risklari ularning turlari va hisoblash usullari quyidagi guruhlarga bo'linadi. Banklar aktiv aksiyalari bo'yicha tiklanishning mohiyati, turlari va ularning kelib chiqish sabablari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari bank risklarini hisoblashda asosiy tamoyillar asosida olib borishi va shunga asoslanib miqdorini aniqlashda bir nechta usullarni, ya'ni ekspert statistik usullaridan foydalanishi, bank risklarining aniq miqdorini aniqlash banklar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ta'sir darajasi bo'yicha risklar qanday risklarga ajratiladi?
2. Vujudga kelishi bo'yicha risklar qanday risklarga ajratiladi?
3. Ta'sir vaqtি bo'yicha risklar qanday risklarga ajratiladi?
4. Bankning ichki risklarini aytib bering.
5. Bankning tashqi risklarini aytib bering.

6. Bank faoliyatidagi aktivlarni diversifikatsiya qilish nima? (1457)
7. Bank risklarini baholash usullari?
8. Geofizik risklar nima?
9. Bozor riski va kredit riskining o‘zaro bog‘liqligi nimada?
10. Riskni bartaraf etish yo‘llari?

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: Молия, 2003.
2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. –М.: Экономика, 2004.
3. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2004.
4. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. – Ростов н/Д. изд. Центр Март, 2004.
5. www.tech.avtobank.ru
6. www.dengiforum.com
7. www.finansmag.ru
8. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
9. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/monev/index.htm>

III BOB **BANK RISKLARINI BOSHQARISH USULLARI**

3.1. Bank risklarini boshqarish usullari va strategiyasi

Bank faoliyatini risksiz tasavvur qilish mumkin emas. Har bir biznesda risk albatta bo'ladi. Ammo faoliyat xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bank biznesida risk albatta yuz beradigan jarayon hisoblanadi. Shu tufayli, bank faoliyatida riskdan qochish to'g'risida emas, balki uni oldindan ko'ra bilish va uni minimal darajaga tushirish haqida gap boradi. Riskni boshqarish aksariyat hollarda bankning o'z mablag'larining bir qismini yo'qotish xavfi, daromad ololmay qolish yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida qo'shimcha xarajatlarga yo'l qo'yib bo'lsa-da, jarayonni ijobiy natija bilan yakunlashni maqsad qilib qo'yadi. Risklarni aniqlab uni boshqara ololmaslik natijasida yuzaga keluvchi to'liq daromad ololmaslik yoki kutilgandan ko'ra ko'prok xarajat qilib yuborish riski bo'lg'usi operatsiyalar hisobotlarining yetarli tahlil qilinmaganligi, vaziyatning to'g'ri baholanmaganligi yoki ko'zda to'tilmagan holat paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladi.

Bank riskini boshqarish tizimi riskning yuzaga kelishini oldindan bashorat qilish, risk tufayli yuzaga keladigan holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish borasida chora –tadbirlar, usullar yig'indisiga aytildi.

Bank riskini boshqarish banklar faoliyatini chuqur bilish, bajariladigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay olish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Bank riskini boshqarishda bank boshqaruvchisining asosiy vazifasi bank faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan daromad bilan unda yuzaga keluvchi risklar o'rtasidagi optimal variantni topishdan iborat.

Tijorat banklarida riskni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda korxonalardagi foydalanimagan rezervlarni baholash va bank xizmatining asosiy yo'nalishini aniqlab olish uchun o'rtacha tarmoq riskining hajmini hisobga olish kerak.

Tarmoq riski kredit riski bilan bog'liq bo'lib unga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham bank tarmoq siyosatini tuzishda nafaqat mijozlar, balki sohalar to'g'risida keng axborotlarga ega bo'lish, tarmoq riskini baholashda quyidagilarni hisobga olish kerak.

- aniq davr mobaynida ushbu tarmoq faoliyatining natijalari;
- ularning mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan barqarorligi;
- turli firmalarning bir yoki boshqa sohadagi faoliyatlarini natijalarida sezilarli darajada mos kelmasligi;

Tarmoq riskini baholovchi ko'rsatkichlardan biri biror iqtisodiy faoliyat natijalariga nisbatan soha faoliyati natijasining o'zgarishidir.

Bank mijozlarining tarkibiy tuzilishi bank riski va uning darajasini hisoblash usulini aniqlab berishi mumkin. Kichik qarzdorning faoliyati yirik qarzdornikiga nisbatan bozor iqtisodiyotining kutilmagan vaziyatlariga ko'proq bog'liq bo'ladi. Bank riski darajasini boshqarishda bank o'tkazadigan operatsiyalarining kafolatlanganligi, sug'urtalanganligi va boshqa tartibga solish usullaridan foydalanganligiga qarab to'la, o'rtacha va past risklar yuzaga kelishini hisobga olish kerak. Bankning asosiy operatsiyalari o'tgan va hozirgi risklarga tortilgan bo'ladi. Hozirgi risklarga kafolat berish bo'yicha operatsiyalar, o'tkazma veksellarni aktseptlash, hujjatlashtirilgan akkreditiv operatsiyalari, regress huquqi bilan aktivlarni sotish va boshqalar kiradi.

Kelgusi riskka esa kafolatning o'zini ma'lum muddatdan so'ng to'lash, vekselni to'lash, bank krediti hisobidan akkreditivni amalga oshirishlar kiradi.

Ko'p hollarda balans operatsiyalari bo'yicha yuzaga kelgan risk balansdan tashqari operatsiyalarga ham tarqaladi.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risklarning quyidagi asosiy turlariga e'tiborni jaib qilish kerak.

1. Depozitlarni shakllantirish riski.
2. Faktoring operatsiyalari bo'yicha risk.
3. Lizing kelishuvi riski.
4. Qarzdorlarning o'z majburiyati yuzasidan bajarmagan faoliyati bilan bog'liq risk.

5. Foiz stavkalarini tebranishi ehtimoli bilan bog'liq risk.
6. Qimmatli qog'ozlarning qadrsizlanish ehtimoli bilan bog'liq risklar.

7. Valyuta kurslari tebranishi ehtimoli bilan bog'liq risklar.

Bank o'z faoliyatida mavjud riskni aniqlashi, uni qabul qilishi, kuzatib borishi va uni boshqarish qobiliyatiga tayyor ekanligini zimmasiga olishi lozim. Bank risklarini boshqarishda ma'lum tamoyillarga rioya qilish katta ahamiyatga egadir.

Bank risklarini boshqarishning asosi quyidagi tamoyillarga bo'linadi.

- o'z kapitalidan ortiq summaga risk qilmaslik;
- riskning oqibati to'g'risida o'ylash, zararlarni qoplash, manbalarini prognozlash;
- risklarni moliyalashtirish;
- bankning barcha bo'limlarida risklarni nazorat qilish.

Bu tamoyillarga asosan bank o'zida mavjud resurslar atrofida risk qilishi kerak.

Risklarni boshqarishning asosiy usullari quyidagilar hisoblanadi.

- risklarni o'Ichash usulidan foydalanish;
- tashqi rikslarni hisobga olish;
- bank mijozining moliyaviy ahvolini muntazam nazorat qilish;
- rikslarni taqsimlash yo'llini qo'lllash;
- diversifikatsiya siyosatini o'tkazish;
- o'zgaruvchi foiz stavkalari asosida kredit berish;
- depozit sertifikatlarni joriy qilish va h.k.

Agar risklarning oldini olishning to'liq imkoniyati bo'lmasa, u holda oxirgi manba— bu riskni qoplash hisoblanadi.

Riskni qoplash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-banklar tomonidan umumiy va maxsus rezerv fondlarini tashkil qilish,

-kredit bo'yicha %lar belgilashni to'xtatish va boshqalar.

- Risklarni boshqarish daromad bilan risk o'rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud riskni minimallashtirishni o'z ichiga oladi.

3.2. Kredit portfelini diversifikatsiyalash risklarni boshqarish usuli sifatida

Diversifikatsiya so‘zi amaliyotimizda yaqin orada qo‘llanilayotgan zamonaviy iboradir. Bu so‘zning mohiyatini to‘g‘ri tushunish va uni amaliyotda qo‘llay olish orqali har bir bozor subyektining faoliyati samaradorligini oshirish mumkin. Avvalambor, diversifikatsiya o‘zi nima? “Diversifikatsiya” so‘zi lotincha so‘z bo‘lib har xil, turlituman degan ma’noni anglatadi.

Bank faoliyatida diversifikatsiya o‘tkazish faqat aktivlarni joylashtirishni o‘z ichiga olmasdan, bankning barcha faoliyati bilan bog‘liq jarayonlardagi risklarni kamaytirish sohasida qo‘llaniladigan usul bo‘lib, uni nafaqat bank aktivlarini joylashtirish bo‘yicha, balki banklar tomonidan resurslarni jalg etish, mijozlarning o‘rni, bankning umumiy strategiyasini olib borish va boshqa sohalarda ham qo‘llash mumkin.

Shu sababli diversifikatsiyaning bank ishida ishlatalishi bankning passiv operatsiyalarida bank jalg qiladigan mablag‘lar turli tarmoqlarni ko‘p sonli jamg‘armachilar tomonidan bo‘lishini taqozo qilsa, bank aktiv, kreditlash, investitsiyalarini bajarganda pul mablag‘larini turli tarmoq, sohaga kam miqdorda ko‘p sonli mijozlarga taqsimlashni ko‘zda tutadi. Mablag‘larni yuqoridaqgi usul bilan taqsimlashdan asosiy maqsad mablag‘larning qaytib kelmaslik bilan bog‘liq risklarni oldini olish va minimallashtirishga bo‘lgan intilishdir.

Bankda passiv operatsiyalari bo‘yicha diversifikatsiya o‘tkazilishi bankning kredit potensiali mustahkamlanishini ta’minlaydi. Bank resurslarining asosiy summasi cheklangan sanoqli mijozlarga to‘g‘ri kelishi va shu mijozlarning moliyaviy ahvoli yomonlashuvni natijasida ularning bankdan ko‘p miqdorda o‘z depozitlarini qaytarib olishi natijasida banklarning resurs bazasi kamayishiga, bu o‘z navbatida tijorat banklarining kredit potensiali zaiflashuviga olib keladi.

Passiv operatsiyalar bo‘yicha diversifikatsiyalarning ahamiyati shundaki, bir—biri bilan aloqador bo‘lmagan turli tarmoqdagi mijozlarning zarur bo‘lgan hollarda mablag‘larni bankdan olishi bankning kredit potensialiga katta ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin.

Kredit resurslarining kam miqdorda ko‘p sonli, turli tarmoqlarga

taalluqli bo'lgan bir-biri bilan aloqador bo'Imagan sohalarga taqsimlanishi bankni har xil risklardan zarar ko'rishdan saqlaydi. Tijorat bankining sezilarli miqdordagi resurslarining bir yoki bir necha mijozlar faoliyati uchun yo'naltirilishi bank uchun juda katta riskni yuzaga kelishiga olib keladi. Chunki miqdorda bank resursini olgan xo'jalik subyektining moliyaviy ahvoli yomonlashuvi, uning to'lovga layoqatliligi va likvidlilagini tushib ketishiga olingan kreditlar va ular bo'yicha foizlar stavkasi bankga qaytib to'lanishida katta muammolar tug'dirishi mumkin.

Kredit risklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanish bo'yicha diversifikatsiya o'tkazishdir. Shundan kelib chiqqan holda bank kredit portfelining diversifikatsiyasi bankning ba'zi mijozlardan ko'rgan zararlarini boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan qoplash imkoniyatini beradi.

Diversifikatsiyani uch xil yo'nalish bo'yicha olib borish mumkin:

1. Portfel.
2. Geografik
3. Kreditlarni to'lash muddatiga qarab o'tkaziladigan diversifikatsiya turlaridir.

Banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilish bankning kreditlarini har xil sohadagi bir necha mijozlar o'rtasidagi taqsimlashni o'z ichiga oladi. Diversifikatsiya qilinmagan kredit portfeli doimo yuqori risk bilan bog'liq bo'ladi.

Bank kredit portfelini diversifikatsiya qilish yo'li bilan kredit portfelini boshqarish bankning strategik rejalashtirish jarayoni bilan uzuksiz bog'liqdir

Diversifikatsiyaning xususiyatlari shundaki:

- birinchidan, diversifikatsiya hamma vaqt riskni kamaytiradi.
- ikkinchidan, kredit bo'yicha foyda harakati qancha kam mos kelsa, riskni kamaytirish hisobiga diversifikatsiyadan shuncha ko'p naf ko'riladi.

Diversifikatsiyalangan portfel — risk jihatdan bir-biriga bog'liq bo'Imagan kichik kreditlar to'plamini o'zida mujassamlashtiradi.

Kredit portfeli yigirmadan ortiq kreditdan tashkil topgan bo'lsa,

bunday portfel yaxshi diversifikatsiya qilingan portfel deyiladi. Diversifikatsiya talab darajasida bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- portfel ko‘p sonli nisbatan mayda kreditlardan tashkil topishi;
- kreditlar risk jihatidan bir biriga bog‘liq emas, ya’ni biron bir kredit bo‘yicha to‘lay olmaslik ehtimoli boshqa kredit bo‘yicha to‘lay olmaslik ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

Banklar uchun kredit portfelini diversifikatsiyalash oson, kreditni kam summada turli sohalarga, turli mintaqalarga ajratishga erishish lozim.

Kreditlarni ta’milanganligi bo‘yicha diversifikatsiya qilishda ta’minalash asos qilib olingan obyektning likvidlik darajasiga e’tibor berish zarur. Kredit ta’milanganligi likvidlilik darjasasi qancha yuqori bo‘lsa, kredit va u bo‘yicha foizning ham o‘z vaqtida qaytishi oson va tez bo‘ladi.

Kreditlarni ta’milanganligi bo‘yicha diversifikatsiya qilish quyidagi belgilari bo‘yicha o’tkaziladi:

- kreditning tovar moddiy boyliklar bilan ta’milanganligi;
- qimmatli qog‘ozlarni garovga olish yo‘li bilan ta’milanganligi;
- bank garantiyasi bilan ta’milanganligi darjasasi;
- boshqa huquqiy shaxslarning kafolati asosida ta’milanganligi va boshqalar.

Tijorat banklari 2 xil foiz stavkasi bilan kreditlar beradi. Birinchisi-o‘zgarmas foiz stavkasi, ikkinchisi esa suzib yuruvchi foiz stavkalari. Foiz stavkalarini o‘rnatishda bank ichki va tashqi bozorda yuzaga kelgan o‘rtalik foiz stavkalaridan mamlakatdagi inflatsiya darjasasi va bankning daromadliligiga qaraydi.

Diversifikatsiyaning keyingi turi-bu geografik diversifikatsiyalash bo‘lib, unda geografik mintaqani nazarda tutadi. Diversifikatsiyaning ushbu turi yirik banklarga xosdir.

Banklarning kredit portfelidagi kreditlarni yirik, o‘rtalik, mayda kreditlarga bo‘lish mumkin:

- mayda kreditlar, bittasining miqdori bankning o‘z kapitalining 1G‘300 qismini tashkil qiladi. Barcha ma’qullangan mayda kreditlarning tutgan salmog‘i taxminan barcha aktivlarning 30-35%ini tashkil etishi kerak.

-o‘rta kreditlar — bittasining miqdori o‘z kapitalining 1/100 qismini tashkil etadi;

-yirik kreditlar, bitta qarz oluvchiga berilgan kredit summasi o‘z kapitalidan 20 barobar oshiq miqdorda bo‘lishi kerak. Barcha ma‘qullangan kreditlar salmog‘i hamma aktivlarining 30%idan oshmasligi kerak;

Mulkchilik shakllariga ko‘ra bankning kredit portfelini, davlat korxonalariga, nodavlat korxonalariga, xorijiy kapital qatnashuvchisiga berilgan kreditlarga ajratiladi. Diversifikatsiyaning barcha usullari kredit riskidan himoyalanish usuli bo‘lib xizmat qiladi.

3.3. Kreditga layoqatlilikni aniqlash riskini kamaytirishdagi o‘rnii

Kredit mexanizmi xo‘jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ichiga kreditlash shartlarini, usullarini va kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit siyosatiini amalgalash oshirishini oladi.

Bank risklarini kamaytirish va daromadini oshirishda kreditlash jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, mijozning kreditga layoqatliliginini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mijoza berilgan kredit o‘z vaqtida qaytib kelishini xohlaydigan bank avvalambor mijozning kredit zayavkasi va uning kredit tarixini mukammal o‘rganib chiqish kerak. Bu jarayon bank riskining oldini olishning ilk bosqichi hisoblanadi. Kreditga layoqatlik ko‘rsatkichi e’tibor beriladigan ko‘rsatkichlardan hisoblanadi, chunki tijorat banklari o‘z faoliyati natijasi uchun to‘liq javobgar hisoblanadi. Kredit uchun foiz esa uning asosiy daromad manbai bo‘ladi. Korxonaning kreditga layoqatligini o‘rganish tijorat bankiga kredit berish mumkinligini aniqlashga, uning miqdorini, foiz stavkasi darajasini belgilashga imkon beradi. Bundan tashqarii, kreditga layoqatliliginini aniqlash ssudani o‘z vaqtida qaytarish ehtimolini, eng asosiysi, bank riskini kamaytirishga imkon beradi.

Jahon amaliyotida mijozning kreditga layoqatliliginini aniqlash uchun va kredit riskini pasaytirish uchun turli baholash tizimlaridan foydalananiladi.

AQShda qarz oluvchining kreditga layoqatliliginini aniqlash uchun va o‘z navbatida kredit riskini pasaytirish uchun 5-«S»Lar qoidasi

nomli usuldan foydalaniladi. Bu usulning asosida mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi:

- Mijozning reputatsiyasi.
- To'lov qobiliyati.
- Kapital.
- Ssudanining ta'minlanganligi.
- Iqtisodiy konyunktura va uning istiqbollari.

Bu usul bo'yicha mijozning obro'si, mas'uliyat darajasi, qarzni to'lashga bo'lgan istagi va tayyorgarligi tekshiriladi. Qarzdorning + to'lov qibiliyatida uning moliyaviy imkoniyatlari, uning kreditni to'lash qobiliyati qarzdorning foya va zararlari hamda kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar puxta tahlil qilish orqali aniqlanadi. Unda bank qarzni to'lash bo'yicha mijoz mablag'larining uch asosiy manbaini o'rganib chiqadi.

1.Joriy kassa tushumlari.

2.Aktivlarni sotish.

3.Moliyalashtirishming boshqa manbalari.

5 «S» qoidasida bank asosiy e'tiborini boshqa omillarga ham jumladan firmalarning aksioner kapitaliga, uning tuzilishiga aktiv va passivlarning boshqa moddalariga bo'lgan nisbatiga qarzni to'lamaslik holida garovni sotish darajasiga qaratadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi xo'jalik subyektlarining kreditga layoqatlilikini hisoblashni tijorat banklari mustaqil ravishda olib boradi. Kreditga layoqatliliqi asosan quyidagi koeffitsiyentlar orqali baholanadi:

- likvidlilik koeffitsiyenti;
- qoplash koeffitsiyenti;
- muxtorlik koeffitsiyenti.

Likvidlilik va qoplash koeffitsiyenti qarzlarni to'lash uchun o'z mulkini pulga aylantirish imkoniyati haqida dalolat beradi. Ikkala koeffitsiyent ham balansning aktiv va passivlari solishtirishi yo'li bilan aniqlanadi. Likvid mablag'lar o'zining pulga aylanish darajasiga qarab 3 guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh: - pul mablag'lari, hisob-kitob raqami, valyuta raqami va kassadagi pul mablag'lari qoldig'i.

Ikkinci guruh:- muddati 3 oygacha bo'lgan avans to'lovlar, byudjet bilan hisob -kitoblar, ishonchli debyutorlar bilan hisob - kitoblar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha h/k.

- xizmatchilar bilan hisoblashishlar.

Uchinchi guruh:

- kelgusi davr xarajatlari;
- ishlab chiqarish zahiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- tayyor mahsulot;
- tovarlar va boshqa zahiralari.

Likvidlilik koeffitsiyenti K1 quyidagicha aniqlanadi:

$$K1 = 1 \text{ va } 2 \text{ likvidlik mablag'ları}$$

qisqa muddatli qarz majburiyatları.

Qoplash koeffitsiyenti Kk

$$1,2 \text{ va } 3 \text{ guruh likvidlik mablag'ları}$$

$$Kk = \frac{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatları}}{\text{qisqa muddatli qarz majburiyatları}}$$

Likvidlilik koeffitsiyenti qarz oluvchi o'z mablag'ları hisobidan qarzning qancha qismini to'lay olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Qoplash koeffitsiyenti mijozning qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash uchun barchia turdag'i aylanma mablag'larining yetarli darajasini aniqlashga imkon beradi. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti Kay joriy aktivlarning aylanish tezligi va aktivlarga qo'yilgan mablag'larning pul mablag'lariga aylanish tezligini xarakterlab, u ma'lum davr ichida aylanma mablag'ları necha marta aylanganligini ifodalaydi.

$$\text{aylanma mablag'} \text{ o'rtacha qoldig'i} \times 360$$

$$\text{Oay} = \frac{\text{Sotish hajmi}}{\text{Sotish hajmi}}$$

Moliyaviy mustaqillik muxtorlik koeffitsiyenti Kann mijozning

o'z mablag'larini moliyalashtirish manbalari ichida tutgan salmog'ini ko'rsatadi va quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Kmu = \frac{O'z mablag'lari manbalari \times 100\%}{Balans summasi}$$

Bank uchun Kay va Kann ko'rsatkichlari kredit shartnomasi tuzilayotganda risk darajasini aniqlash nuqtai nazaridan muhimdir.

Korxonalarning kreditga layoqatliligini risk darajasini aniqlash birinchi navbatda ularning kapitali, ularning taqsimlanishi, o'z kapitalining salmog'iga e'tibor berilishi kerak. Bu yerda ikki ko'rsatkichga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular korxona o'z kapitalining kvotasi va muxtorlik koeffitsiyenti, ya'ni:

a)

$$Km = \frac{o'z kapitali \times 100}{balans summasi}$$

b) Korxonaning qarzdorlik darajasi:

$$\frac{Jalb qilingan mablag' \times 100}{Balansdagi summasi}$$

Bu koeffitsiyentlarni aniqlash investorlar va korxonani kreditlash uchun muhim, u korxona mulkini tashkil qilinishida korxonalar tomonidan qancha miqdorda mablag' qo'yanligini ko'rsatadi.

Keyingi guruh ko'rsatkichlari korxonaning likvidlilik daromadini aniqlab beruvchi ko'rsatkichlar bo'lib, qoplash koeffitsiyentlari deyiladi.

$$Ka = \frac{1gr.likvid mablag'lardan 2 gr likvid mablag'}{qisqa muddatli majburiyatlar}$$

$$Kk = \frac{barcha likvid mablag'}{qisqa muddatdi majburiyatlar}$$

Xo'jalik subyektlarining faoliyatini baholashda faqat likvidlilik ko'rsatkichiga e'tibor berish yetarli bo'lmaydi, bunga qo'shimcha ravishda ko'rsatkich kredit riskini kamaytirish uchun kapitalning rentabelliliginini aniqlash lozim va u quyidagicha aniqlanadi.

O'z kapitalining samaradorligi

yillik foyda x100

$$= \frac{\text{O'z kapitali miqdori}}{\text{Ishlab chiqarish mahsulotidan foyda}}$$

Ishlab chiqarish mahsulotidan foyda
Foyda x 100

$$= \frac{\text{Asosiy fondlar va boshqa asosiy aktivlar}}{\text{Jahon amaliyotida pul oqimini tahlil qilishning turli xil usullaridan foydalilanadi. Pul oqimini hisoblashda korxonaning joriy faoliyati bilan bog'liq pul tushumi va chiqish korxonaning moliyaviy holati bilan bog'liq pul oqimi alohida hisoblanadi.}}$$

Korxonaning moliyalashtirish koeffitsiyenti:

$K = \text{o'z kapitali} \times 100$

Jalb qilingan kapital.

Agar moliyalashtirish koeffitsiyenti 1 dan kichik bo'lsa, korxonaning to'lovga layoqatliliginini, katta risk bilan bog'liqligini, kredit berish juda xavfli ekanligini ta'kidlash mumkin.

Korxona mablag'larining qancha miqdori asosiy ishlab chiqarish fondlariga, qancha miqdori qimmatli qog'ozlarga sarflanganligini aniqlash kerak. Kapital qo'yilmalar kvotasi quyidagicha aniqlanadi.

(asosiy vosital.qo'yilmalar + moliyaviy qo'yilmalar (=k) x 100%
 $K_q = \frac{\text{Mulknинг umumiy summasи}}{\text{Keyin korxona aktivlari va passivlari о'rtasidagi nisbatni aniqlash lozim. Xo'jalik subyektlarini kreditlashda asosiy vositalarga qo'yilgan}}$

mablag'larni o'z kapitali hisobidan qoplay olish darajasini o'rghanish lozim.

Uzoq muddatga asosiy vositalar va moliyaviy qo'yilmalarga investitsiya qilingan mablag'larni qoplay olish darjasini quyidagicha aniqlanadi.

$\frac{\text{o'z kapitali (mablag'lari)}}{\text{Kik}} \times 100$

Kik =

Ishlab chiqarishga uzoq muddatga qo'yilgan real investisiya

Bu ko'rsatkichning 1% bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lib, korxonaning asosiy vositalarga qo'yilgan mablag'larni o'z kapitali va jalg qilingan kapitalning uzoq muddatli investitsiyalarga nisbati bo'lib, bu ko'rsatkich 100% va undan ortiq bo'lishi lozim. Demak kreditga layoqatlilagini aniqlash kredit riskini boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

3.4. Bank xavfsizligini ta'minlash— riskni pasaytirish omili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining tijoratlashuvi, ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank to'g'risidagi, banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun va boshqa yo'riqnomalar asosida shakllanadi. O'zbekiston Respublikasi bank ishini xalqaro banklar amaliyoti tamoyillariga yaqinlashuvchi va mavjud kapitalning asosiy banklarga to'planishini inobatga oladigan bo'lsak, banklar faoliyatining huquqiy tomonlarini va bank tizimining xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning asosiy masalasi hisoblanadi.

Bank oxirgi kreditor sifatida o'z faoliyati uchun javobgar ekanligini bank xavfsizligini ta'minlash asosida riskni kamaytirishga imkon yaratadi. Bank xavfsizligini ta'minlashdan asosiy maqsad bank mulki, uning xizmatchilari faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi xavflarning oldini olish, qonunbuzarlik va boshqa salbiy hollarga yo'l qo'ymaslikka erishishdan iborat.

Bankning bozor munosabatining subyekti sifatidagi huquq va manfaatlari, uning xizmatchilari huquqlarini himoya qilish, bankda va uning atrofidagi ahvol to'g'risida ma'lumotlar yig'ish va uni tahlil qilish, baholash, mijozlar va raqobatchilarni o'rghanish, bank faoliyati

va uning xizmatchilar uchun xavfli bo‘lgan holatlar oldini olish, ular haqida ogohlantirish va boshqalar. Banklar faoliyatida turli kutilayotgan holatlarining yuzaga kelishi, ular moliyaviy ahvolining salbiylashuviga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan tijorat banklarini e’tiborga olish lozim bo‘lgan bank ishining xalqaro standartlarini bayon qilamiz.

Bular quyidagilardan iborat:

Banklar foydali va ishonchli ishlashi shart.

Bank faoliyatining starategiyasi va asosiy ishlarini rejalashtirish-buning asosida tez almashinib turuvchi moliyaviy holatlarda bankning barqaror ish faoliyatini ta’minlash lozim.

Bank faoliyatining asosiy bo‘limlari; bankning kredit portfeli, bankning asosiy risklari yuzaga kehishini o‘rganish, bankning aktiv va passivlari investitsiya siyosatini to‘g‘ri amalga oshirishni taqozo qiladi.

Jinoiy javobgarlik, bank aktivlaridan noqonuniy foydalanganligi ko‘rsatiladigan xizmatlari uchun bank bilan aloqador shaxslar bilan biror faoliyat olib borganligi yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar bergenligi uchun javobgarlik. Bu holatlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, bank qonunlari talablariga javob bersa, bankning barqaror ishlarini ta’minlash mumkin.

Banklarning vazifalari va faoliyat funksiyalariga asoslangan holda bankning ishonchliligi ikkita bosh mezonga:

-oldindan o‘ylangan moliya kredit siyosati;

-xavfsizlik tizimini ta’sirchanligiga tayanadi.

Yuqoridaagi usullarni qo‘llash va bank tomonidan taxminiy zararlar darajasiga qarab zahira va sug‘urta fondlarini shakllantirish zaruriyati butun bank bo‘yicha risklarni baholashni talab qiladi va bu ko‘rsatkich risk koeffitsiyenti asosida topiladi.

Maksimal zaralar

$$Kr \text{ (risk koeffitsiyenti)} = \frac{\text{Maksimal zaralar}}{\text{O‘z mablag‘lariga}}$$

$$\text{KumR} = (R_1 + R_2 + R_3 + \dots + R_n) E.$$

Bu yerda:

Q -bank bo'yicha yo'l qo'yilishini mumkin bo'lgan risk darajasi.

R -shu bankning barcha operatsiyalari bo'yicha ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlar.

S- bankning o'z mablag'lari.

E-bank tashqi risklarining me'yoriy koeffitsiyenti.

Bank risklarini baholashning usullari o'zaro umumiy asos bilan birlashtirilgan va ular ehtimollik nazariyasiga asoslanadi.

Banklarning xavfsizligini ta'minlashda asosiy tamoyillar quyidagilarni ko'zda tutadi:

1. Xodimlar va mijozlar hayotiga tajovuz, himoya qilish.

2. Iqtisodiy xavfsizlik.

3. Informatsion xavfsizlik.

4. Moddiy boyliklarni himoyalash.

Qisqacha xulosalar

Demak, bank risklarini boshqarish usullari, ularning strategiyasi, kredit portfelini diversifikatsiyalash risklarni boshqarish usuli sifatida qo'llanishi, va kreditga layoqatlilikni aniqlash bank xavfsizligini ta'minlashning asosiy garovi hisoblandi. Kredit portfelini diversifikatsiyalashning 3 usuli bank faoliyatida ijobiy natija beradi. Diversifikatsiya qilingan kredit portfeli doimo yuqori risk bilan bog'liq bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Bank risklarini boshqarish tizimi deb nimaga aytiladi?

2. Tarmoq riskini aniqlashning maqsadi nimada?

3. Bank risklari strategiyasini ishlab chiqishda qanday risklar asos hisoblanadi?

4. Risklarni boshqarishning asosiy usullarini aytib bering.

5. Bank risklarini kamaytirish qanday amalga oshiriladi.

6. Bank risklarini boshqarishni takomillashtirish muammolari (1506)¹

7. Risklarni diversifikatsiyalash nima?

8. Ta'sir vaqtি bo'yicha risklar qanday risklarga aytiladi?

¹ TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnoma.

9. Bankning ichki risklarini aytib bering.
10. Bankning tashqi risklarini aytib bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: Молия, 2003.
2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. —М.: Экономика, 2004.
3. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. — М.: ИНФРА-М, 2004.
4. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. — Ростов н/Д. изд. Центр Март, 2004.
5. www.tech.avtobank.ru
6. www.dengiforum.com
7. www.finansmag.ru
8. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
9. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>

IV BOB BANK RISKLARI KLASSIFIKATSİYASI

4.1. Bank risklarni iqtisodiy klassifikatsiyalash va uning zaruriyati

Bank risklari iqtisodiy klassifikatsiyasi quyidagi elementlardan shakllangan:

- tijorat bankingning turi;
- bank risklarining ta'sir doirasi va kelib chiqishi;
- bank mijozlarining tarkibi;
- risklarni hisoblash metodi;
- bank risklari miqdori;
- bank risklarini boshqarish;
- bank risklarini boshqarish usullari.

Hozirgi zamonda uch turli bank tizimi mavjuddir – ixtisoslashgan banklar, tarmoq banklari, universal banklar. Demak risk miqdori bo'yicha ixtisoslashgan banklar risk miqdordan boshqa banklarga nisbatan ko'proq monanddir. Misol: innovatsion banklar yangi texnologiya asosida ish yuritayotgan korxonalarini kreditlashtirish bilan shug'ullanigan banklarda riskni boshqarish qo'shimcha metodlarni talab etadi. Masalan: davlat tomonidan kafolatlarni olish, garovga qo'yish va boshqalar.

Tarmoq tijorat bankingning ish faoliyatida tarmoqda o'rtacha risklar miqdorini inobatga olmoq kerak.

Universal xarakterga ega bo'lgan banklar faoliyatida hamma turdag'i risklarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rib o'tilgan variantlarda risklarning miqdoriy darajasi ko'proq tarmoq banklariga tegishlidir. Tarmoq banklari tarmoqqa bog'liqdir.

Risklar miqdoran kam universal banklarga tegishlidir. Buning sababi universal banklar bir operatsiya turidan zarar ko'rsa, boshqa turdag'i operatsiyalardan olingan foyda bilan qoplaanishi mumkin.

Bankning risklari ikkiga bo'linadi:

- Ichki risklar.
- Tashqi risklar.

Ichki risklar bank faoliyatidan kelib chiqib ikki turdan iboratdir.

Asosiy faoliyatdan kelib chiqadigan risklar, yordamchi faoliyatdan kelib chiqadigan risklar.

Asosiy faoliyatdan kelib chiqadigan risklarga quyidagilar:

- kredit berishdan kelib chiqadigan risklar;
- foiz risklari;
- valyuta risklari;
- bozor risklari- qimmatli qog'ozlar bilan risklar;
- naqd pulsiz hisob-kitob risklari.

Yordamchi faoliyatdan kelib chiqadigan risklar:

- depozitlar muddatdan oldin talab qilinsa;
- yangi turdag'i operatsiyalardan kelib chiqadigan risklar;
- bank qallobligidan kelib chiqadigan risklar.

Tashqi risklar:

- siyosiy o'zgarishlar bilan risklar;
- iqtisodiy o'zgarishlarga bogliq risklar;
- harbiy harakat (urush) boshlanishi risklari;
- natsionalizatsiya;
- xususiylashtirish;
- qarz kompensatsiyasi;
- import litsenziyasini bekor qilish;
- yer qimirlashi, toshqin, yong'in va boshqalar.

Tijorat banklarining mijozlari tarkibi bank risklarini hisoblash metodikasini aniqlab beradi. O'rta va mayda kredit oluvchi bozor iqtisodiyoti spetsifikasidan kelib chiqadigan risklarga monanddir.

Yirik va katta miqdordagi kreditlarni bir mijozga berilishi ham tijorat banklari inqirozga uchrashiga sabab bo'lgan. Shunday noxush voqelikdan himoyalanish usuli — katta miqdordagi kredit berishni chegaralash usulidir.

Bank riskini hisoblash usuliga qarab bank riski umumiy ya'ni kompleks riski va xususiyga bo'linadi.

Kompleks risklarni hisoblaganda uni baholash va prognozlashtirish asosida risklarning miqdori bankning daromadiga nisbatan aniqlanadi va iqtisodiy normativlarga asosan belgilanadi.

Xususiy risklarni baholash esa riskni baholash shkalasi asosida olib boriladi.

	Risklar shkalasi
1. Davlatning qimmatbaho qog'ozlari bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar	0
2. Banklararo qisqa muddatli depozitlar	1
3. Korrespondent schetlardagi qoldiqlar	1
4. Qolgan operatsiyalar	2

Ushbu risklar shkaliasiga asoslanib Markaziy Bank tomonidan hisoblab chiqilgan tartibga soluvchi koeffitsiyentlar qo'llaniladi va ular quyidagilardir:

I guruh	Risklar %
– kassa va unga tenglashtirilgan mablag'lar	0,5 %
– kors chetdag'i pul qoldiqlari	0,0 %
– Markaziy Bankdagi schet, rezervlar (sch. — 824)	0,0 %
II guruh	
– hukumat tomonidan chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar	10 %
– hukumat tomonidan kafolat berilgan ssudalar	15 %
– mahalliy hukumat tomonidan chiqarilgan	15 %
– davlat kapital. qo'yilmalarini moliyalashtirish	20 %
– binolar va boshqa asosiy foizlar	25 %
– boshqa banklarda beriladigan kreditlar	25 %
III guruh	
– qisqa muddatli kredit	30 %
– faktoring operatsiyalari	50 %
IV guruh	
– o'zoq muddatli kredit	50 %
– lizing operatsiyalari	60 %
V guruh	
– aksioner. jamiyat. qimmatbaho qog'oz. bank. tomonidan sotib olingen	70 %
– bank. tomonidan boshqa	80 %
VI guruh	
– muddati o'tgan kreditlar	100 %

Demak I guruhda risklarga chalinmagan aktivlar, II guruhda minimum riskka, xatarga chalingan aktivlar III-VI guguhda esa riskka yuqori yoki baland bo'lgan aktivlardan iboratdir.

Marketing izlanishlari tarixi shundan dalolat beradiki, ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan banklar riskini minimumlashtirish katta miqdorda foyda olishga olib keladi.

Risklar va kutilayotgan foyda nisbati ba'zan obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida bo'ladi. Risklarni miqdoran pasaytirishning qulay usuli sug'urtalash usuli hisoblanadi.

Hozirgi zamonda risklar miqdorini aniqlashda ehtimollar nazariyasiga va matematik statistika usullaridan keng ko'lamda foydalaniladi.

Vaqt bo'yicha risklar uch turga bo'linadi.

1. Retrospektiv risklar.
2. Joriy risklar.
3. Kelajakdag'i risklar.

Bank operatsiyasining hamma turi risklarga monanddir.

Hozirgi kunda tijorat banklarining risklari tahlilida quyidagilarga e'tibor berishimiz shart:

1) Iqtisodiyotning o'tish davridagi inqiroz holati, ishlab chiqarishning pasayishi.

2) Bank tizimining bozor iqtisodiyoti talabiga javob bermasligi.

3) Inflyatsiya darajasi va uning o'sib borish dinamikasi.

Mana bu vaziyat bank risklari va uning banklar faoliyatiga ta'sirini o'zgartirishi mumkin.

Risklar nazariyasining asta-sekin rivojlanishi risklarni tahlil qilish metodikasi va metodologiyasi ham rivojlanib borishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda risklarni tahlil etish quyidagi bosqichlarda mavjuddir:

I bosqich. Tijorat bankning turi va ko'rinishi.

II bosqich. Bank risklarining tarmoqlarga ta'siri.

III bosqich. Risklarni hisoblash metodikasi va undagi kamchiliklar tahlili, absolyut va nisbat ko'rsatkichlari tahlili.

IV bosqich. Tahlil etilayotgan konkret risklarni boshqarish mavjudligi.

V boshqich. Tahlil asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni effektivligiga baho berish.

Bank operatsiyalarining xarakteriga bog'liq bo'lgan risklar.

Bank operatsiyalarining xarakteriga qarab risklar spetsifik xarakterga ega bo'lib bank balansining tarkibida bo'lib o'tadigan operatsiyalarga va balansdan tashqarida bo'lib o'tadigan operatsiyalarga bo'linadi. Balans doirasida va balansdan tashqaridagi operatsiyalar quyidagi gruppalarga bo'linadi.

Passiv operatsiyalar risklari. Bizga ma'lumki tijorat banklari passiv operatsiyalar asosida o'zining resurslarini boshqaradi. Tijorat banking passiv operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

- bank foydasidan ustav kapitalini shakllantirish va ko'paytirishga ajratmalar:

- yuridik shaxslardan kredit olish miqdorini ko'paytirish;
- depozit operatsiyalarni bajarish.

Birinchi gruppadagi ko'rib o'tilgan passiv operatsiyalar bank kapitalini shakllantiradi.

Ikkinci gruppadagi passiv operatsiyalar bank faoliyatida mo'ljallanmagan kreditlar berishda foydalaniadi va tijorat bank likvidliligini boshqarishga ishlatalidi.

Depozit operatsiyalar yordamida bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning resurslari quyidagi usullar yordamida jalb etiladi:

1. Talab etilguncha saqlanadigan depozitlar.
2. Muddatli depozitlar.

Tijorat banklari depozitlarni jalb qilish jarayonida aktiv va passiv depozit operatsiyalar orasidagi optimal nisbatni saqlashlari lozim.

4.2. Bankning aktiv operatsiyalari bo'yicha risklar

Aktiv operatsiyalar riski.

Foiz riski yoki aktiv operatsiyalar bo'yicha riski bilan o'z faoliyatida doimiy ravishda duch keladi. Foiz riskini boshqarish bank aktivlarini boshqarish (kreditlar va investitsiyalar) va passivlar (jalb qilingan mablag'lari)ga bo'linadi.

Bank aktivlarini boshqarish bank balansini likvidliligi, mijozlarning

qimmatbaho qog'ozlari va bank kreditini olish shartlarini o'z ichiga oladi.

Foiz risklarini boshqarishni bir nechta konsepsiyalari mavjud bo'lib, ular:

1. Bank marjasining miqdori qancha yuqori bo'lsa foiz xatarining foizi shuncha past bo'ladi.

2. "Spred" konsepsiysi o'rtacha tortilgan stavkalarining o'rtasidagi farqni tahlili va bank majburiyatnomalari bo'yicha to'langan o'rtacha stavkalari o'rtasidagi farqi bo'yicha.

3. O'rtadagi "farq" kontseptsiyasi bank balansining aktiv va passivning nolikvidliligi, bank foizining qat'iy belgilangan yoki o'zgaruvchan foiz stavkasi ma'lum bir muddat bilan aniqlanadi.

Foiz risklarining miqdoriga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi:

aktiv portfelidagi o'zgarishlar, kreditlar va investitsiyalar o'rtasidagi nisbatining o'zgarishi.

passivlar strukturasidagi o'zgarishlar, bankning o'z mablag'lari bilan jalb qilingan mablag'lari o'rtasidagi nisbatining o'zgarishi. foiz stavkasining dinamikasi.

Foiz risklarini boshqarish usullari

Nº	Vaziyat	Tavsiya
1	Foiz stavkalarni o'sishi kutilsa.	jalb qilingan mablag'lar muddatini uzaytirish. Qat'iy belgilangan foiz stavkasi bilan berilgan kredit. Qisqartirish investitsiya muddat. Qasqartirish, uzoq muddatlari zayom olish. Invest. Ma'lum qismini sotish. Kredit liniyalarini qisqartirish
2.	Prots. stavkalari o'sib boradi maksimal darajaga ko'tarilishi kutilmoqda	jalb qilingan mablag'lar muddatini qasqartirish investitsiya muddat. Uzaytirish, qat'iy belgilangan foiz stavkasi kreditlarni ko'paytirish. Qimmatli qog'ozlar investitsiyasini ko'paytirish.
3.	Yuqori bo'lgan % stavkalarini pasayishi kutilmoqda.	jalb qilingan mablag'lar muddatini qasqartirish. Investitsiya portfelinini ko'paytirish va muddatli oshirish yangi kredit liniyalarini o'sishi.

4.	% stavkalari pasaymoqda va minimumga yaqinlashmoqda	Qarzga olingan mablag'lar muddatini uzaytirish. Investitsiya muddatlarini qisqartirish. Erkin o'zgaruvchi % stavkali kreditlar miqdorini ko'paytirish. Qimmat baho qog'ozlarga investitsiyalarni kamaytirish
----	---	--

Moliyaviy risklar quyidagicha aniqlanadi: jalb qilingan mablag'lar miqdorga nisbatan qancha ko'p bo'lsa, risklar miqdoran oshib boradi. Shu bilan birga jalb qilingan mablag'larini moliyalashtirish qimmat baho qog'ozlarni chop etish va joylashtirishga nisbatan qulay va arzondir.

Qabul qilingan normativlarga ko'ra qarz oluvchilarga o'zlarining mablag'lari va jalb etilgan mablag'lari orasidagi nisbati, ya'ni qarzdorlik koeffitsiyenti K3 02-03 p orasida bo'ladi.

Bunday risklar leveradj risklari bilan o'zaro bog'liqdir, bu bog'liqlikni miqdori qimmatbaho qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag' bilan qat'iy belgilangan daromad miqdoriga va qat'iy belgilanmagan daromad miqdoriga va shu bilan bankning asosiy va oborot kapitalining umumiyligi miqdoriga bog'liqdir va quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\text{ROE} = \text{ROA} \times \text{FM}$$

ROA- bankning umumiyligi mablag'larini ishlatish samarasi;

ROT-aksioner kapitalini ishlatish koeffitsiyenti;

EM-bank mablag'lari koeffitsiyenti.

Likvidlilik riski deb, bank moliyaviy aktivlarining naqd pulga ko'rsatgichiga aytildi.

Ko'zga ko'ringan va butun dunyoga mashhur ishlab chiqarish korxonalari va yirik banklarining qimmatbaho qog'ozlari yirik fond birjalarda joylashtirilgan bo'lib, bunday xavf-xatarga kamroq duch keladilar.

Lekin kichik firmalar, yangi tashkil topgan korxonalar bunday xavf-xatarga monandirlar.

Bundan tashqari sistemali risklar ham mavjud. Bunday xavf-xatarning paydo bo'lishi sababi aksiyalar bahosini o'zgarishi va uning

daromadliligi, obligatsiyalardan keladigan daromad stavkasi hamda dividentlar miqdorini o'zgarishi bozor iqtisodi sharoitida narx-navo o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu risklar o'zi bilan bir qancha risklarni birlashtiradi – bular foiz stavkasi o'zgarishi xavf-xatari, umumbozor baholarini o'zgarishi va inflyatsiya xavf-xataridir.

Sistemasiz risklar tarmoq va moliyaviy xavf risklardan iboratdir. Sistemali va sistemasiz risklarni umumiy investitsiya riski deb tushunamiz.

Kredit risklari yoki qarzning qaytib kelmaslik xavf-xatari tijorat banki va uning mijozlariga ham tegishlidir. Kreditning qaytib kelmaslik riski quyidagi hollarda bo'lishi mumkin:

- sanoatda, ya'ni sanoat ishlab chiqarishi pasayishi, korxona ishlab chiqargan mahsulotga talabning kamayishi;
- fors major vaziyatlar, harbiy harakatlar, yoki tabiat xodisalari (zilzila, yong'in, suv toshish) va boshqalar.

Kredit risklari miqdoriga quyidagi omillarning ta'siri bo'ladi:

- bank kreditining ma'lum bir tarmoqda kontsepratsiyalashuvi;
- bank faoliyatining yangi tarmoqlarga bog'liqligi;
- bank siyosatiga tez-tez o'zgartirishlar kiritilishi;
- bank mijozlarining strukturasi;
- bank faoliyatiga yangi xizmatlar tatbiq etishi;
- kafolatga olingan mulkni likvidlilik darajasi.

Kredit oluvchilarni kreditlash xavf-xatari berilayotgan kreditning turiga bog'liqdir. Muddat bo'yicha kreditlar quyidagilarga bo'linadi:

- qisqa muddatli;
- o'rta muddatli;
- uzoq muddatli.

Ta'minlanganlik darajasi bilan ta'minlangan va ta'minlanmagan kreditlarga bo'linadi. Kreditorlarning spetsifikasi bilan beshga bo'linadi: 1.) bank krediti; 2.) davlat krediti; 3.) firmaga tegishli yoki tijorat krediti; 4.) sug'urta kompaniyalar krediti; 5.) korsorsional asosda berilgan kreditlar.

Debitorlar turlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: qishloq xo'jaligi,

sanoat, kommunal xo'jaliklar tarmog'i bo'yicha.

Kreditlardan foydalanish yo'nalishi bo'yicha iste'mol kreditga, oborot fondlarni to'ldirishga, vaqtincha moliyaviy qiyinchiliklarni yo'qotish uchun, investitsiya uchun, qimmatbaho qog'ozlar uchun, import va eksport uchun kreditlarga bo'linadi.

Kreditning miqdori bo'yicha, mayda, o'rta va katta miqdordagi kreditlarga bo'linadi.

Kredit risklarini pasaytirishning asosiy usuli bu kredit oluvchining to'lov qobiliyatini aniqlashni tahlil qilishdir.

1. S1-faktoringning tahlili. Ushbu faktorni tahlil qilishdan maqsad shu korxona ishlab chiqarilgan mahsuloti bilan iste'molchilarining talabini qondirish darajasi.

Talab va taklifning bir-biriga mos kelishi.

Ishlab chiqaruvchining iste'molchilarini qiziqtirishi.

2. S2- faktoringning tahlili. Bu faktorlar tahlili ishlab chiqaruvchining moddiy manfaatdorligi qondirilishi bilan aniqlanadi. Bu tahlil quyidagi yo'nalishda amalga oshiriladi:

ishlab chiqaruvchining xarajatlari bo'yicha;

ishlab chiqaruvchining oldingi olingan kreditlari bo'yicha hisob-kitob holatiga;

ishlab chiqaruvchining reytingi bo'yicha;

xizmat ko'rsatuvchi bankning kafolat berish holatini aniqlash bilan;

Garovga qo'yilgan mulk har doim bank nazoratida bo'lishi kerak. Uning bozor bahosi bilan olingan kreditining nisbati ustidan nazorati.

Kafolatning ikki xil turi mavjuddir.

1.) qat'iy belgilangan; 2.) o'zgaruvchan.

Qa'tiy belgilangan garovga quyidagilar kiradi: ipoteka, debitor qarzları, aksiyalarning bahosi, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar.

O'zgaruvchan garovga esa tovar material boyliklari, tayyor mahsulot.

Qisqacha xulosalar

Shunday qilib, bank risklarini iqtisodiy klassifikatsiyalash va uning zaruriyati, banklar faoliyatida kutilayotgan foydani nisbati ba'zan obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida bo'ladi. Shunday ekan, risklar miqdorini pasaytirishning eng qulay usuli –sug'urtalash usuli hisoblandi va uni amalga oshirishda risklarni iqtisodiy klassifikatsiyalashning zaruryati shundan kelib chiqadi. Banklarning aktiv operatsiyalar tarkibida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallab, kredit risklariga miqdoran ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bank kredit siyosatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Bank risklarini iqtisodiy klassifikatsiyalashning elementlarini aytib bering.
2. Universal banklarning risklarini aytib bering.
3. Tarmoq banklari risklarini sanab bering.
4. Ta'sir vaqtি bo'yicha risklar deb qanday risklarga aytildi?
5. Bankning ichki risklarini aytib bering.
6. Bankning tashqi risklarini aytib bering.
7. Banklarning ichki risklarini izohlab bering.
8. Banklarning tashqi risklarini izohlab bering.
9. Xususiy risklarni baholash shkalasi maqsadini aytib bering.
10. Tijorat banki likvidligini boshqarish tahlili. (1539)²

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: Молия, 2003.
2. Патинкин Дон. Деньги, процент и цены. –М.: Экономика, 2004.
3. Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки: конспект лекций. – М.: Приор издат., 2004.
4. Мильяков Н.В. Финансы. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2004.

² TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnomasi.

5. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. ВУЗов. – Ростов н/Д. изд. Центр март, 2004.

6. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>

7. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/monev/index.htm>

V BOB

KREDIT RISKLARI VA ULARNI SUG'URTALASH

5.1. Kredit risk tushunchasi

Risk tushunchasi ham, uning amalda bo‘lishi ham yangilik emas. Uning safdoshi qat’iyatsizlik, voqeа yuz berishi yoki yuz bermasligini yuz foiz anqlik bilan oldindan ayta bilish imkoniyati yo‘qligidir. Turmushda risklar borligiga iqrор ekanmiz, ularni kamaytirishga, ularga duch kelmaslikka harakat qilamiz. Ayni vaqtda osonroq yo‘l bilan borish imkoniyatiga ham egamiz. Shunday yo‘lni tanlash uchun har bir tavakkal ishning hajmi va qudratini, xilini aniq bilishimiz zarurdir.

Kredit riski yoki qarzni qaytarmaslik xavfi kreditorning o‘z vaqtida qaytarilishiga va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chiqadi. Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan risklarning eng yirigidir. Bu holat quyidagilar ta’sirida vujudga kelishi mumkin:

- tadbirkorlikda, iqtisodiy yoki siyosiy muhitda kutilmagan o‘zgarishlar yuz berishi natijasida qarzdorning pul tushumini kerakli darajada ta’minlay olmasligi;
- kreditga qo‘ylgan garovning kelajakdagи qiymati va sifatiga bo‘lgan ishonchsizlik (narx o‘zgarishi, qo‘ylgan mulkning xaridorliligi);
- qarz oluvchining tadbirkorlik dunyosida obro‘siz bo‘lib qolishi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar banklarni risklar bilan boshqarish va ularni rejalashtirish uchun doimiy ishlar olib borishga majbur etadi.

Kredit risklari tarkibiga quyidagi risklarni kiritish mumkin:

- kreditni o‘z vaqtida qaytarmaslik bilan bog‘liq risk. Bu risk qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligidir;
- likvidlilik riski (to‘lovlarni muddatida o‘tkazmaslik), bu risk kreditni va foizlarni muddatida qaytara olmaslik natijasida bank likvidlilik mablag‘lar kamayishiga olib kelishi bilan bog‘liq.

Kreditni ta’minalash bilan bog‘liq risk, bu riskni alohida ko‘rib bo‘lmaydi, u kreditni qaytarmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan risk bilan birgalikda o‘rganiladi. Bu risk turi kredit uchun qo‘ylgan garovni sotishdan tushgan mablag‘ ajratilgan kreditni qoplash uchun yetarli

emasligi bilan bog'liqdir, natijada bank o'z talabini to'la qondira olmaydi.

Qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog'liq risklar. Bu risk korxonaning ish faoliyati bilan bog'liq (sotib olish, ishlab chiqarish va sotish), ammo boshqa risklardan farqli o'laroq bu riskka korxona rahbariga bog'liq bo'limgan faktorlar ta'sir ko'rsatadi, masalan tarmoqning rivojlanishi va kon'yunkturasi. Bu riskning hajmini investitsion dastur va ishlab chiqaradigan mahsulot turi va sifati belgilaydi.

Kapitalning tarkibiy qismi bilan bog'liq risklar. Bu risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog'liq.

Bank kredit riskining darajasi quyidagi faktorlarga bog'liq:

- bank kredit faoliyatining ma'lum bir sohada markazlashuvi darajasi;

- o'ziga xos ma'lum qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan mijozlarga kredit va boshqa bank xizmatlarining qanchalik to'g'ri kelishi;

- kam o'r ganilgan, yangi, noan'anaviy sohalarda bank faoliyatining markazlashuvi;

- kredit berish, qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish bo'yicha bank siyosatiga xususiy va jiddiy o'zgarishlar kiritish;

- yangi va yaqinda jalb qilingan mijozlarning foizi;

- qisqa vaqt ichida amaliyotga juda ko'p xizmatlarning kirgizilishi (u vaqtida bankda salbiy talablar ko'payishi mumkin);

- bozorda sotilishi qiyin bo'lgan qimmatliklarni yoki qiymati tez tushadigan narsalarni garov sifatida qabul qilib olish va boshqalar.

5.2. Kredit riskini boshqarish muammolari

Kredit risklarini baholashin besh asosiy o'lchovi mavjud:

Obro'yi. Mazkur jarayon shaxsiy muomala, ham ish bo'yicha tajribasidan iborat bo'lishi kerak (kreditor, mahsulot yetishtirib beruvchilar va mijozlarni tekshirish);

Imkoniyatlar. Qarz oluvchi o'zining barcha operatsiyalari bo'yicha (o'zining butun faoliyati davomida qarz oluvchining olgan pullari) yoki aniq loyiha bo'yicha mablag' olish qobiliyati va pul vositalarini boshqarish qobiliyati (bu avvalgi loyihalardan ma'lum bo'lishi kerak);

Kapital. Qarz oluvchining kapital bazasi va kredit so‘ralgan loyiha uchun o‘zining mablag‘larini sarflashga doir qat’iyligi. Qarz oluvchi loyiha xavfi mas’uliyatini kredit beruvchi bank bilan birga o‘z zimmasiga olishi, o‘zining hissadorlik kapitalini qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qismini taqdim etib, o‘ziga tegishli bo‘lgan majburiyatlarni zimmasiga olishi kerak;

Shart-sharoitlar. Mahalliy, hududiy va umummilliy, iqtisodning joriy ahvoli va tavsifi, shuningdek qarz oluvchi xo‘jaligining sohalari;

Garov. Kreditni garov yoki kafillik shaklida ishonchli ta’minalash boshqa tomondan kuchsizliklarni yo‘qqa chiqarib qo‘yadi. Yaxshi bir qoida bor: faqat garov va kafillik asosida hech vaqt kredit bermang.

Quyidagi faktorlarni inobatga olish zarur:

Garov sifati – asbob-uskuna eskirib qolganmi yoki buzilganmi, xaridorliligi, bozorda sotilishi mumkinligi, garov sifatida infliyatsiyadan himoya qilinganmi?

Majburiyatlar bajarilmaganda garov yengillik bilan qonuniy tarzda undirilishi mumkinmi?

Garovning bozor narxi va kredit miqdorining o‘zaro mumkin bo‘lgan nisbati va uning tez-tez qayta ko‘rib chiqilishi lozimligi?

Kredit risklarining darajasiga baho berishning muhim usullaridan biri reyting tizimidir. Banklar o‘z kreditlarini tekshirishda aktivlar monitoringida uni keng qo‘llaydilar. Bu sistemadan foydalanish xavf tug‘ilishi paytida kreditdan olinadigan daromadni aniqlashga yordam beradi.

Banklar odatda kredit sifati bo‘yicha o‘zlarining xususiy reyting sistemalarini ishlab chiqadilar. Ayrimlari oddiy sxemalardan foydalanadilar, boshqalari murakkab va bo‘linib ketgan, hamma narsani o‘z ichiga oladigan sxemalarni ishga soladilar.

Shunday bo‘lsa ham maqsad doim bir bo‘lishi kerak: kredit berishda ham, uning bahosini belgilashda ham bankning kredit bo‘limi uchun qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirish. Odatda bu narsa risk toifalarini raqamlar yoki harflar bilan atash, ularni klassifikatsiya qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Reyting doim qator faktorlarga asoslanishi va hamma vaqt quyidagilarni o‘z ichiga olishini qayd qilish muhimdir:

- kredit maqsadi;
 - kredit miqdori va yo'qotishlar ehtimolining umumiy miqdori;
 - qarz oluvchi ishlaydigan soha;
 - qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va avval olgan kreditlari.
- Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ko'rsatkichlarning batafsil tahlili o'quv qo'llanmaning keyingi qismlarida ko'rib chiqiladi.

Kredit risklarini kamaytirishda tijorat banklarining kredit siyosatida tutgan o'rni.

Tijorat banklari eng avvalo har bir kredit talabi bilan murojaat qilgan mijozlar bilan ishlash uchun o'zining kredit siyosatiga ega bo'lishi kerak. Bankning kredit siyosati avvalo bank-bank tomonidan sifatli kreditlar berishga hamda daromad olishga qaratilgan bo'lib kredit inspektorlari va bank boshliqlari uchun kredit berishda qaror qabul qilish vaqtida asosiy e'tiborni qaysi sohalarga va yo'nalishlarga qaratishlari kerakligi haqidagi hamda bankning kredit portfeli strukturasini tashkil etish haqidagi tavsiyanomadir. Bankning kredit siyosati bir vaqtning o'zida rasmiy nazorat tashkilotlari tomonidan tijorat banklarning kredit berish jarayonlarida yetarli ehtiyojkorlikka amal qilishlari bo'yicha belgilangan cheklovlanri ham o'z ichiga oladi.

Bankning kredit siyosatini tashkil etuvchi elementlarni quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

- maqsad hamda undan kelib chiqqan holda kredit portfelini tashkil qilish. Bu kredit turlari, berilish muddatlari, hajmlari va sifati kabilardan iboratdir;
- har bir kredit inspektori hamda kredit qo'mitasi tomonidan kredit berish bo'yicha qaror qabul qilishda ularga yuklatilgan vakolatlar chegaralari;
- kreditlarni boshqarish doirasida vakolatlarni va axborotlarni berish bo'yicha majburiyatlar;
- kredit talabnomalarini tekshirish, baholash hamda qaror qabul qilish amaliyoti va tartibi;
- har bir kredit talabnomasiga nisbatan qo'shimcha talab etiladigan zaruriy hujjatlar va kredit yig'ma jiddida saqlanishi zarur bo'lgan hujjatlar. Bular: moliyaviy hujjatlar, kafolat xatlari va garov

shartnomalari kabilar.

Kredit berish qarori qabul qilinishi jarayonida har bir bank xizmatchisiga huquq va javobgarliklari bo'yicha detallashtirilgan ko'rsatmalar (kim hujjatlar saqlanishiga javobgar, kim moliyaviy tahlilga javobgar va h.k.) beriladi. Kredit berish bo'yicha mijozlarni qabul qilish, baholash hamda kredit talabini amalga oshirish bo'yicha asosiy qoidalar.

Foiz stavkalari, komission to'lovlarning o'rnatilishi berilgan kreditlarni undirilish shartlari bo'yicha bankning siyosatlari hamda amaliy ko'rsatmalari:

- barcha kreditlar qo'llaniladigan sifat standartlari ko'rsatkichlari;
- beriladigan kreditlarning jami aktivlarga nisbatan maksimal hajmi;
- bankning asosiy xizmat ko'rsatayotgan regionlari;

Muammoli kreditlar bilan bog'liq holatlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari narxi.

Yuqorida aytib o'tilgan banknig kredit siyosati birinchi navbatda beriladigan kreditlardan bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar riskini kamaytirishga qaratilgandir.

Tijorat banklarida kredit siyosatining mavjud bo'lishi bir vaqtning o'zida bir necha muammolar yechimiga yordam beradi. Masalan, kredit jarayonlari bilan bog'liq risklarni nazorat qilish, foydalilikni ta'minlash va nazorat tashkilotlari talablariga to'la javob bergen holda faoliyatni amalga oshirish.

Belgilangan kredit siyosatiga asoslangan holda tijorat banklari kredit berish jarayoni bo'yicha risklarni kamaytirish va o'rganish maqsadida turli xil etaplarda tahlillar o'tkazishlari mumkin. Kredit riskining bir qismi o'z navbatida kredit berish qarori qabul qilingunga qadar tahlil o'tkaziladigan har etapda bo'lishi mumkn bo'lgan risklardan ham iboratdir. Bunday risklar, xodimlar bilan bog'liq risklar, mijozni yetarli darajada o'rganish riski kabilardir. Shu sababli kredit qarorlarini qabul qilishgacha bo'lgan davrni etaplarga bo'lgan holda tahlil qilishimiz kerak bo'ladi. Bu o'rganish davri kredit summasi hajmi hamda amalga oshirilishi kerak bo'lgan maqsadlardan kelib chiqqan holda turli xil bo'lishi mumkin. Masalan, bir haftadan

bir yilgacha bo‘lishi mumkin. Chunki oddiy iste’mol krediti bilan loyihalarni amalga oshirish uchun talab etiladigan kreditlar tahlilini birlashtirib bo‘lmaydi, bu vaqtda tahlillar murakkabligi jihatidan ham ajralib turadi. Har bir tahlil etaplari risk nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilinishi kerak bo‘ladi.

Kredit talabini bildirgan mijozni o‘rganish etaplarini quyidagicha tashkil qilish mumkin:

Mijoz bilan suhbat – mijoz bankga kredit olish talabi bilan kelgan vaqtda kredit inspektori oldida ikki muhim masala o‘z yechimini kutadi. Suhbat vaqtda kredit inspektori mijozga uning amalgaga oshirmoqchi bo‘lgan maqsadi bo‘yicha kreditlarning qaysi turidan foydalanish bo‘yicha maslahat berish orqali birinchidan bo‘lishi mumkin bo‘lgan yaxshi mijozni aniqlay olishi kerak. Ikkinchidan esa asossiz bo‘lgan kredit talabini o‘z vaqtida to‘xtatishi mumkin.

Mijoz haqida axborot yig‘ish – bu eng avvalo mijozning haqiqatda bor yoki yo‘qligi haqida axborot yig‘ish bilan boshlanadi. Buning uchun albatta mijoz korxonasiga tashrif buyurish bilan bir qatorda davlat tomonidan olib boriladigan qayd yozuvlari ham tekshirilishi lozim. Mijozning yuridik statusi aniqlanishi kerak. U o‘z statusi bo‘yicha kredit olish huquqiga egami yoki yo‘qmi.

5.3. Kredit risklarini hisoblash usullari

Moliyaviy tahlil. Kredit operatsiyalarining riskini kamaytirishning eng asosiy usullaridan biri mijoz hisobotlari asosida uning moliyaviy holatini to‘g‘ri va yetarli darajada tahlil qilishdir. Bunda biz eng avvalo mijozdan qaysi hujjatlarni talab qilish mumkinligini va ularda ko‘rsatilgan raqamlarning to‘g‘riligini tasdiqlanganligiga e’tibor berishimiz kerak. Hozirgi kunda korxonalar moliyaviy holatiga berilayotgan xulosalar o‘z navbatida bank uchun bu ishda katta yordam bermoqda. Bank mijozdan bugungi kunda talab qiladigan hisobotlar quyidagilardir:

- korxona balansi;
- moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot (foyda va zararlar).

Bank mutaxassisi eng avvalo korxona moliyaviy holati to‘g‘risida umumiy fikrga ega bo‘lishi uchun balans moddalarida ko‘rsatilgan

barcha raqamlarni nisbiy hamda mutlaq nuqtai nazardan o'zgarish dinamikasini tahlil qilishi kerak. Jahan banklari tajribasida moliyaviy tahlil uchun banklar 3-5 yillik hamda kredit talabi yil ichida qo'yilgan bo'lsa oxirgi kvartal hisobotlari asosida olib borish tavsiya etiladi.

Kredit risklarini kamaytirishda garov, kafolat va kafillikning ahamiyati.

Banklar kredit riskini kamaytirish maqsadida ko'pincha quyidagilardan foydalanadi:

- garov (ta'minotlar);
- kafolat;
- kafillik.

Ta'minotlar- bank garov sifatida qabul qilishi, bo'lishi mumkin va kerak vaqtiga realizatsiya qilish uchun huquqga ega bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy aktivlar. Bank tomonidan qabul qilingan ta'minotlar har turli bo'lishi mumkin. Ular qo'zg'almas mulkdan tortib to tarixiy eksponatlargacha bo'lishi mumkin. Lekin bu moddiy aktivlardan qaysi birini garov sifatida qabul qilish mumkin degan savolga javob berishi uchun bu ta'minotlar 3 ta prinsipial talabga javob berishi kerak. Tez sotilishi uchun o'z bozoriga ega bo'lishi kerak.

Saqlanuvchi bo'lishi kerak. Ya'ni saqlanish davrida o'zining xususiyatlarini yo'qotmasligi kerak.

Boshqa garovdan xoli bo'lishi kerak.

Garovga olinayotgan har qanday ta'minot yuqorida yozib o'tilgan 3ta talabga javob berishini aniqlash kerak bo'ladi. Agar biz ta'minotning boshqa garovdan ozod ekanligini aniqlashda qiyinchiliklar uchratmasak ham ta'minotni saqlanuvchanligi bo'yicha ba'zan eksport xulosalarini olishga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida ortiq xarajat talab qilishi mumkin. Bu talablarning ichida eng qiyin aniqlanadigani hamda eng muhimi bu ta'minotning likvidligidir. Hozirgi vaqtda garovga olinayotgan moddiy aktivlar balans qiymati bo'yicha qabul qilinmoqda, lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida balans qiymati bilan olish yetarlimi, degan savol paydo bo'ladi. Shu bilan bir qatorda garovning bozor bahosini aniqlash sharti paydo bo'lgan

holda bu narxni aniqlash bo'yicha maxsus metodikalarga ega bo'lishi kerak yoki bu ishni amalga oshirib beruvchi maxsus eksport xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi. Agar bunda eksportlar mavjud bo'lsa. Masalan garov sifatida qo'yilayotgan ko'chmas mulkni baholash o'z navbatida ko'pgina faktorlarga bog'liq: garov joylashgan joy infratuzilmasi, garovning holati, garovni ishlatish maqsadlar.

Hozirgi sharoitda garov sifatida davlat qimmatbaho qog'ozlarni olishi mumkin. Yozib o'tilganlarga xulosa qilgan holda shuni aytish mumkinki berilayotgan kreditlar eng avvalo garovga olingen mulkning haqiqiy bozorda sotilishi mumkin bo'lgan bahosiga nisbatan hisoblanishi kerak. Shu bilan bir qatorda garov bo'yicha belgilangan mamlakat qonunlari mukammal bilishi garov bilan ishslashda eng muhim omillardan biridir. Kafolat – 3chi shaxs tomonidan, agar qarzdor belgilangan muddatda qarz hamda foizlarni to'lamagan taqdirda bu qarz bo'yicha to'lovni hech qanday shartsiz to'lab berish haqidagi yozma majburiyat.

O'z – o'zidan ko'rinish turibdiki, 3chi shaxs tomonidan to'lov bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga olishlik o'z navbatida bankning mijozini molivayihamda boshqa tomonlama tekshirishni yengillashtiradi va to'lovga qobiliyatlik bo'yicha tahlil kafolat bergen 3chi shaxsga ko'chadi va bu ish kafolat bergen bank tomonidan amalga oshiriladi. Bu narsa kredit talabi bilan murojaat qilgan mijoz umuman tekshirilmaydi, degan gap emas albatta. Chunki 3chi shaxsdan talab etilgan narsa faqat kreditni qaytarilish muddati yetarli ozod mablag'larga ega bo'lishlikdir. Kafolat berish hamda uni qabul qilish jarayonlari ham o'z navbatida har turli risklarga ega. Kafolatni banklar bilan bir qatorda boshqa tijorat tashkilotlari va fondlar berishi mumkin.

Lekin har qanday kafolat berilgani uchun javobgarlik to'g'ridan to'g'ri kafolatchi banki zimmasiga tushadi. Kafolat asosida kredit berish jarayonidan kafolatning qonun ko'rsatkichlari asosida belgilangan tartibda to'ldirilishiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Kafolat xatida albatta kafolat beruvchi tashkilot rahbari va bosh muhosibi imzolari bilan bir qatorda, belgilangan majburiyat buzilgan hollarda qarzni to'lash bo'yicha majburiyat bank zimmasiga o'tishi

to‘g‘risidagi yozuv bilan bank rahbari va bosh muhosib imzosi bo‘lishi shart. Xatarli vaziyat nimalardan iborat bo‘ladi.

Kafolatchi banki bu xat bo‘yicha tegishli balansdan tashqari yozuvlarni amalga oshirganmi? Kafolat summasiga depozit olinganmi, yo‘qmi? Kafolat xatida ko‘rsatilgan summa kredit va uning foiz to‘lovlari yeterlimi, yo‘qmi? Kafolat bergen tashkilotning kafolat amal qilgan davrda soliq to‘lovlari bo‘yicha muammolari paydo bo‘lmasligining to‘g‘ri tahlili. Kredit risklarini kamaytirishda to‘g‘ri tahlil asosida qabul qilingan garov va kafolatning ahamiyati juda kata. Chunki qaytarilmagan mablag‘ning o‘rnini faqat shu narsalar to‘ldirishi mumkin.

Jahon amaliyotida banklar kreditlash operatsiyalaridan oladigan daromad bank foydasining asosiy qismini hosil qiladi. Shu bilan birga kreditlarning asosiy risklari bankning inqirozga uchrashiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun ham banklarning kreditlash faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishi va mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya’ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lanmasligi tushuniladi. Shuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish bankning rivojlanishi va taraqqiy etish maqsadiga erishishi uchun ishlatiladigan usullarining ayrimas qismidir.

Ma’lumki, bank amaliyotida foyda asosan berilgan kreditlar bo‘yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi.

Kredit riskini minimallashtirish maqsadida kreditor kredit berishdan oldin riskni aniqlashga harakat qiladi.

Riskni yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

a) turli xil makro va mikro iqtisodiy omillar, iqtisodiy qonunchilik va me’yorlarda o‘zgarishlar;

b) qarz oluvchi faoliyatida bo‘ladigan iqtisodiy va siyosiy muhitda o‘zgarishlar;

v) kreditning ta’minlanganligi uchun olingan garovni qiymati va sifati bo‘yicha ishonchning yo‘qligi;

g) yuqori bilimga ega bo‘lgan bank xodimlari yetishmasligi;

qarz oluvchi subyektning mahalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi, bankning kreditlash jarayonini:

Kreditlash jarayonining 2,3,5 bosqichlarida kredit risklari va ular darajasini aniqlash mumkin.

Kredit riskining vujudga kelishi 2 asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga bog'liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo'yicha loyiha tayyorlagan kreditlovchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi.

Bu bosqichda kredit beruvchi:

Qarz oluvchining iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning ishchanlik, ma'naviy qiyofasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari marketingi, moliyaviy boshqaruvi va boshqalari:

kreditga bo'lgan talabning qay darajada to'g'ri asoslanganligi va bu asos korxonaning chinakam iqtisodiy holatidan kelib chiqqanligi;

kreditning maqsadi bank manfaati uchun ham to'g'ri kelishi kabi savollarga javob olish.

Kreditlarni risk darajasi bo'yicha guruhlash kredit qo'yilmalarining qaysi(qancha) miqdori me'yoriy risk yoki yuqori risk zonasida ekanligini ko'rsatadi.

Kredit riskining darajasini aniqlashda risk koeffitsiyentidan foydalilanadi. Risk koeffitsiyenti tartibi.

1-jadval

Ko`rsatkichlar	Variantlar	
	Birinchi variant	Ikkinchisi variant
1. O'z mablag`lari mln so`m.	10000	60000
2. Mumkin bo'lgan yo'qotishlarning maksimal summasi.mln.so`m.	6000	24.000
3. Risk koeffitsienti	0,6	0,4
Demak 2 variant bo'yicha kapital qo'yish riski birinchi variantga nisbatan 1,5 kam 06:04q15		
1.Asaka Toshkent shahri bo'lim hisobotidan olingan		

Risk tufayli yo'qotishlar hajmiga qarab risk zonasini aniqlash mumkin.

Risksiz zonada yo'qotishlar yo'q, uning o'lchami «O» ga teng, bu holda foyda darajasi yuqorida bo'ladi.

Risk zonasasi quyidagichini ifodalanadi

Yutuqlar	Yo'qotishlar			
	Salbiy yo'qotishlar yo'q	Bo'lishi mumkin bo'lgan risklar zonasasi	Kritik risk zonasasi	Maksimal risk (yo'qotishlar hajmi yuqori)
Risksiz zona foyda	Tushum mavjud	Yo'qotish xavfi bor	Aniq yo'qotishlar mavjud	Mulkni ham yo'qotish holati

2. Kritik risk zonasasi yo'qotishlar bo'lish xavfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining biron jarayon uchun yo'naltirilganini va shu mablag'larning qaytib kelishida xavf borligini ifodalaydi.

Halokatli risk — aniq yo'qotishlar muqarrarligini va bankning foydasi, mulkiy zarar bilan yaqinlashishini ifodalaydi.

Qoplash koeffitsiyenti- (Kk) likvid mablag'lar summasining qisqa muddatli majburiyatlar summasi nisbatini ifodalaydi. Bu degan so'z qisqa muddatli majburiyatlarning har bir so'miga likvid mablag'lar har 2 so'mdan kam bo'limgan qismi to'g'ri kelishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatida bu ko'rsatkich quyidagicha belgilanadi.

Toifaga kiruvchilar- 2 va undan ortiq.

Toifaga kiruvchilar 1 2.

Toifaga kiruvchilar 0,5 1 qilib belgilangan.

Absolyut likvidlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi eng mukammal ko'rinish ega likvidlik koeffitsiyentidir. (Kk) U yuqori va o'rta likvidli mablag'lar summasi bilan qisqa muddatli qarzdorlik o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

Toifaga korxonalar uchun — 1,5 yuqori.

Toifaga korxonalar uchun- 1,0 — 1,5 ga.

Toifaga korxonalar uchun- 1,0 kam qilib belgilangan.

Qarzdorlik koeffitsiyenti — bu ko'rsatkich korxona aktiviga qo'yilgan o'z mablag'lariiga qancha jalb qilingan mablag'lar to'g'ri kelishini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichni guruhlab tahlil qilish mumkin:

Debitor qarzdorlik koef-ti Kdk = Debitor qarzdor summasi;
O'z kapitali summasi

Kreditor qarzdor summasi K(k.k) = kreditor qarzdor summasi;
O'z kapitali summasi.

Jalb qilingan kapital Kjm = sotuvdan tushum x 100
Aylanish koeffitsiyenti o'z kapitali o'rtacha summ.

Bu koeffitsiyent har ishlab chiqaruvining tashqi qarzlarga qanchalik bog'liqligini tasvirlaydi.

Qisqacha xulosalar

Kredit riskining darajasini aniqlashdagi muhim ko'rsatkichlaridan biri bu korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligini ifadalovchi koeffitsiyentdir. Muxtorlik koeffitsiyenti hissadorlarning, aksiya egalarining va kreditorlarining mafaatlarining va shu bilan birga moliyaviy mablag'lari tarkibini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich orqali korxonaning moliyaviy ahvoliga baho berish mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Kredit riskini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Kreditlarning klassifikatsiyasi nimaga kerak?
3. Muammoli kreditning kriteriyisi?
4. Kredit riskini baholash o'chovlarini aytib bering.
5. Kredit risklarini vujudga keltiradigan omillarni aytib bering.
6. Kredit siyosatini qanday tushunasiz?
7. Moliyaviy tahlil nima uchun zarur?
8. Tijorat banklarining kredit risklarini boshqarish muammolari. (1469)³
9. Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish muammolari. (1537)⁴
10. Tijorat banki likvidligini boshqarish tahlili. (1539)⁵

³ TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnoma.

⁴ TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnoma.

⁵ TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnoma.

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: Молия, 2003.
2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. -М.: Экономика, 2004.
3. Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки: конспект лекций. – М.: Приор издат., 2004.
4. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2004.
5. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. – Ростов н/Д. изд. Центр Март, 2004.
6. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
7. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/monev/index.htm>

VI BOB

BANKLARNING KREDIT SIYOSATI VA RISKLAR

6.1. Banklarning kredit portfeli va uni tashkil qilish asoslari

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligi ularning resurslarini to‘g‘ri tashkil qilish, ulardan unumli foydalanishga bog‘liq.

Banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o‘rinni egallashi uchun ularning kredit portfelini tashkil etishi muhim.

Banklarning kredit portfeli, uning holati to‘g‘risida fikr berishdan oldin dastlab kredit portfelining iqtisodiy mohiyatini tushunib olishimiz kerak.

Bank tomonidan beriladigan barcha kredit operatsiyalari ularning kredit portfelida o‘z ifodasini topadi. Har bir bank kredit portfelining sifatli bo‘lishiga erishish zarur.

Banklarning aktiv operatsiyalari deb banklarning o‘z kapitali va jalg qilingan mablag‘larini daromad olish maqsadida joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalariga aytildi.

Aktiv operatsiyalar 4 guruhsiga bo‘linadi.

1. Xo‘jalik subyektlarini kreditlash bilan bog‘liq bo‘lgan kredit operatsiyalari.
2. Banklarning investitsion operatsiyalari.
3. Mijozlarga kassa va hisob operatsiyalari.
4. Zarur infratuzilmani tashkil qilish bilan bog‘liq boshqa aktiv operatsiyalar.

Banklarning kredit portfeli deb, kreditlarning sifati va tarkibi bo‘yicha turkumlanishdir. Kredit portfelining sifat bo‘yicha tavsifi kreditlarning qaytarilishi va kredit riski qisqartirilishining bank tomonidan ta’minlanishini baholashda qo‘llaniladi.

Kreditlarning belgilangan muddatda qaytarilishi quyidagi sabablarga bog‘liq:

- alohiba olingen banklarda kredit berish jarayonining tashkil qilinish darajasi;
- ssudalar berilishi va qaytarilishi tartibiga amal qilinishi darajasi;
- ssudalar va ayniqsa muddati uzaytirilgan va muddati o‘tgan, ssudalarni hisobga olish jarayonini to‘g‘ri aks ettirilishi;

- ssudalarning to‘g‘ri tasniflanishi;

- ssudalar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga ajratilgan zahiralar miqdori.

Kredit portfeli, uning mohiyatini ochib berishda quyidagi omillarni inobatga olish kerak.

- kreditlar bo‘yicha risk darajasi;

- kreditdan berish obyektlari;

- kreditdan foydalanish muddati;

- kreditning hajmi va ta’minlanganligi;

- mijozning moliyaviy holati, mulk shakli va h.k.

Kredit portfeli faqat normal kreditlarni emas, balki muddati o‘tgan kreditlarni ham o‘z ichiga oladi.

Kredit risklari darajasi banklarning kredit portfelini ifodalovchi mezonlardan asosiyi hisoblanadi. Aynan shu ko‘rsatkich darajasiga qarab kredit portfelini baholash va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Banklarning kredit portfelini tashkil qilishning asosiy maqsadi bankning kredit siyosati sohasidagi strategiyasini ishlab chiqish, kreditlarning sifatini tahlil qilish va uni yaxshilash choralarini ishlab chiqarish kerak.

Banklarning kredit portfelini tashkil qilishda:

- kredit risklari darajasini inobatga olgan holda ularning sifatini baholash mezonini tanlash;

- ular asosida kredit sifatini baholash usullari;

- kreditlarni turkumlash;

- har bir kredit guruhi bo‘yicha risk foizi darajasini aniqlash;

- har bir kredit va bank bo‘yicha kredit riskining absolyut summasini aniqlash;

- koeffitsiyentlar bo‘yicha kredit portfelining sifatiga baho berish.

Kredit portfelini tashkil qilishda kreditning asosiy tamoyillari maqsadlilik, muddatlilik, ta’minlanganlik, to‘lovga qobiliyatliligi va qaytarib berish tamoyillariga riosa qilgan holda olib boriladi. Kreditlash tamoyillarining buzilishi kredit portfeli sifatining tushib ketishiga olib keladi. Kredit portfelining sifat tahlili o‘quv qo’llanmaning keyingi bo‘limida tahlil qilinadi.

6.2. Kredit portfelining sifat tahlili risklarni pasaytirish omili sifatida

Kredit potrfelini boshqarishda alohidia olingan ssudalarning sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish asosiy o'rinni egallaydi. Jahan amaliyotida banklar tomonidan berilgan kreditlarning sifatini baholashning 10 xildan ortiq yo'naliishlari mavjud. Kreditning sifatini baholash kreditning maqsadi, uni to'lash usuli, mijozning kreditga layoqatlilik darajasi, uning qaysi tarmoqqa taalluqli ekanligi va mulk shakli, mijozning bank bilan munosabatining xarakteri, bankning mijoz to'g'risida to'liq axborotga ega ekanligi va uning yetarliligi darajasi, ssudalarning ta'minlanganligi hajmi va boshqa mezonlar kiradi.

Rossiyada kreditlar sifatini baholash ko'rsatkichlari cheklangan bo'lib, hozirgi kunda Rossiya markaziy banki yo'riqnomasiga binoan bu sohada ikkita me'zon qo'llaniladi. Bular ssudani qaytarishni ta'minlash darajasi va oldindan berilgan ssudalarni to'lashning haqiqiy holati hisoblanadi.

Bank aktivlarining sifatini aniqlashga ularning kredit portfelini o'rnatilgan me'yorlar asosida tavsiflab chiqish orqali erishilishi mumkin. O'zbekistonda 1996-yil iyulidan boshlab Markaziy bank tasdiqlagan ko'rsatmaga asosan tijorat banklari aktivlarini tavsiflash va ssudalar bo'yicha yo'qotishlar bo'yicha rezervlarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki» to'g'risidagi va «banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlariga asosan aktivlarni tavsiflash, muammoli yoki harakatsiz kreditlar bo'yicha rezervlarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda.

Bu me'yoriy hujjatga asoslanib banklar tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha qarzlarning sifati, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari, uning moliyaviy holati, kredit riskining darajasi, kelajakda kreditni qaytib berish imkoniyati, kreditning ta'minlanganlik darajasini, kreditni to'lash muddatidan necha kun o'tganligi kabilarni inobatga olgan holda guruhlarga tasniflanadi. Kreditlarni tasniflashda asosiy maqsad qarz oluvchining to'lay olish qobiliyati hamda qarzning o'z vaqtida qaytarilishi uchun pul oqimining holatini baholashdan iborat.

Kreditlarni tasniflash qarz oluvchining faoliyatini quyidagi mezonlar orqali baholashdan boshlanishi kerak:

- mijozning to‘lovlar tarixi;
- tarmoqning kelajagi va an’anaviy rivojlanish usullari;
- korxonaning umumiy holati;
- kreditlanadigan loyihasining holati va samaradorligi;
- korxonaning moliyaviy holati;
- korxonada boshqaruv va rahbarlik sifati;
- korxonaning rivojlanish rejasi, strategiyasi va boshqalar.

Banklarning kredit portfelini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash mumkin.

Undan tashqari manbalariga va qarz oluvchining mintaqaviy o‘rnini va manzili bo‘yicha ham tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin. Tasniflash asosan milliy valyutada amalga oshiriladi. Ba’zi hollarda qayta moliyalashtirish va o‘z mablag‘lari hisobidan beriladigan kreditlar qattiq valyutada ham amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida yuqorida keltirilgan risk turlarining barchasi uchrab turadi, lekin ularning faoliyatiga ko‘prok ta’sir qiladigan risklar — kredit riski, likvidililik riski va foiz stavkasi riski hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatining asosiy qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yo‘naltirilgan bo‘lganligi uchun ular faoliyatida bu risklarning salmog‘i ham yuqori bo‘ladi.

Tasniflangan kreditlarning har qaysi guruhga kirishi darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag‘larning mavjudligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruv tomonidan 1998-yil 9-noyabrda tasdiqlangan №242-sonli «Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar bo‘yicha tijorat banklari tomonidan rezervlar tashkil qilish va undan foydalanish qoidasiga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo‘yicha «yaxshi», «standart», «substandart», «shubhali», «umidsiz» yoki «ishonchsziz» kreditlarga tasniflanadi.

Kredit portfelini berilgan ssudalarning ta’minlanganlik darajasiga qarab quyidagi turlarga bo‘lish mumkin.

Tijorat banki kredit portfelining sifat darajasi bank tomonidan beriladigan kreditning ta’minlanganligiga bog‘liq. Bu ta’minlanganlikning bo‘lishi berilgan kredit bo‘yicha riskning yuqori yoki past bo‘lishini belgilab beradi.

Agar berilgan kredit muammoli ta'minotga ega bo'lsa va ushbu ta'minotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam bo'lsa, bu holda ushbu kredit shubhali yoki ishonchsiz deb tavsiflanadi.

Shubhali yoki ishonchsiz deb tasniflangan muammoli kredit ta'minotga ega bo'lmasa, lekin ba'zi bir aniq omillar asosida yaqin kelajakda qisman qoplanish ehtimoli bo'lsa, u holda bunday ssuda yuqorida aytib o'tilgan qoplanish ehtimoli bo'lgan qiymatga teng bo'lgan to'lanmagan qarz miqdorida shubhali deb, qarzning qolgan qismi esa ishonchsiz deb tavsiflanadi.

Kredit portfelining sifat darajasi quyidagi bosqichlar bo'yicha tahlil qilinishi mumkin.

Tijorat banklarining kredit portfelining har tomonlama tahlil qilish ularning sifatini yaxshilash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning oldini olish va bankning kelgusi yildagi kredit siyosatini ishlab chiqishda juda muhim o'rinn tutadi.

1-ta'minlanganlik darajasi



2-haqiqiy to'lash holati bo'yicha



3-har bir kreditning risk darajasi bo'yicha



4-kreditlarning turi guruhi bo'yicha



5-kredit portfelining umumiy riskini aniqlash



6-kredit portfelining sifati bo'yicha rezerv fondlar tashkil



↓

7-kredit portfelining holati bo'yicha bankning kelgusi kredit siyosatini ishlab chiqish

21-chizma. Tijorat banklarining kredit portfelini tahlil qilish bosqichlari

Bozor iqtisodiyoti keng rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit portfelini tashkil qilish va undan foydalanish jarayoniga katta e'tibor berilmoqda. Chunki kredit potrfelini to'g'ri tashkil qilish bankning samarali faoliyatini amalga oshirishning, uning kredit investitsiya siyosatini olib borishining asosi hisoblanadi. Mayjud resurslarni sifatli va daromad keltiradigan qilib joylashtirish banklarning moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklarining kredit portfeli, ularning sifat darajasi, risk darajasi bo'yicha, tarmoqlar bo'yicha, kreditning manbalari, ta'minlanganligi, muddatlari va boshqalar bo'yicha tahlil qilish mumkin. Baknlarning kredit operatsiyalari katta risk bilan bog'liq bo'lganligi tufayli biz Respublika banklarining kredit portfelini tahlil qilib, undagi ahvol, kredit operatsiyalar bilan bog'liq risklarga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlamoqchimiz.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit portfelining sifat darajasi bo'yicha tasnifi

Ko'rsatkichlar	1/I	1/IV	1/VII	1/X
Tahlil qilingan tijorat banklari soni	29	30	33	33
Tijorat banklarining kredit qo'yimalari				
Jami	100	100	100	100
Shu jumladan:				
Yaxshi kreditlar	9,8	94,8	95,1	95,4
Standart kreditlar	2,8	3,4	3,3	3,2
Substandart kredit	1,8	1,4	1,2	1,1
Shubhali kredit	0,4	0,2	0,2	0,2
Ishonchsiz kredit	0,2	0,2	0,2	0,1

Jadvaldan ko'rinish turibdiki tahlil, qilinayotgan davrda

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining soni 2001-yildan buyon 4ta bankga ko'paygan. Ular tomonidan respublika xalq ho'jaligiga berilgan kreditlarning asosiy qismi sifat darajasi bo'yicha yaxshi kreditlar guruhiga kiradi va 2001-yilda ularning salmog'i o'rtacha 95% tashkil qiladi. 2 o'rinda turuvchi kreditlar- standart kreditlar bo'lib ular salmog'i 1/X 2004-yilda 3,2 % tashkil qiladi va bu kreditlar hajmi 1/I 2001-yildagi 2,8% nisbatan 0,4 punktga oshgan. Shunisi xususiyatliki Respublika banklari tomonidan berilgan kreditlar tarkibida shubhali ishonchsiz kreditlar ham mavjud bo'lib oxirgi davrda ularning salmog'i kamayib bormoqda. Respublika bo'yicha substandart kreditlar hajmi 1/X 2004 yilda 1/I 2001-yilga nisbatan 0,7 punktga, shubhali kreditlar 0,2, ishonchsiz kreditlar esa 0,1 punktga kamaygan.

Tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar – muammoli kreditlar hisoblanadi⁶. Muammoli kreditlar odatda qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun yetarli pul mablaglari bo'lmagan hollarda yuzaga keladi.

Ba'zi hollarda ular mijozning schyotidagi mablag'larning bo'la turib kreditni to'lashni xohlamaganda ham yuzaga kelishi mumkin. Pul mablag'larning yetishmovchiligining ichki va tashqi belgilari bo'lishi mumkin. Shuning uchun bank doimo mijozining faoliyatidan bohabar bo'lishni, o'zi uchun zarur axborotlarni yig'ib tahlil qilish kerak.

5-jadval

Kreditlarni sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zahiralar meyori⁶

Kreditlarning sifati bo'yicha sinflari	Ehtimolli yo'qotishlar bo'yicha zahiralar uchun ajratmalar normasi
Yaxshi	-
Standart	10%
Substandart	25%
Shubhali	50%
ishonchsiz	100%

⁶ Jadval tijorat banklari hisobot materiallari asosida hisoblangan.

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar sifatining pastligi, ularni to'lash bo'yicha muammolarni ko'pligi bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qisqacha xulosalar

Banklar muammoli kreditlar bo'yicha ehtimolli yo'qotishlarga zahiralar ajratishlari, zahira fondlari yetariligi eng kamida 1 oyda bir marta ko'rib chiqilishi kerak. Substandart va shubhali kreditlar bo'yicha barcha ehtimolli yo'qotishlar ssudaning amal qilish muddati davomida zahira fondiga yaxshi va standart aktivlar uchun ehtimolli yo'qotishlar esa kelgusi 12 oy davomida zahira fondiga kiritilishi kerak bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Kreditlarning belgilangan muddatda qaytarilishining sabablarini izohlang?
2. Kredit portfeli mohiyatini ochishdagi omillarni ayting?
3. Kredit portfelini tashkil qilishda kreditning asosiy tamoyillarini aytib bering.
4. Kredit portfelini sifat tahlili nima uchun zarur?
5. Tijorat banklari kredit portfelining tahlil qilish usullari?
6. Kredit riski va undan himoyalanish manbalari?
7. Standart aktivlar nima?
8. Bank risklarini kompleks tahlil qilish yo'llari?
9. Aktivlarning riskka tortilishi tasnifi?
10. Passiv operatsiyalar riski tahlili?

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: Молия, 2003.
2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. —М.: Экономика, 2004. Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки: конспект лекций. — М.: Приор издат., 2004.
3. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. — М.: ИНФРА-М, 2004.
4. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
5. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>

VII BOB

BANK RISKLARINI KOMPLEKS T AHLIL QILISH

7.1. Banklarning aktiv operatsiyalari miqyosidagi risklar va ularning darajasi

Tijorat banklar faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalarning risklilik darajasini aniqlash, bu jarayonni boshqarib borish muhim o'rinn tutadi.

Tijorat banklari aktivlarining o'ziga xos belgilari mavjuddir:

1. Likvidlik darajasiga qarab.
2. Risk darajasiga qarab.
3. Daromad darajasiga qarab 3 guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh-yuqori likvidli aktivlar:

- a) kassadagi va yo'ltagi naqd pullar, qimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqalar.
- b) korschytodagi mablag' qoldiqlari;
- v) «Nostro» va «Vostro» schyotlaridagi qoldiqlar;
- g) majburiy rezervlar schyoti bo'yicha mablag'lar;
- d) qimmatli qog'ozlar schyotdagи mablag'lar qoldig'i, xazina veksellari va boshqalar.

Ikkinchi guruh likvidli aktivlar:

- a) berilgan kreditlar;
- b) Investitsiyalar;
- v) boshqa qimmatli qog'ozlar;

Uchinchi guruh nolikvid aktivlar;

- a) muddati o'tgan ssudalar;

- b) muddati o'tgan foizlar;

- v) sud aralashuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan ssudalar;

- g) tugallanmagan ishlab chiqarish;

- d) asosiy vositalar.

Risklilik darajasiga qarab aktivlar to'rt guruhga bo'linadi.

1 guruh-riskdan holi bo'lgan aktivlar. Bularga nakd pullar, Nostro, Vostro hisob varaq qoldiqlar MB qimmatli qog'ozlar va obligatsiyalar.

2-guruh (kichik) minimal riskli aktivlar Nostr, Vostro korschytodagi olinishi lozim bo'lgan mablag'lar , yevro

obligatsiyalar, qiska muddatli birinchi sinf ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar . Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 20 % ga teng.

3-guruh. Yuqori riskli aktivlar, boshqa banklarga berilgan kreditlar, boshqalar uchun bank bergen garov va kafolatlar bu aktivlar bo'yicha risk 50%ga teng.

4-guruh. Eng yuqori darajadagi riskli aktivlar:

qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olish schyoti, sotib olingan veksellar, trost hujjatlar va akkreditivlar bo'yicha mijozlarning majburiyatları, sud jarayonida bo'lgan kreditlar, akkreditivlar, forvard, bank va banklararo sotish va sotib olish.

Bu aktivlar bo'yicha risk darajasi 100%.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

- daromad keltiruvchi aktivlarga;
- barcha berilgan kreditlar;
- investitsiyalar o'ziniki;
- xazina veksellari;
- davlat obligatsiyalari;
- qimmatli qog'ozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlar:

- pul aktivlari guruhi;
- asosiy vositalar;
- kapital xarajatlar;
- barcha moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlarni shartli ravishda deb belgilaymiz va ularning darajasi umumiy aktivlarning hajmidan 3% oshmasligi lozim.

Agar bunday aktivlar miqdorda 2 va undan ortiq o'rnatilgan normadan ko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif, deb baholanadi.

Tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilish va aktivlar bahosini belgilashning asosi bo'lib uning balansi hisoblanadi. Balans asosida tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilishda bir marta bo'ladigan xarajatlar yoki daromadlarni alohida hisobga olgan ma'quldir. Chunki

bu bir martalik bo‘ladigan tushum yoki xarajat bank faoliyatining olib borilishi uning likvidliligi ko‘rsatmasligi mumkin.

Bular neytral xarajatlar va neytral daromadlar deyladi.

- neytral xarajatlar;
- bir martalik to‘lovlar (yongin, pul o‘g‘irlanish);
- bank biznesiga taalluqli bo‘limgan to‘lovlar;
- o‘tgan davrdagi foizlar bo‘yicha xarajatlar.

Neytral daromadlar:

- bir martalik tushumlar;
- o‘tgan davrdagi foizlar bo‘yicha tushumlar;
- bank biznesiga taalluqli bo‘limgan tushumlar.

Banklarning asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalari kredit operatsiyalari hisoblanadi. Shu sababli bank kredit operatsiyalari bo‘yicha oladigan daromadi va u bo‘yicha risk darajasini aniqlashi lozim.

Banklar kredit berishda o‘z kapitaliga to‘g‘ri kelishi mumkin bo‘lgan foiz stavkasini hisoblashi kerak. Chunki bank kapitaliga to‘g‘ri keluvchi foiz yoki foyda normasi bank likvidliligini ta‘minlashning asosi hisoblanadi.

Bank o‘zi beradigan kreditning samaradorlik darajasini aniqlash uchun bankda amalga oshiriladigan har bir operatsiya bilan bog‘liq xarajatlarni aniqlashi lozim. Bu esa har bir operatsiya uchun sarflanadigan vaqtini aniqlashni talab qiladi. Operatsiyani amalga oshirish uchun ketadigan vaqt aniq bo‘lishi uchun bu jarayon 2-3 hafta, ba‘zan 1 oy davomida yozib borilishi: har bir operatsiya vaqtini, minutlari xronometrik yo‘l bilan o‘lchanishi kerak.

1. Bir bo‘limning xarajati 320 ming so‘m.
2. Bankning shu bo‘limi xarajati 420 ming so‘m.
3. Bo‘limning ma’lum vaqtida 182 operatsiya amalga oshirgan.
4. Bir operatsiyaning qiymati $2,32 \text{ so‘mga teng bo‘ladi: } (422:182)=2,32 \text{ so‘m}$.

Faraz qilaylik tijorat banki to‘rt xil faoliyat turini amalga oshiradigan bo‘lsin.

To‘rt xil faoliyat turini amalga oshirish sharoitida bir operatsiya qiymatini hisoblash tartibi.

Bank bergen krediti bo'yicha qancha samaradorlikka erishganlikni aniqlash uchun barcha aktiv, passiv operatsiyalar, xizmatlar va boshqa vositachilik operatsiyalari bo'yicha oladigan daromadlar hisoblab chiqiladi. Shundan so'ng bank faoliyatining rentabellik darajasi aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichlar quyidagi sxematik hisob-kitoblarga asosan aniqlanadi.

Aksioner tijorat banki aktiv hajmi

Kredit turlari	Aktiv hajmi mln.so'm	Foiz evaziga tushgan tushum	Mijoz stavkasi %	Bozor stavkasi %	Foiz oshishidan tushgan tushum %	Operatsiya xarajatlari so'm	Risk bilan bog'liq haraj.	Qoplash summasi
Qisqa muddat kreditlar	70.000	4900	7	5.5	1050	500	380	170
O'zok muddat kredit	90.000	6750	7.5	6.5	900	400	210	290
jami	160.000	11650	-	-	1950	900	590	460

1) tijorat banklari hisobotidan olingan Shunday jadvalda bankning passivlari hajmini ko'ramiz.

Aksioner tijorat banki passivlari hajmi mln.so'm

	Passiv hajmi mln. so'm	Foiz to'- lash bilan bog'- liq haraj	Bozor stavkasi %	Bozor foiz stavkasi	Minirezerv ajratma %	Foiz oshishi tushum	Xara-jatlar	Qoplash sum-masi
Depozit-lar	30.000	100	0,33	4,5	0,45	1116	280	836
Bank kapitali	50.000	2000	4,00	5.0	0,35	325	200	125
Jamg'a-mlar	60.000	1800	3,00	5,5	0,275	1335	775	560
Jami	140.000	3900	-	-	-	590	1255	1521

Aksioner tijorat bankining xizmat ko'rsatish sohasi hajmi

	Tushum	Ba'zi operatsiyalar bo'yicha harajatlar	Qoplash so'mmasi
Qimmatli qog'ozlar aylanishi	800	1500	700
To'lov oboroti	1200	500	700
Xalqaro valyuta operats.	700	400	300
Jami	2700	2400	300

Endi bankning barcha faoliyat turlari bo'yicha natijalarni jamlaymiz.

1. Aktiv operats. bo'yicha qoplash summasi 460 mln so'm.
2. Passiv operatsiya bo'yicha foyda 1521 mln. so'm
3. Vositachilik operatsiyalar bo'yicha 300 so'm
4. Akts.tij.bank. foydaning umum. So'm. 2281 mln.

Bu ko'rsatkich ijobiy faoliyat natijasini ko'rsatadi, hali bank faoliyatining samaradorlik darajasini aniq ifoda qilmaydi.

Yuqorida keltirilgan tijorat banki bo'yicha qiska muddatli kreditlarning barchasi 70.000mln so'm, uzoq muddatli kreditlardan aytaylik 50 % 90000q45000 to'lanishi kerak.

To'lanishi kerak bo'lgan kreditning umumiy hajmi 115000 mln so'mni tashkil qiladi.

O'z kapitalining minimal miqdoriga ega bo'lish 8%, ushbu me'yorga asosan tG'b ustav kapitali mln. 9200 so'mga teng bo'ladi.

Bankni rentabelligini aniqlaymiz

(2281 (100%G'115000(8%)q24.79 % tijorat bankning kapitaliga to'g'ri keladigan foyda 24.79 % teng.

Qisqacha xulosalar

Banklarning aktiv operatsiyalari bilan bog'liq risklarni tahlil qilishda asosiy o'rinni kredit operatsiyalari egallaydi va ular bilan bog'liq bo'lgan kredit risklarini tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bank aktivlari bo'yicha risklilik darajasini aniqlash bank faoliyatini samarali tashkil qilishning asosi bo'lib

hisoblanadi. Aktivlarni qay tarzda joylashtirishning asoslarini ilmiy ishimizning keyingi bo'limida ko'rib chiqamiz.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Likvidlilik darajasiga qarab aktivlar necha guruhga bo'linadi?
2. Daromadligiga qarab aktivlar necha guruhga bo'linadi?
3. Risklilik darajasiga qarab aktivlar necha guruhga bo'linadi
4. Daromad keltirmaydigan aktivlarni sanab bering.
5. Daromad keltiradigan aktivlarni sanab bering.
6. Tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish tahlili (1537)⁷.
7. Risklilik darajasiga qarab aktivlar necha guruhga bo'linadi?
8. 50 %lik risk darajasiga qarab aktivlar necha guruhga bo'linadi?
9. 20% lilik risk darajasiga qarab aktivlar necha guruhga bo'linadi?
10. Tijorat banklari kredit portfelining risk darajasini aniqlang?

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: "Молия", 2003.
2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. — М.: Экономика, 2004.
3. Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки: конспект лекций. — М.: Приор издат., 2004.
4. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. — М.: ИНФРА-М, 2004.
5. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. — Ростов н/Д. изд. Центр Март, 2004.
6. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
7. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/monev/index.htm>

⁷ TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnoma.

VIII BOB

KREDIT RISKLARI, ULARNI BOSHQARISH VA BAHOLASH

8. 1. Kredit risklarini boshqarish muammolari

Bank faoliyatida vujudga keladigan kredit risklarining turlari va shakllari kredit risklarini boshqarishda bankning o‘z siyosatini ishlab chiqishga majbur qiladi. Kredit jarayonida bank tomonidan qarz oluvchi faoliyatining nafaqat ijobjiy, balki salbiy tomonlarini ham e’tiborga olish zarur. Chunki qarz oluvchi yaxshi rivojlanib, qarzini o‘z vaqtida qaytarsa, bank o‘zining mablag’larini va foizlarini oladi xolos, agar qarz oluvchining ishi yurishmay qolsa, bank ham o‘z mablag’laridan ajralib qoladi.

Banklar mijozning inqirozga uchrashini o‘z vaqtida sezishi va baho berishi zarur, chunki bu banklarga o‘z vaqtida kredit hajmini qisqartirish va kerakli choralarни qabul qilishga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida bank va moliya institutlari xo‘jalik subyektlarining yuqori darajada kredit risklariga moyil ekanligini nazarda tutib, bu risklardan himoya uslublarini ishlab chiqishi, kredit risklarini boshqarish tizimini rejali asosda takomillashtirishi lozim.

Kredit risklarini tahlil qilish va baholash. Bank axborot manbalaridan kredit risklarini va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganib chiqishi hamda ularni nazorat qilinadigan va boshqariladigan risklarga ajratishi kerak.

Risk miqdorini aniqlash. Riskning miqdoriy ko‘rsatkichini aniqlash ehtimoliy yo‘qotishlar miqdorini aniqlashga va aktiv boshqarish instrumentlari vositasida risk darajasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Kredit risklarini boshqarish. Boshqariladigan risklar va ularning miqdori aniqlanganidan keyin, kredit risklarini boshqarish metodologiyasi va strategiyasi ishlab chiqilishi zarur. Kredit risklarini boshqarish kredit risklari vujudga kelishining oldini olishga qaratilgani kabi, kredit risklarining bank liqidlitligi va rentabelliligiga salbiy ta’siriga yo‘l qo‘ymasligiga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

Kredit risklarini samarali boshqarish ustidan nazorat. Risklarni

boshqarish bo'yicha tadbirlar natijalari nazorat ostida bo'lishi lozim. Ushbu nazorat vujudga kelgan risk miqdorining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlanishini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Tahlil qilish uchun kredit faoliyatining natijalarini belgilovchi, risk tarkibi, risklarning vujudga kelishi bilan bog'liq zararlar kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Kredit risklarini boshqarish instrumentlari banklar tomonidan risklarning kelib chiqishi va ular bilan bog'liq salbiy hollarning oldini olish maqsadida alohida kredit mikesida ishlatilishi bilan birga bank kredit portfeli mikesida ham ishlatiladi.

Risklar nazorati esa, ya'ni ularni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish bankka kredit riski hajmi va xarakteri to'g'risida aniq axborotga ega bo'lishiga va shu asosda vujudga kelgan risk miqdorining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlanishini aniqlashga yordam beradi: bu esa o'z navbatida bank tomonidan tegishli choralar ko'rshiga yordam beradi.

Alohida kredit miqyosida kredit risklarini boshqarish instrumentlari. Kredit riski mijozning kreditga layoqatligiga bog'liq bo'lib, risklarning kelib chiqish sabablarini boshqarish instrumentlari yordamida o'rganish, bankka kredit riskining miqdorini aniqlashga imkon beradi.

Mijozning kreditga layoqatliligi uning huquqiy mavqeiga, ishbilarmonligiga va uning moliyaviy ahvoliga bog'liq. Mijoz bankka taqdim etgan huquqiy va moliyaviy hujjatlari yordamida tahlil o'tkazilib, moliyaviy natijalarning kelajakda iqtisodiy o'zgarishlar natijasida qanday o'zgarishi ham e'tiborga olinishi zarur. Bu o'z navbatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan kredit risklarini vaqt davomida miqdorini va xususiyatlarini o'rganishga va kredit ishlab turgan paytda kuzatishlar natijasida ma'lum choralar ko'rshga imkon yaratadi.

Bank kredit portfelida vujudga keladigan risklarni boshqarish instrumentlari

Kredit talabnomalarini va mijoz haqidagi axborotni sifatli o'rganib chiqish, kredit jarayonini tashkil etish uchun samarali axborot tizimini va nazoratni joriy etish kreditlashtirish jarayonidagi subyektiv kamchiliklarning oldini olishga imkon yaratadi. Bank faoliyatining asosiy maqsadi-kreditlarning hajmini emas, balki operatsiyalarning daromadlilagini oshirishdir. Bank infrastrukturasi va texnologiyalarning

rivojlanishi bank kredit boshqarmalariga yuqorida qayd etib o'tilgan axborotlarni aniq va tez yig'ishga imkon yaratib bermoqda. Har bir mijoz, uning bankka taqdim etgan talabnomasi, tashqi axborotlar bank kredit portfelini sifatli boshqarishga imkon beradi, shu bilan birga har bir bank tarkibida kreditlarni nazorat qiluvchi ichki nazorat bo'limi bo'lishi zarur. Ichki nazorat bo'limining asosiy maqsadi tashkiliy tizimni, kreditlashtirish strukturasini va alohida tanlash asosida kreditlarni tekshirish va nazorat qilish.

Tashkiliy tizim-bunda kredit ishiga baho berish: kredit talabnomasini qisqa muddat ichida ko'rib chiqish, tahlil qilish, bu ishlarni bajarishda tasdiqlangan me'yoriy hujjalarga amal qilish kabi ishlarning qanday olib borilishi va sifati.

Kreditlashtirish strukturasini nazorat qilish-bunda bank jami kredit porfelini kredit turlari, miqdorlari, foiz miqdorlari, muddat, ta'minlanganligi va boshqa xususiyatlariga qarab tahlil qilish. Tahlil natijasi asosida kredit portfelida vujudga keladigan risk darajasi to'g'risida xulosa chiqarish.

8. 2. Kredit risklariga ta'sir etuvchi omillar va ularni boshqarish

Bank bergen kreditlarini nazorat qilib turishi zarur va bu zarurat berilgan kreditning o'z vaqtida qaytarilishi, kelishilgan shartlarning to'g'ri bajarilishini va bu kreditlarning oxir-oqibatda muammoli kreditlar qatoriga qo'shilib ketmasligini ta'minlashga qaratilgandir. Shu bilan bir qatorda paydo bo'ladigan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rishdir. Bundan kelib chiqadigan maqsad shundan iboratki, berilgan kreditlar bo'yicha muammolar paydo bulayotgani oldindan aniqlansa bank mijoz bilan maslahatlashgan holda yuzaga kelayotgan muammoning oldini olishi mumkin. Banklar eng avvalo bergen kreditlarni foizlari bilan hech qanday muammosiz va oshiqcha sarf-xarajatsiz ishlatib foyda olishni xohlaydilar. Berilgan kreditlar ustidan keyingi nazorat bank rahbariyati uchun nafaqat qarzdor ustidan nazorat qilishdir, balki kredit bo'limi mutahassislarining bankning kredit siyosatiga qaydarajada rioya qilayotganining nazorati hamdir.

Olib boriladigan tekshirishlar va nazorat jarayonida mijozga berilishi

mumkin bo‘lgan yordam hamdir. Bunday yordam maslahat ko‘rinishida, kredit muddatida belgilashda xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, uni o‘zgartirishi to‘lovlar muddatiga o‘zgartirishlar kiritish kabilar bo‘lishi mumkin. Bank tomonidan berilgan kreditlar qaytib kelishini ta’minalash maqsadida belgilangan nazorat ishlari olib borilishiga qaramay, baribir ba‘zi kreditlar o‘z vaqtida qaytarilmay qolmoqda va natijada muammoli kreditlar safiga qo‘silib bormoqda. Muammoli kreditlarning paydo bo‘lishi mijozning moliyaviy holatida qandaydir salbiy o‘zgarishlar paydo bo‘lganligini bildiradi. Bank doimo bunday holatlarga tayyor turishi kerak bo‘ladi. Berilgan kreditlar har turli hamda o‘ziga xos muammolarga ega bo‘lishiga qaramay, ularning hammasiga xos bo‘lgan muammolar ham mavjud. Bunday holatlarda bank nima ishlarni amalga oshirishi kerak bo‘ladi.

Bankda alohida muammoli kreditlar bilan ishslash bo‘limi bo‘lishi kerak va bu bo‘lim faoliyati kredit berish bo‘lim faoliyati bilan aralashmasligi lozim.

Qarzdor tomonidan bankga belgilangan muddatlarda topshirilishi kerak bo‘lgan hujjatlarning o‘z vaqtida topshirilmasligi hamda qarzdor va bank o‘rtasidagi aloqalarda uzilishlar paydo bo‘lishidir.

Firma, korxonalar uchun berilgan kreditlar amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda, tovar moddiy boyliklar zahiralarini baholashda, soliq hisoblashda, foydani hisoblashda bo‘ladigan har qanday o‘zgarishlar.

Firma, korxonalar uchun berilgan kreditlarda qarzdorning kredit reytingining o‘zgarishi, aksiyadorlarga divident to‘lashda kiyinchiliklarning paydo bo‘lishi yoki to‘lashdan voz kechilishi.

Qarzdor aksiyalari bahosining qoniqarsiz ravishda o‘zgarishi.

Qarzdor kapitali strukturasida salbiy o‘zgarishlar (aksioner kapitalning qarz majburiyatlarga bo‘lgan nisbati ko‘rsatkichi hamda likvidligida, ishchanlik aktivligida (sotish hajmining zahiralarga nisbati).

Kredit talabnomasida ko‘rsatilgan sotish hajmi hamda pul oqimi grafiklaridan og‘ishlar.

Muammoli kreditlarning bank kredit portfelidagi salmog‘ini baholash uchun mavjud kreditlar risk jihatidan klassifikatsiya qilinadi

hamda ularga qarshi rezerv mablag‘ ajratish kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda kredit portfeli sifat jihatidan quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

Yaxshi. Yaxshi kreditlar o‘z vaqtida qaytarilishiga shubha bo‘lmagan kreditlardir, qarzdor moliyaviy holati turg‘un, yuqori rentabellikka ega, xususiy kapital darajasi yuqori, debetorlik qarzlarining aylanish muddati qisqa. Kredit ta’minoti tez pulga aylanishi jihatidan ishonchli. Ta’minotlar berilgan kreditni foizi bilan qo’shib olganda ham yetarli bo‘lgan holda sotish davrida qonuniy jihatdan muammolar tug‘dirmaydi. Ta’minotlar bo‘yicha kerakli hujjatlar qonun asosida to‘liq qoldirilgan.

Qoniqarli. Bu kreditlar to‘liq ta’minotga ega bo‘lgan holda vaqtincha qaytarilmagan kreditlar hisobida 30 kundan 60 kungacha bo‘lgan kreditlar hamda yetarli darajada ta’minlanmagan va to‘lov muddatidan 30 kungacha o’tgan kreditlar. Bunda mijoz moliyaviy holati turg‘un, lekin qoniqarsiz holatlar mayjud. Bu kreditlar qatoriga yomon hujjatlashtirilgan kreditlar ham kiradi.

Substandart. Bu sifatsiz kreditlar bo‘lib ularni qaytarishda ma’lum darajada muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Bu kreditlarni qaytarishda birinchi darajali manbalar yetarli emas. Bank boshqa manbalarni izlashi kerak bo‘ladi. Masalan, garovni sotish, boshqa kapital oqimi mijozning joriy moliyaviy holatining to‘lovga qobiliyatligi bilan himoyalananmagan. Garov hujjatlarining yetarli darajada emasligi hamda uni nazorat qilib turishda yetarli ma’lumotlarning yo‘qligi. Yaxshi ta’minotga ega bo‘lgan holda to‘lov muddatidan 60 kundan 180 kungacha o’tkazilgan, yetarli darajada taminlanmagan holda 30 kundan 60 kungacha o’tkazilgan kreditlar hamda taminlanmagan holda 30 kungacha bo‘lgan kreditlar.

Shubhali. Bu kredit yuqorida yozilgan jami kamchiliklarga ega bo‘lgan holda qo’shimcha ravishda yomon ta’minlangan kreditlar. Zarar ko‘rish ehtimoli yuqori, lekin kelajakda ba’zi omillar yordamida uni kamaytirish mumkin. Yetarli ta’minotga ega bo‘lgan holda qarz asosiy summasining to‘lov muddati 180 kundan o’tgan, yetarli ta’minotga ega bo‘lgan holda 60 kundan 180 kungacha hamda ta’minotsiz holda 30 kundan 60 kungacha bo‘lgan kreditlar.

Yo‘qotilgan. Qaytarilishiga ishonch bo‘lmagan kreditlar. Ularning qiymati minimal darajada hisoblangan holda ularni bank balansida

ushlab turish maqsadga muvofiq emas deb sanaladi.

Yetarli darajada ta'minlanmagan holda asosiy summa bo'yicha to'lovlari 180 kun va undan ortiq davr ichida amalga oshirilmagan bo'lsa hamda ta'minlanmagan holda 60180 kunlik davr ichida to'lanmagan kreditlar.

Agar ta'minot berilgan kredit hajmining 60% tashkil qilsa, u holda bu yetarli darajada ta'minlangan hisoblanadi.

Ta'minot olinmagan holda berilgan kreditlar, ta'minlanmagan hisoblanadi. (blank). Risk nuqtai nazardan klassifikatsiya qilingan kreditlarga quyidagi tartibda rezervlar ajratiladi:

4-jadval

Rezervlar ajratish foizlari

To'lov muddatidan o'tgan davr bo'yicha	Riskning klasifik nomi	Ajratiladigan rezerv foizi
Bir kundan 30 kungacha	Yaxshi	Yo'q
30 kundan 60 kungacha	Qoniqarli	10 %
60 kundan 90 kungacha	Substandart	25 %
90 kundan 180 kungacha	Ishonchsziz	50 %
180 kundan oshgan	Yo'qotilgan	100 %

Bunday usuldan foydalinish, eng avvalo, berilgan kreditlarning qaytmasligi natijasida bankning qiyin ahvolga qolishi oldini oladi. Bunda olingan daromadni, eng avvalo, yo'qotilgan kreditlar o'rmini to'ldirish orqali bank kreditlash yoki aktiv operatsiyalar olib borish qobiliyatini qayta tiklash imkoniga ega bo'ladi.

Biz misol tariqasida 2ta bankning bergen kreditlari bo'yicha riskka qanday tortilganligi va ularga qancha miqdorda rezerv ajratilganini quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz.

Bu jadvaldan «A» bankining jami bergen kreditlari 121 mln. so'mni tashkil qilib, ulardan 43 mln. so'mi yaxshi kreditlar, 21 mln. so'mi qoniqarli kreditlar, 15 mln. so'mi substandart kreditlar, 13 mln. so'mi shubhali kreditlar va 29 mln. so'mi umidsiz kreditlarni tashkil qiladi. Berilgan jami 121 mln. so'mlik kreditni 42 mln. so'mi riskga tortilib, bu jami berilgan kreditga bo'lgan nisbatni 35 % tashkil qiladi. Bu bank uchun 42 mln. so'mlik rezerv hosil qilishni talab qiladi. Agar hosil qilingan

rezervlar qarzlarini berkitishga yetarli bo'lsa, u holda ssuda qarzlari va hosil qilingan rezerv o'rtasidagi farq bankning zararlariga olib borilishi kerak. Bu quyidagicha provodka bilan amalga oshiriladi:

Debet-foydalari va zararlar schyoti.

Kredit-muddati o'tgan ssuda qarzlar schyoti.

5-jadval

Bank tomonidan ajratilgan kreditlarning risklilik darajasi va ajratilgan rezervlar

	Jami qarzlar	Yaxshi	Qoniqarli	Risk 10%	Substandart	Risk 25%	Shubxali	Risk 50%	Umidziz	Risk 100%	Jam Risikka	Jami qarzlar Risikka ega % hisobidan
«A» Bank	121	43	21	2	15	4	13	7	29	29	-42	35%
«V» bank	405	340	10	1	25	6	30	15	-	-	-22	5%

Qisqacha xulosalar

Kreditlar birinchi darajali ta'minot bilan ta'minlangan hisoblanadi. Agar quyidagi taxminlar bo'lsa:

- Davlat kafolati;
- Markaziy bank kafolati;
- Markaziy bank ma'qullagan holda chetel bankining kafolati;
- Erkin valyutadagi garov;
- Davlat qimmatbaho qog'ozlari;
- Qimmatbaho metallar.

Boshqa turdag'i ta'minotlar bilan ta'minlangan hisoblanadi. Agar quyidagi ta'minotlar bo'lsa:

- Mulk garovi;
- Korxonalarga tegishli qimmatbaho qog'ozlar garovi.

Shu narsani aytib o'tish kerakki, tijorat banki yilning oxirida bu ko'rilgan zararni o'z fondlarini kamaytirish hisobidan va oldingi yillarning foydalanimagan daromadlardan berkitishlari kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Kredit ritsklarini boshqarish jarayoni vazifalarini belgilovchi asosiy bosqichlarni aytib bering.
2. Bank kredit portfelida vujudga keladigan risklarni boshqarish instrumentlarini aytинг.
3. Risklarning vujudga kelishi oldini olish instrumentlarini aytib bering.
4. Vujudga kelgan risk oqibatlarini bartaraf qilish instrumentlari.
5. Tijorat banklar faoliyatida kredit risklarni boshqarish (1469)⁸.

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: Молия, 2003.
2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. –М.: Экономика, 2004.
3. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2004.
4. www.finansmag.ru
5. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
6. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>

⁸ TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnoma.

IX BOB

VALYUTA RISKLARI VA ULARNI ANIQLASH

9.1. Valyuta riskining nazariy asoslari, vujudga kelish sabablari

Risk deganda quyidagi kutilishi mumkin bo‘lgan, ammo biz hohlamagan natijalarni sanab o‘tishimiz mumkin:

- foydaning yo‘qotilishi ko‘rinishidagi berilgan kreditlar bo‘yicha to‘lovlarning vaqtida to‘lanmasligi;

- resurslar manbalarining qisqarishi;

- balansdan tashqari to‘lovlarning vujudga kelishi va boshqalar.

Bir vaqtning o‘zida shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, risk darajasining qancha past bo‘lishi yuqori darajada foyda olish ehtimolini ham qisqartiradi. Shuning uchun ham bir tomondan har qanday ishlab chiqaruvchi bir qancha muqobil yechimlar ichidan riskning minimum darajasini tanlashga harakat qilsa, ikkinchi tomondan daromadlilik, ish faoliyati darajasi bilan bog‘liqlikda bo‘lgan optimal yechimini topishga harakat qiladi. Agarda risk darajasi ko‘paysa:

- muammolar kutilmaganda va kutilgandan aksiga sodir bo‘lishi;

- bankning oldingi tajribasida sodir bo‘lmagan yangi vazifalar vujudga kelishi;

- moliyaviy zararning oldini olish borasida rahbariyat tez va zarur choralarни ko‘rish holatida bo‘lmasligi;

- bankda mavjud bo‘lgan faoliyat tartibi va qonunchilikning takomillashmaganligi bir qancha holatlarda optimal yechimni tanlash va tegishli choralarни ko‘rishda halaqit berishi mumkin.

Amaliyotda banklarning barcha operatsiyalarida risk mavjud bo‘ladi.

Bugungi kunda tijorat banklarining risklarini tahlil etishda quyidagilarga e’tibor berish zarur:

- xo‘jalik operatsiyalari juda tez tugatilishi va moliyaviy beqarorlikni hamda ishlab chiqarish darajasi tushib borayotgan bir vaqtligi iqtisodiy o‘tish davri inqirozli holatiga;

- BERI indeksi darajasiga;

- bank tizimining shakllanib, takomillashib borayotganligiga;

- amaldagi holatlarga to‘g‘ri kelmaydigan qonunchilik manbalari o‘rtasida bir-biriga nomuvofiqlik ba’zi qonun hujjatlarining

yetishmasligi yoki talablarga javob bermasligi;

- inflyatsiya va giberinflyatsiya holatlarining sodir bo'lish darajasiga.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytshimiz mumkinki, sodir bo'ladigan yalpi bank risklari va ularni tadqiq etish holat o'zgarishiga qarab o'zgarib boradi. Birgina shu bilan biz risklarni vujudga keltiradigan umumiy muammolarni va ularning dinamikasi darajasini o'rganish ehtiyojini vujudga kelganini sezamiz.

Valyuta riski. Valyuta riski bank operatsiyalarining baynalminallashuvi, transmilliy korxonalar, qo'shma korxonalar va bank inshootlarining o'zaro birlashuvi natijasida vujudga keladi va kurs yo'qotishlari riski deb ham ataladi. Undan tashqari valyuta riski valyuta tebranishlari natijasida yo'qotiladigan mablag'larni yo'qolish xavfini o'zida aks ettiradi.

Valyuta riskini boshqarishga 1979-yillardan boshlab urinib ko'rildi va o'sha davrda kurslar suzib yuruvchi ko'rinishga ega edi.

O'z navbatida valyuta riski tarkibi quyidagicha tavsiflanadi:

- tijorat — bunda qarzdorning majburiyatlarini bajarish istagi bo'lmasisligi yoki bajara olmasligi imkoniyati yo'qligi;

- konversion (naqd) — bunda aniq operatsiyalarda yo'qotiladigan valyuta nazarda to'tiladi. Bunday risklar aniq bir ish amalga oshirilayotganda hisobga olinadi. Konversion risklarni kamaytirishning eng mos usullari quyidagilardan iborat:

kedjerlash — har bir riskli operatsiyalarda yo'qotiladigan valyuta nazarda tutiladi imtiyozli valyuta pozitsiyasini vujudga keltirish. Boshqacha so'z bilan aytganda bir turdag'i valyuta kursini daromad yoki xarajatlarda boshqa risklar bilan mos kelishi tushuniladi.

valyuta svopi ikki turga bo'linadi hamda ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi. Birinchisi parallel kreditlarni rasmiylashtirishni o'zida aks ettiradi, ularni undirish, to'lash usullari va muddatlarini bir xil bo'lib, ikki xil valyutada berilishi mumkin. Ikkinchisi — ikkita bank o'rtasida valyutani "spot" stavkalari bo'yicha amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Parallel kreditlardan svoplarning farqi ular to'lov foizlarini o'zida qamrab olmaydi.

Aktiv va passivlar bo'yicha vujudga keladigan risklar "metching"

deyiladi. Bunda valyuta tushumi va ularning miqdori bilan bank rahbariyati valyuta hajmini ko‘paytirishi yoki qisqartirishga ta’sir ko‘rsatadi, shu orqali boshqaradi.

Xalqaro savdo valyuta bozorida ma’lum bir o‘zaro nisbatlarda bir-biriga almashinuvchi turli milliy valyutalardan foydalanadi. Nominal almashtiruv kursi – ikki mamlakat valyutasining nisbiy narxi, yoki bir mamlakat narxining boshqa valyuta birligida ifodalanishi. “Valyuta almashtirish kursi” terminidan qoida bo‘yicha nominal valyuta kursini ifodalash uchun foydalilanadi.

Egiluvchan valyutalar kursi tizimida almashtirish kursi valyuta bozoridagi valyutaning muvozanat narxi sifatida aniqlanadi. O‘rnatilgan valyuta kursi tizimida milliy valyuta kursini markaziy bank belgilaydi. Bunday holda markaziy bank o‘rnatilgan kurs bo‘yicha xorijiy valyutani sotib olish va sotish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Odatda markaziy bank milliy valyutaning chegaraviy erkin tebranish kurslarini o‘rnatadi.

Valyutaning narxlari chegaranining yuqori yoki quyi nuqtasiga yaqinlashsa, markaziy bank interventsiyasi o‘tkaziladi. Quyi chegaraviy nuqtaga yaqinlashish markaziy bank tomonidan shu valyutani xorijiy valyutaga yoki oltinga almashtirishni talab etadi va aksincha.

Valyuta kursi. Funt sterlinglar bozori. Agar funt sterling uchun yoki dollar darajasiga pasaysa hamda Buyuk Britaniya markaziy banki 1 funt sterling uchun 1,22 dan 1,88 atrofida tebranuvchi 1 funt sterling uchun 1,2 dol. O‘rnatilgan kursni qo‘llab-quvvatlamoqchi bo‘lsa, bunday holda markaziy bank funt sterling qo‘srimcha talabini paydo qilishi kerak va ularni dollarga sotib olishi kerak.

Agar funt sterling taklifi 300 mlrd. doldan. 250 mlrd. gacha qisqarsa, u holda kurs tebranishning quyi chegarasigacha ko‘tariladi va 1 funt sterling uchun 1,18 dollar darajasida o‘matiladi.

Uzoq va qisqa istiqbolda nominal va real valyuta kursining o‘sish omillari.

Real valyuta kursi bir mamlakat tovarlarini boshqa mamlakat tovarlariga almashtirish hisobiga sotish o‘zaro munosabati bilan xarakterlanadi. Nominal va real almashtiruv kursi o‘rtasidagi

bog'liqligi quyidagi bog'liqlik ko'rinishiga ega.

$$Er = En \times \frac{Pd}{Pf}$$

Er — real valyuta kursi;

En — nominal valyuta kursi;

Pd — ichki narxlar kursi (milliy valyuta);

Pf — xorijiy baholar darajasi (xorijiy valyutada).

Real valyuta kursi ikki mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning nisbiy narxi, shu bilan birga real valyuta kursi ikki to'liq yoki samarali bo'lishi mumkin.

Real almashtirish kursi qanchalik past bo'lsa, mahalliy tovarlar shunchalik arzonroq bo'ladi va sof eksport ko'payadi. Real almashtirish kursini aniqlashda bir qator yondashuvlar mavjud. Real almashtirish kursi eksport va import uchun yaroqli bo'lgan tovarlar narxini xalqaro savdo obyekti bo'lib, hisoblanmagan tovarlar narxiga nisbatan aniqlash mumkin.

$$Er = \frac{Pt}{Pn}$$

Bu erda:

Pt — eksport va import yaroqli bo'lgan tovarlar narxi

Pn — xalqaro savdo obyekti bo'lмаган tovarlar narxi.

Bu ko'rsatkich ma'nosiga ko'ra mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini baholashga yordam beradi.

REFning pasayishi yoki real qimmatlashish xalqaro almashtirish uchun yaroqli bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishda ichki xarajatlar o'sishida aks etadi. Ba'zan REF mamlakat ichki xarajatlarini xuddi shu ko'rsatkich bo'yicha xorijnikiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$Er = En \times \frac{W}{Wt}$$

W-mamlakat ichidagi mehnatga haq to'lashning chegaraviy xarajatlari:

Wt-xorijda mehnatga haq to'lashning chegaraviy xarajatlari.

En-nominal almashtiruv kursi.

Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida mahsulot ishlab chiqarish qimmatroq va raqobatbardoshlik pastroq bo'ladi.

Uzoq muddatli almashtiruv kursining dinamikasini aniqlovchi asosiy omillar pul massasi dinamikasi (M), real YaMM (Y) va xulqiy koeffitsiyentlar (K) xizmat qiladi.

$$R = \frac{M}{M_f} * \frac{Y}{Y_f} * \frac{K}{K_f}$$

Bunda R - mahalliy valyuta birligida xorijiy valyuta narxi. Bu tenglamadan kelib chiqadiki, mamlakat ichidagi pul massasining o'sish sur'ati xorijnikiga qaraganda yuqori bo'lsa, real xorij YaMM o'sish sur'ati mamlakat ichidagidan balandroq bo'lsa hamda xorij xulqiy koeffitsiyentlar o'sish sur'ati mamlakat ichidagidan balandroq bo'lsa, xorijiy valyuta narxi mahalliy valyutaga nisbatan ko'tariladi. Xulqiy koeffitsiyentlar dinamikasi (K) chet eldag'i va bozor foiz stavkalari darajasiga (I va If o'zaro munosabati), xorijda va mamlakat ichida kutilayotgan inflyatsiya darajasiga (re va ref), hamda berilgan mamlakat savdo balansi dinamikasiga bog'liq (TV).

Boshqa shunga o'xshash holatlarda xorij valyutasini mahalliy valyuta birligidagi narxi o'sib boradi. (ya'ni xorij valyuta kursi o'sib boradi) agar, berilgan mamlakatda pul taklifi oshsa (ya'ni "ichki" pul massasi (M) o'sib boradi):

Xorijiy davlatdagi pul taklifi tushib ketadi (M_f) xorijdagi real YaMM ko'payadi (Y_f);

berilgan mamlakatdagi real YaMM ko'payadi (Y);

xorijda foiz stavkasi oshadi (Kf);

berilgan mamlakatda foiz stavkasi pasayadi (K);

berilgan mamlakatda kutilayotgan inflyatsiya oshadi (Re);

xorijiy mamlakatda kutilayotgan inflyatsiya pasayadi (Ref);

berilgan mamlakat savdo balansi kamayadi (TV).

2. Kredit risklariga ta'sir etuvchi omillar va ularni boshqarish

Harid qobiliyati kontseptsiyasiga muvofiq xalqaro raqobat borgan sari xalqaro savdoda qatnashuvchi tovar va xizmatlarga ichki va xorijiy narxlarni tenglashtirishga qarab boradi. Agar berilgan mamlakatdagi inflyatsiya xorijiy inflyatsiya tempidan yuqori bo'lsa, u holda mavjud

kurslari» tushunchasini chuqur o'rganish keyingi mavzular ustida ishlashda katta yordam beradi.

Valyutalar almashtirish ko'rsatkichlari. Almashtirish kurslarining eng sodda qoidasi valyutalar miqdorining almashtirish vaqtidagi nisbatidir. Agar sizda 100 ingliz funt sterlingi bo'lsa, bank sizga uni 160 Amerika dollariga almashtiradi, unda:

$$(160 \text{ dollar}) / (100 \text{ funt sterling}) = (1,60 \text{ dol./ang.funt})$$

Bu holda almashtirish kursi quyidagi kotirovkaga 1 angliya funti uchun 1,60 dollar bo'ladi, demak, almashtirish kursi siz almashtirayotgan valyuta miqdorini, almashtirilgandan keyingi valyuta miqdoriga bo'lish natijasidir(nisbatidir).

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatda so'mning inflyatsiya jarayoni milliy valyutaning mos ravishdagi devalvatsiyasiz eksportning dollardagi qiymatining pasayishiga, savdo balansining ortib ketishiga olib keladi. Bunga qarshi turish uchun doimo milliy valyutaning tegishli qadrsizlanishi amalga oshirib borish kerak. Boshqacha aytganda, devalvatsiya inflyatsiya darajasiga mos kelishi kerak. Agar shunday bo'lsa, u holda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadigan doimiy almashtirish kursiga amal qilinadi.

$$W_{Kr} = W_{Kn} / P_i$$

W_{Kr} - real almashtirish kursi;

W_{Kn} - qnominal almashtirish kursi;

P_i - milliy baholar indeksi;

P_t - o'zgarishlarida milliy inflyatsiya ham aks ettirilgan.

Agar chet elda ham inflyatsion jarayon ketayotgan bo'lsa, bizning formulamiz quyidagicha bo'ladi:

$$W_{Kr} = W_{Kn} + P_t / P_i$$

P_i - xorijiy baholar indeksini bildiradi. (ya'ni uning o'sishida xorijiy inflyatsiyani). Agar milliy va chet el valyutalari o'rtasidagi almashtirish kursining o'zgarishi chet eldag'i va mamlakatdag'i inflyatsiya darajalari o'rtasidagi farqqa mos kelsa, u holda ko'rilib yaroq qoladi. Buni ayniqsa (2) tenglamada, u ish darajalarini hisobga olganda yaqqol kuzatish mumkin.

$$(W_{Kr}) = (W_{Kn}) + (P_t) - (P_i)$$

Ichki risklar avvalambor bankning faoliyat turi va ixtisoslashuvi amalga oshiradigan operatsiyalar tavsifi hamda turiga, shuningdek hamkorlik, mijozlar va kontengentlar tarkibiga bog'liq bo'ladi.

9.2. Valyuta kurslari hamda tijorat banklari valyuta operatsiyalari o'rtaqidagi bog'liqlik va undagi risklar

Xalqaro moliyalashtirish sohasidagi juda ko'p xarajatlar valyuta almashtirish kurslarining kelgusidagi noaniqliklari oqibatida kelib chiqadigan valyuta xavf-xatarlari bilan bog'liq bo'ladi. Biz «almashtirish kursi» tushunchasining uchta qoidasini o'rganishga harakat qilamiz. Bu qoidalalar o'zaro bir-birini inkor qilmaydi, aksincha bir-birini to'ldiradi, shuning uchun ularning har biri almashtirish kurslari mohiyati, hamda ulardan qanday foydalanish to'g'risida yetarlicha aniq tushunchalarga ega.

Almashtirish kurslarining eng sodda qoidasi valyutalar miqdorining almashtirish vaqtidagi nisbatidir. Agar sizda 100 ingлиз funt sterlingi bo'lsa, bank sizga uni 160 Amerika dollariga almashtiradi, unda:

$$(160 \text{ dollar}) / (100 \text{ funt sterling}) = (1,60 \text{ dol.} / \text{ang. funt})$$

Bu holda almashtirish kursi quyidagi kotirovkaga — 1 angliya funti uchun 1,60 dollar bo'ladi demak, almashtirish kursi — bu siz almashtirayotgan valyuta miqdorini almashtirilgandan keyingi valyuta miqdoriga bo'lish taijasidir (nisbatidir).

Sonli ko'rsatkichlar. Demak, almashtirish kursi bir valyutani boshqa valyutaning ma'lum miqdoriga almashtirish natijasida bo'lgan valyuta miqdoridir. Faraz qilaylik, 1 Rossiya rublining almashtirish kursi 0,026 dollarga teng. 200 rublni Amerika dollaridagi qiymatini aniqlash kerak bo'lsin. Oddiy hisoblash turi bilan quyidagiga ega bo'lamiz.

$$(\text{rubl}) / (\text{dollar/rubl}) = (\text{dollar})$$

Bizning misolimizda 200 rublimiz bor va dollarni rublga nisbati 0,026ga teng. Sonlarni formulaga qo'ysak, quyidagi ega bo'lamiz:

$$(200) / (0,026) = (5,2)$$

Bundan 200 rubl 5,2 dollarga teng ekanligini xulosa qilish mumkin. Xuddi shu yo'l bilan xohlagan miqdoriga xohlagan chet el valyutasining dollardagi qiymatini aniqlash mumkin. Faqat bunda

biz dollarda aks etgan valyuta kursi, bu chet el valyutasini bir birligi uchun ekanligini bilishimiz kerak.

Yuqoridagi keltirilgan misollarda dollarda ifodalangan almashtirish kursi 1 birlik chet el valyutasi uchun deb aytgan edik. Aslida esa, bu har doim ham shunday bo'lavermaydi. Angliya funti va Amerika dollarini almashtirish paytidagi nisbatini hisoblaydigan bo'lsak, u:

$$(100 \text{ ang funti}) / (0,625 \text{ ang.funt/doll})$$

Yoki uni almashtirish kursi 0,625 angliya vunti. 1 dollarga teng, ya'ni:

$$1 \text{ _____} = (\text{dollar} / \text{ang.funt}),$$

$$(\text{ang.funti} / \text{dollar})$$

U holda, yuqoridagi misol uchun:

$$1 \text{ _____} q(1,60)bo'ladi$$

$$(0,625)$$

Dollarda belgilangan ingliz funti ingliz funtida belgilangan dollar qiyamatiga teskari miqdor bo'ladi.

Asosan, bandlar bir-biri bilan ish olib borganda almashtirish kurslarini dollarda kotirovka qiladilar.

Hattoki, quyidagi hollarda, masalan, Qozog'iston banki, O'zbekiston so'mini tengada emas, balki dollarda kotirovka qiladi. Chet el valyutasi birligiga to'g'ri keladigan dollarlar kotirovkasi Amerika ekvivalentligi yoki Amerika shartlari deyiladi.

Banklararo bozordan tashqari valyuta almashtiruvchi dillerlar valyuta almashtirishda asosan to'g'ri kotirovkadan foydalanadilar. To'g'ri kotirovkada almashtirish kursi sotib oluvchi davlat valyuta birligida ifodalanadi. Masalan: Toshkentda qozoq tengasining qiymati xaridor uchun, aytaylik, 1 teng 5,20 so'mga teng. Rossiyada 1 so'mning qiymati sayyoqlar uchun 0,026 rublga teng. Ikkinci misol uchun teskari kotirovkaga qarama-qarshi (teskari) qo'llanma tashkil etadi.

Teskari kotirovkalar AQSh va Buyuk Britaniyada juda kam qo'llaniladi. Masalan, Yaponiya yeni Nyu-Yorkda 1 funt 1,93 dollar kotirovkaga ega bo'lib, bunda Nyu-Yorkda to'g'ri va Londonda teskari kotirovka hisoblanadi.

Almashtirish kursi mohiyati va uning kotirovka turini bilish chet el tovar va xizmatlari bahosini milliy narxlarda aniqlashga yordam

beradi. Quyidagi misolni ko'rib chiqaylik: O'zbekiston Respublikasida konditer mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «Lazzat» savdo agentligini aniqlashicha, Bishkekka yetkazib berilgan har bir quti konfet uchun 50 Qirg'iz somini olish mumkin ekan. «Lazzat» savdo agentligining vakili Bishkekda valyuta birjasi bilan bog'lanib, qirg'iz somining qiymati 0,05 dollar ekanligini aniqlaydi. Konfetning sotilishi mumkin bo'lgan narxini aniqlash uchun quyidagini bilib:

(So'm) (dollar/so'm)q(dollar) quyidagicha hisoblanadi:

$$(50) (0,05)=2,50 \text{ dollar}$$

Vakil Bishkekka jo'natilgan har bir quti konfet 2,50 dollar olib kelishi to'g'risida kompaniya menejerlariga ma'lumot beradi. So'mga bo'lgan dollarni almashtirish kursiga muvofiq bu 1950 so'mni tashkil etadi. Bu eksport imkoniyati kompaniya rahbarlarini qiziqtirdi, chunki ular har bir quti konfetni ichki bozorda sotishsa faqat 1700 so'mga ega bo'lar edilar. Kompaniya vakilidan konfetni Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga va Rossiya Federatsiyasiga ham eksport qilish imkoniyatini o'rghanishni iltimos qildi. Vakil mahalliy bankdan Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi valyutalar almashtirish kursi kotirovkasini so'radi va quyidagi ma'lumotlarni oldi: to'g'ri kotirovkada 0,026 dollar 1 rossiya rubli va teskari kotirovkada 48 qozoq tengasi 1 dollar. So'ngra u Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi milliy valyutalarida shu dayatlarda sotish natijasida 2,2 dollar foydaga ekvivalent (miqdor jihatdan teng) bo'lgan narxni aniqladi. Quyidagini bilgan holda:

(dollar) (tenga/dollar)-(tenga)

$$(2,2) (48)=105,6 \text{ tenga}$$

va hisoblashlar natijasida u o'z davlatida sotilganda olishi mumkin bo'lgan foydaga ekvivalent (teng) foydaga erishmoqchi bo'lsa, u holda Qozog'iston Respublikasiga yetkazib berilgan har bir quti konfet uchun 105,6 tenga olishi kerak.

Rossiya bozori uchun:

(dollar) 1 =(rubl)

Doll./rubl

$$(2,2) \frac{1}{0,026} =84 \text{ rublga}$$

teng ekanligini hisoblab, har bir quti konfetning sotish narxi kamida 84 rubl bo'lishi kerakligini aniqladi. Shundan keyin vakil konfetni yuqoridagi davlatlarda ko'rsatilgan narxlarda sotishni qanday amalga oshirishni aniqlashi kerak.

Misollardan yaqqol ko'rinish turibdiki, almashtirish kurslarini mohiyatini, hattoki valyutani almashtirishda ularning oddiy nisbatini bilish xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishdan keladigan potensial foydasini aniqlashga yordam beradi. Agar almashtirish kurslarining qoidalardan foydalanilsa, yana qo'shimcha foyda olish mumkin.

Valyutalarning bozor narxi. Yuqorida biz valyuta almashtirish kursining bir valyuta qiymatini boshqa valyuta qiymatida baholash sifatida ko'rib chiqdik. Bizning kundalik tovarlar narxi to'g'risida tasavvurimiz so'zsiz uning puldag'i ifodasi-qiymati bilan bog'liq. Agar oziq-ovqat do'konida bitta bulka (non) ning narxi 0,35 dollar bo'lsa, demak bulka uchun almashtirish kursi 1 bulkaga 0,35 dollarni tashkil etadi.


Xuddi shunday valyuta almashtirish kurslarini turli valyutalar narxi sifatidi ko'rib chiqish mumkin.

Yuqorida ko'rigan misollarimizda biz Rossiya rubli qiymati- 0,026 dollar va Qozog'istonda dollar qiymati 48 tengaga belgilangan deb faraz qilgan edik.

Iqtisodiyotimizda juda xilma-xil narxlar mavjud. Bu ham chakana narx, ham kamaytirilgan (skidka) narx, ham boshqarilib turiladigan narx hamda qonuniy belgilangan narxlardir.

Bozor muvozanati. Yuqorida biz valyuta almashtirish bozorlari, masalan, O'zbekiston so'mlari uchun, boshqa tovarlar bozori qanday ishlasa, u ham xuddi shu printsi pda ishlashini ko'rdik. Valyuta taklifi egri chizig'i chapdan o'ngga ko'tarilib boradi, bu ancha yuqori narxlarda ko'plab ta'minlashni bildiradi. Talab egri chizig'i esa, chapdan o'ngga, pastga tushadi, ya'ni bir dona (birlik) valyuta narxi pasayishi bilan unga talab oshadi. 5-chizma o'zbek so'mi bozori aks ettirilgan.

Almashtirish kursining uchinchi va so'ngi qoidasini o'rganishga kirishishdan avval, bozor narxi tushunchasini boshqa nuqtai nazardan ko'rib chiqaylik. Yuqorida keltirilgan misollarimizdan so'mning qiymatini rublga almashtirish kursini ko'rib chiqdik. Endi uning teskari miqdorini, ya'ni rubl qiymatining so'mda ifodalanishini ko'rishimiz mumkin.



5-chizma. So'm almashtirish bozori, rublda baholangan.

Uch tomonlama arbitrajni o'rganishga kirishishdan avval biz almashtirish kross – kursi kontseptsiyalarini bilan tanishishimiz kerak bo'ladi. Faraz qilaylik, biz Amerika dollarini Rossiya rublga almashtirishni xohlaymiz. Bank bizga 1dollarni 780 so'mga almashtirish mumkinligi to'grisida ma lumot berdi. Biz dollar ham, rubl ham o'zbek so'miga almashtirilishi mumkinligini bilamiz. Bevosita almashtirishni muqobili (alternativ) usuli quyidagicha: avval: dollarni rublga, keyin rublni- so'mga almashtiramiz. Har holda almashtirish operatsiyasini boshlanishi dollar bilan, tugashi esa – so'm bilan bo'ladi. Biz bank bilan maslahatlashib aniqladik, 30 rubl 1dollarga va 1rublni 38 so'mga almashtirish mumkin ekan.

Almashtirish kursining birinchi qoidasidan foydalanib, almashtirish kurslarining sonli nisbati ko'rinishida aks ettirish mumkinligini nazarda tutib, dollarning rublga nisbatan kross-kursini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$(\text{so'm}/\text{rubl}) \cdot (\text{rubl}/\text{dollar}) = \text{so'm}/\text{dollar}$$

Tenglikning chap tomonidan maxrajdagi va suratdagagi rubl qisqarib ketadi. Mos holda sonlarni o'rniga qo'ysak quyidagiga ega bo'lamiz:

$$(38) \cdot (30) = 1140 \text{ so'm}$$

Natijada almashtirish kross-kursi 1140 so'm 1 dollarga teng ekanligini aniqlaymiz. Shunday qilib, agar rublni almashtirish kross kursidan foydalansak, bir dollar uchun ko'proq so'mga ega bo'lamiz.

Misolimizda so‘m va dollarning rubl orqali kross – kursi so‘m va dollarni almashtirish kursiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Ammo, so‘m va dollarning boshqa kross-kurslarini ham ko‘rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. So‘m ham, dollar ham biror-bir uchinchi xil valyutaga almashtirilishi mumkin. Valyuta almashtirishda valyutalar qancha, bo‘lsa, kross-kurs ham shuncha bo‘ladi, barcha mumkin bo‘lgan variantlarni ko‘rib chiqamiz. A valyutani V valyutaga kross-kurs orqali konvertatsiya qilish uchun avval A valyutani S valyutaga, so‘ngra esa S valyutani V valyutaga konvertatsiya qilish orqali amalga oshiriladigan almashtirish kurslarini taqqoslaymiz. Ifoda quyidagicha algebra ko‘rinishda bo‘ladi.

$$(Ag^S) \cdot (Sg^V) = (Ag^V)$$

Xohlagan ikki valyuta uchun kross-kurs uchinchi valyutani algebraik qisqartirish yo‘li bilan hosil bo‘ladi: U holda A va S o‘rtasidagi almashtirish kursi (Sg^A) ko‘rinishida bo‘ladi, bunda $1g^A(Ag^S)$ ga teskari miqdor (kalkulyatordagi $1g^X$) klavishalardan foydalanasiz.

Avvalgi kross-kurs muhokamalarida operatsion sarf-xarajatlar e’tiborga olinmagan edi. Valyuta operatsiyalarni amalga oshirish qiymati almashtirish kursi bilan turli almashtirish kross-kurs o‘rtasida katta bo‘limgan tafovutni keltirib chiqarishi mumkin, bu masalalarni keyin bat afsil ko‘rib chiqamiz.

Uch tomonlama arbitraj. Faraz qilaylik, siz bankda ishlayotib dollar almashtirish kursi 780 so‘m, kross-kursi esa 1140 so‘mni tashkil etilishini ko‘rdingiz. Agar siz 780 so‘mdan dollar sotib, olib so‘ngra 1 dollarni 30 rubldan sotib va rubllarni almashtirish kursi bo‘yicha 1 rublni 38 so‘mga sotsangiz, ish beruvchining mavqeini tezda ko‘tarib boyitgan bo‘lur edingiz. Siz har bir sarflagan dollarlariningizdan 360 so‘m foyda ko‘rar edingiz. Ana shu turdagи operatsiyalar «uch tomonlama arbitraj» deyiladi. «Arbitraj» atamasi foydali amaliyot tavsifi uchun qo‘llaniladi, ya’ni biror-bir narsani bir narxda sotib olib, shu vaqtning o‘zida uni tezlik bilan yuqoriq narxda sotishdir. Arbitrajning monologi biznesning «arzonga sotib ol, qiymatiga sot» qoidasiga juda mos keladi. Yuqoridagi uch tomonlama arbitraj misolimizda biz dollarni 780 so‘mda sotib olib, 1140 so‘mdan sotgan

edik. Agar almashtirish kursi kross kursidan yuqori bo'lsa, u holda biz foyda ko'ramiz. Arbitraj uch tomonlama hisoblanadi, chunki bunda uch xil valyuta ishtirok etayapti.

Biroq, arbitrajlarning foyda ko'rish uchun valyuta olib sotishlari bir valyutaning qo'shimcha taklifini va boshqa bir valyutaga qo'shimcha talabni yuzaga keltiradi. Bu qo'shimcha talab va taklif jalb qilingan valyutalarning bozor narxiga ta'sir qiladi.

7-chizmagi misolimizda qo'llanilayotgan 3 ta valyutaning bozor holati ko'rsatilgan.

Vertikal o'qda valyutalar narxi joylashtirilgan. Gorizontal o'qda har bir narx maxrajidagi valyuta joylashtirilgan. Arbitrajlar 1 dollarga 780 so'm sotib olishlari, 1 grafikda tasvirlangandek dollarga talabni oshirgan va talab egri chizig'i o'ng tomonga siljigan. Natijaga dollarning bozor narxi ularni so'mda sotib olinish ko'tarilgani sababli ko'tarilgan.

Arbitrajlar dollarni rublga 1 dollarga 30 rubl almashtirish kursi bo'yicha almashtirilganda 2-grafikda tasvirlangandek dollar taklifining ko'payishiga olib keladi.

Taklif egri chizig'inining o'ngga siljishi dollarda aks etgan rubl narxi tushishiga olib keladi. Rublni so'mga almashtirish rublga taklifning oshirishiga ta'sir qiladi, bu esa, rublni so'mga sotish narxini pasaytiradi. Kross-kurs 1 dollar uchun 1140 so'm avvalgi almashtirish kursining 1 dollar uchun 780 so'mga ko'tarilishini belgilovchi 2 narxining pasayishi natijasida har qanday qo'shimcha bitimlarni bajarganda ham arbitrajlar foydasi kamayishiga olib keladi. Arbitrajlar o'rtasidagi raqobat shunga olib keladiki, qaysinisi uch tomonlama arbitrajdan olinadigan foyda shunchalik kam bo'ladiki amalda valyuta almashtirish bozorlarida kross-kurslar va almashtirish kurslari amaliy jihatdan teng bo'lib qoladi.

Chet el valyutalari qanday kotirovkalanadi? Ko'pgina davlatlarga to'g'ri kotirovka qo'llaniladi. Bunga muvofiq ayriboshlash kurslari ma'lum bir chet el valyutasini ekvivalentini ko'rsatadi. Kotirovka valyutalarining turiga qarab 1, 10, 100 va 1000 birlikda bo'lishi mumkin. Bunda chet el valyutasini Shveysariya frankiga, yevroga nisbati va shu kabilar.

Masalan, 1 AQSh doll.q1,4590 shv.frank.

1 AQSh doll.q0,9070 yevro

AQShda ichki maqsadlar uchun to‘g‘ri kotirovkadan foydalanadilar. Ya’ni chet el valyutasining bahosi AQSh dollarida ifodalanadi. Biroq chet el valyutasi bilan bog‘liq xalqaro operatsiyalarda AQSh banklari «Yevropa shartlari»ga rioxasi qiladi, ya’ni egri kotirovkadan foydalanadilar. Bunga muvofiq Amerika banki chet el valyutalarning kotirovkasini 1 dollarga nisbatan olmaydi, balki ularni 100 birlikga nisbatan va ularni dollarga ekvivalentida oladi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida valyutalarning kurslari to‘g‘ri kotirovka orqali aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning to‘g‘ri kotirovksi kurslari aniqlashini ilova qilib keltirdik.

Buyuk Britaniya egri kotirovkadan foydalanuvchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Londondan, Nyu-Yorkdan farqli o‘laroq AQSh dollari kursi n-dollar 1 funt sterlinga nisbatan kotirovka qilinadi. Boshqacha aytganda egri kotirovkalar tizimida funt yoki dollar boshqa bir valyutaning birligida namoyon bo‘ladi. Biroq bunga qaramasdan, turli mamlakatdan ikki sherik valyuta bitimini amalga oshirmoqchi bo‘lsa, ulardan biri sheringining valyutasi bilan operatsiyani amalga oshirishi uchun egri kotirovkadan foydalanishga majbur. Yirik hajmdagi valyutalar oldisotdi bo‘lganda dillerlar odatda dollarning kursini kotirovka qiladilar. Boshqacha aytganda, turli mahalliy valyutalarning qiymati 1 AQSh dollariga shu valyutaning nisbatiga qiymati aniqlanadi. Shunday qilib, agar biz Syurixdan, Doyche bankdan ularning kurslari haqida ma’lumot so‘rasak nemis dillerlari Shveytsariya frankini yevrodagi kotirovkani emas, balki dollarning yevrodagi kotirovkasini aytishadi. Shunday qilib, yirik bank (masalan, Doyche bank AG) ning valyuta bo‘limining tablosida nemis chet el valyutalarining yevrodagi kursi o‘rniga dollarni boshqa yirik valyutalariga nisbatidagi kursni aks etadi. Bu holatni boshqa yirik moliya markazlarida ham ko‘rish mumkin.

Masalan: 2004-yil 10-iyun kuni birjaning yopilishida kurslar quyidagichi bo‘lgan: 1.

Ba'zi valyuta kurslarning kotirovkasi

Nº	Kurslar	Sotib olish	Sotish
1.	AQSh.doll.-shv.franki	1,5562	1,5627
2.	Evroga AQSh doll.	1,0457	1,0404
3.	AQSh.doll- Ukraina grivna	5,0565	5,3301
4.	AQSh.doll-Yapon ienasi	124,29	124,78
5.	Funt ster.-AQSh doll.	1,4599	1,4555

Yuqorida qayd etilgan kurslar banklar o'rtaida bo'ladigan operatsiyalarda sotib oluvchi va sotuvchining kurslarini o'zida namoyon etadi. Shuningdek mijoz bilan bank o'rtaсидаги kursлarni namoyon etadi. Agar biz AQSh doll. Yevroga 0,9070-0,9075 kotirovkasini ko'rsak, bunda 1 kurs dollarga yevro xarid kursi yoki yevroni sotuvchining kursi va 2 kurs dollarni sotuvchi kursi yoki yevroni sotib oluvchi kursi bo'ladi.

Kross kurs –bu bir mamlakatning valyutasini ikkinchi bir mamlakat valyutasiga nisbatan uchinchi bir mamlakat valyutasi ko'pgina hollarda USD orqali ifodalanadigan nisbati. Kross-kurs xalqaro miqyosda keng qo'llaniladi. Uni asosan yirik kompaniyalar va korporatsiyalar qo'llaydi. Bu valyuta kursini aniqlashning real yo'li hisoblanadi. Agar Parij banki fransuz frankiga shvetsariya markasi oldi–sotdisini amalga oshiriyotgan bo'lsa, unda u kross-kursdan foydalanishi tabiiy holat.

Jahon bozorida kross-kursdan ko'proq AQSh dollaridan foydalanadi. Bunga sabab eksport, import operatsiyalarda uning salmog'i kattadir. Valyuta bozorlari iqtisodiyotning barometri sifatida iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

Naqd pul operatsiyalari va ularning riskka tortilishi tahlili

Chet el valyutasidagi bitimlar Yevropa banklarida taxminan soat 9.00. da boshlanadi, biroq, dillerlarning ish faoliyati bu bitimlarni tuzishdan kamida bir soat oldin boshlanadi. Har kuni ertalab chet el valyuta bo'limi boshlig'i o'z xodimlarini bitimlar tuzish bo'yicha me'yoriy hujjatlar hamda zaruriy ma'lumotlar va yangiliklar bilan

ta'minlaydi. U o'z yo'nalishini qayta ko'rib chiqadi (bozorni bir necha oy oldin tahlil qiladi) va quyidagi omillar asosida o'zining taktikasini aniqlaydi:

Floutning tizimida ayirboshlash stavkalarida aniqlovchi valyuta va foiz stavkalarining iqtisodiyotda o'zgarishi asosiy omillardan bo'lib qolmoqda. Bunda ular bitimlarni kursning oshishiga o'ynaydilar.

Siyosiy omillar. Ularga misol qilib ijtimoiy holat, huquq qo'llanmay almashishi va shu kabilar o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin va xatto bozorda muhim omil bo'lishi mumkin.

v) chet el valyutasida bankning o'z pozitsiyasi.

Market-maykerlar va ularning valyuta bozoridagi o'rnini biz nisbatan iqtisodiyoti erkin mamlakatlarda kurs asosan yirik banklar va yirik milliy hamda trans milliy kompaniya va korporatsiyalarning market-meykerlar tomonidan kutilayotgan va taklif o'rtasidagi farqi bog'liq holda o'rnatalidi.

Market meykerlar turli valyutalarni bitimlar bo'yicha sotib olish va sotish kurslari kotirovkasini doimiy ravishda amalga oshiruvchi moliya muassasalari hisoblanadi. Bozorda passiv ishtirokchilari sezilarli darajadagi kapital bilan qatnashayotgan bo'lsalar ham, bozor holatiga kuchsiz ta'sir ko'rsatadilar va ularning faoliyati ochiq bozordagi kurslarni professionallar tomonidan tartibga solishga majbur qilishi mumkin. Albatta, market-maykerlar faqatgina chet el valyutalarini milliy valyuta bilan solishtirmaydilar, balki ular milliy valyutaga tegmagan holda chet el valyutalarining kotirovkalarini amalga oshiradilar. Umuman ma'lum bir valyutalarni emitenti bo'lgan mamlakatlarda shu valyuta bo'yicha market-maykerlar shu mamalakatda joylashgan bo'ladi. Germaniyadan, Shveytsariya franki bo'yicha esa Shveytsariyadan topish mumkin. Market-maykerlar o'zi mutaxassis bo'lib hisoblangan valyuta oldi-sotdi kursi kotirovkasini amalga oshiradi. Nisbatan kam banklar butun dunyo valyutasi katirovkasini beradilar, shunday bo'lsada, Buyuk Britaniyaning kliring banklari kabi yirik milliy banklari o'z mijozlariga keng ko'lamma kotirovkalarini taklif etadi. Valyuta bozorida kam uchraydigan valyuta bilan bog'liq operatsiyalar diling bo'limining o'zi emas, balki qo'shimcha bo'limlar amalga oshiradi.

Kam uchraydigan valyutalar asosan valyuta bozori rivojlanmagan mamlakatlarga yoki chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalarga ma’lum cheklovlar qo‘yilgan mamlakatlarda uchraydi. Albatta, bunday cheklovlar mamlakat hududiga valyutaning kirib kelishiga emas, balki ko‘proq oqib chiqib ketishiga joriy qilinishi tarqalgan. Agar banklar ushbu valyutalar bo‘yicha mijozlarning talablarini bajara olmasa, ular o‘z filiallari yoki boshqa valyutalarda pul qabul qilish yoki to‘loymi amalga oshirish maqsadida korrespondent banklardan foydalananadilar.

Oddiy valyuta kurslari dillerlarga, umumiy qilib olganda alohida muammoni kasb etmaydi. Ular o‘z kotirovkalarini bozorda kutilayotgan an'anaga yoki voqeiliklarga bog‘liq holda o‘zgartiradilar. Bunday yondashuv uchinchi valyuta kursini aniqlaydi. AQSh dollari ko‘pgina operatsiyalarda bazis valyuta hisoblansa-da, hatto milliy valyutadagi bitimlarda assosiy valyutalarning bir-biri bilan bo‘lgan aniq kursini yoki yetakchi valyutalarga nisbatan bo‘lgan kursni aniqlash oson emas. Ko‘pgina dillerlar f.st.- AQSh doll; AQSh doll.-yevro; AQSh doll.-shv.franki va shu kabilar operatsiyalarga ixtisoslashadi. Ular bu operatsiyani kotirovkaga qo‘shgani uchun har bir xizmati uchun yuqori foiz oladi. Bundan so‘ng kotirovkaning aniqligini tekshiruvchi yagona yo‘l dollarning quyida valyutalarga nisbatan kotirovkasi hisob-kitob orqali tekshiriladi.

To‘g‘ri kotirovkada kross-kurs quyidagi usul bilan aniqlanadi.

· Misol. O‘zbekiston importyori Qирг‘изистонда sotib olingan mahsulotlarni to‘lash uchun o‘z bankiga qирг‘из so‘mini sotib olish uchun ariza berdi. Bank qaysi kurs bo‘yicha O‘zbekiston so‘mini qирг‘из so‘miga sotadi? Buning uchun avvalo o‘zbek so‘miga USD sotadigan bankning kotirovkasini bilish kerak.

IUSD = 34,50-41,40

Ikkinchidan, biz qирг‘из somini sotadigan kross kursni bilishimiz kerak.

IUSD = 11,00-12,00

IUSD = 34,50-41,40

IUSD = 11,00-12,00

100 som=41,40*100-11,00=376,36=komissionlar.

Egri kotirovka to'g'ri kotirovkadan farq qiladi.

Misol. O'zbekistonlik importyor Angliyadan xarid qilingan viskilarning haqini to'lash uchun bankdan GBP sotib olmoqchi. GBP ing so'mga nisbatan kross kursini aniqlang.

IUSD= 34,50-41,40 I GBP= 1,8550- 1,856041,40
1,8560=76,84csv

Qisqacha xulosalar

SPOT operatsiyasi qoida bo'yicha bitim kunini hisobga olmagan holatda ikki ish kuni davomida valyutani ayirboshlash bitimini o'zida namoyon qiladi.

SPOT kurs spot bitimi tuzilayotgan vaqtida bir mamlakat valyutasini boshqa bir mamlakat valyutasidagi bahosidir. SPOT kurs o'zida uning suzib yuruvchi yoki qat'iy belgilangan rejimdan ishslashdan qat'iy nazar operatsiya amalga oshirilayotgan vaqtida milliy valyutaning chet ellarda qadri qanchalik baholanishini o'zida aks ettiradi. Ba'zi valyutalarda ichki va tashqi qiymat degan tushuncha mavjud. Endi esa SPOT bilan bog'liq bitimni ko'rib chiqamiz. Tasavvur qilaylik, Jeneva va Syurixda soat 9 bo'ldi va FORIKS bitimlar boshlandi. Bunda Shveytsariya banklari o'rtaida telefonda kelishuvlar boshlandi, sekin-asta valyuta bozoriga chet el valyuta bozorlari ham qo'shiladi. Frankfurtning dilleri AQSh doll.-shv.franki kursi bilan qiziqsa, Shveytsariya banki esa ulardan AQSh doll. - yevroga birlamchi kursini so'raydi. Shveytsariya franki London, Bryusell, Parij va boshqa shu kabi yirik moliya shaharlarining banklarini chaqiradi yoki ularning o'zi u bilan aloqa o'rnatadi. Shu jumladan, mustaqil brokerlar ham kurslar haqida ma'lumotlar yig'ish bilan bu jarayonga qo'shiladilar. Bularning hammasi bozorning asosiy qatnashchilarining asosiy maqsadini aniqlashga xizmat qiladi. Shu boshlang'ich bosqichdan valyuta xaridori va sotuvchilari o'rtaida kurslar nisbatan kengroq namoyon bo'la boshlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Valyuta risklari deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklarining valyuta riskini tahlil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. «Matching» deganda nimani tushunasiz?
4. Kredit riskini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
5. Kreditlarning klassifikatsiyasi nimaga kerak?
6. Muammoli kreditning kriteriysi nima?
7. Kredit risklari vujudga keladigan omillarni aytib bering.
8. Valyuta «svopi» deganda nimani tushunasiz?
9. Egiluvchan valyuta kursi nima?
10. Tijorat banki likvidligini boshqarish tahlili. (1539)⁹

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: Молия, 2003.
2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. -М.: Экономика, 2004.
3. Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки: конспект лекций. – М.: Приор издат., 2004.
4. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2004.
5. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. – Ростов н/Д. изд. Центр Март, 2004.
6. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
7. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>

⁹ TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnoma.

X BOB VALYUTA RISKLARINI SUG'URTALASH

10.1. Muddatli bitimli operatsiyalar valyuta riskidan himoya vositasi sifatida

Muddatli bitimlar deb, belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshiq bo'lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytildi. Amaliyotda muddatli bitimlarning quyidagi keng tarqalgan turlari mayjuddir. Ularga:

1. Forvard valyuta bitimlari.
2. Fyuchers bitimlari.
3. Valyuta opsoni.
4. Svop operatsiyalarini kiritish mumkin.

Valyuta operatsiyalari tasnifi

Naqd valyuta operatsiyalari	Muddatli valyuta operatsiyalari
	Forvard
	Fyuchers
SPOT	Optsiyon
	Arbitraj

Forvard valyuta bitimi – bu voz kechib bo'lmaydigan va bank bilan uning mijozni o'rtaqidagi ma'lum miqdordagi kelishilgan valyutani bitim tuzilayotgan vaqtida qayd qilingan ayirboshlash kursida kelajak muddatlarda shartnomada majburiyatlarini bajarilishidir. Bu vaqt aniq bir sanani yoki ikki sana orasini namoyon qiladi. Buni aniqlashning bir qator muhim joylari borki, ularni aniq tushuntirish lozim:

a) bu voz kechib bo'lmaydigan va majburiy shartnomadir. Bitim tuzilgandan keyin mijozning bitimdan voz kechishga haqqi yo'q. Mijoz shartnomada ko'rsatilgan chet el valyutasini sotib olishi yoki sotishi shart.

b) bu bitim chet el valyutasidagi aniq bir summani tashkil etadi. Mijoz bitimda ko'rsatilgan summadan ko'proq valyutani sotib olishga ham, sotishga ham haqqi yo'q.

v) bitim kelajakdagisi aniq sanada bajarilishi shart (agar opsonli bitimlar bo'lsa – ikkita aniq sananing orasida). Mijoz forvard

bitimining bajarilish sanasini uzoqlashtira yoki yaqinlashtira olmaydi. Yana bir marotaba qayd etib o'tish joizki, forvard valyuta bitimi tuzilgandan so'ng, uning bajarilishi fyuchers bitimlari va valyuta opsiyonlaridan farqli ravishda majburiy hisoblanadi.

Agar bank mijoz bilan chet el valyutasini sotish va sotib olish haqida bitim tuzsa, u faqat mijoz bilan kelishmay, balki tashqi valyuta bozori bilan aloqa qiladi. Bu shuni anglatadiki, bank mijoz yoki bir qancha mijozlari bilan tuzgan forvard bitimlari uchun albatta valyuta bozori orqali valyutani sotib olishini yoki sotishini qoplanishini ta'minlash kerak. Dilerning "pozitsiya"si har qanday ma'lum kunning yoki davrning oxirida doimo teng holda moslashishi shart. Bu shuni anglatadiki, sotib olinayotgan va sotilayotgan valyutalar balanslashtiriladi. Agar mijoz qandaydir sabab bilan bitim shartlarini bajarolmay qolsa (bajarishni xohlamasa), u holda bank bozor bilan tuzgan bitimini bajarishi shart qilib belgilangan. Shuning uchun bank mijozidan bitimda kelishilgan barcha shartlarni bajarishini talab qilishi shart. Shu orqali, forvard valyuta bitimining shartlari qattiq hisoblanadi va agar mijoz uning shartlarini bajara olmasa, bank mijozning forvard valyuta bitimidagi majburiyatlarini bajarmasdan ketib qolishiga yo'l qo'ymaydi, balki bitimning muddatini "uzaytiradi" yoki "yopadi".

Bitimni yopish yoki uzaytirish haqida biroz keyinroq to'xtalamiz.

Forvard valyuta bitimi yoki qat'iy belgilangan, yoki opsiyonli bo'ladi.

a) qat'iy belgilangan forvard valyuta bitimi — bu kelajakdag'i aniq bir sanada bajarilishi shart bo'lgan bitimdir. Masalan, 1 — sentabrda tuzilgan qat'iy belgilangan ikki oylik forvard valyuta bitimi, ya'ni ikki oydan so'ng amalga oshiriladigan bitim;

b) opsiyonli forvard bitimi — bu mijozning xohishiga ko'ra bitim tuzilgan vaqtidan uning bajarilishigacha bo'lgan davrning ichida xohlagan vaqtida; ikkita aniq sana davomida.

Qayd etib o'tish lozimki, forvard valyuta bitimi sof valyuta opsiyonlardan farq qiladi. Valyuta opsiioni mijozga kelishilgan bitim shartlarini bajarish va bajarmaslik huquqlarini beradi. Forvardli opsiyon esa, mijozga uni bajarmaslik huquqlarini bermaydi.

Biz bilamizki, forward bitimi bu ma'lum sanadagi aniq miqdordagi valyutalarni sotib olish yoki sotishning, yoki kelajakdagi aniq ikki sana orasidagi bajarilishi shart majburiyatidir. Biroq, agar mijoz forward bitimini bajara olmay qolsa nima bo'ladi?

Masalan, importchi quyidagilarga yo'liqishi mumkin, ya'ni:

-- mol yetkazib beruvchi tovarlarni talabga muvofiq yetkazib berishga imkoniyati yo'q, shuning uchun importchi tovarlarni qabul qilishdan voz kechadi va ularga haq to'lashdan bosh tortadi.

— mol yetkazib beruvchi yetkazib keltirishlar miqdori qisqarganidan kelib chiqib, kutilganidan kamroq tovarlarni jo'natdi. Shuning uchun importchi ularga kamroq haq to'laydi.

— mol yetkazib beruvchi yetkazib berish muddatidan kech qoldi, shuning uchun importchi tovarlarga haqni biroz kechroq to'lashi mumkin. Bu voqealarning har birida importchining bankdan chet el valyutasini sotib olish istagi yo'q. Lekin forward valyuta bitimi shartlari bo'yicha sotib olishni kelishgan. Shu bilan birga, eksportchi ham shunday holatga tushishi mumkin: yo umuman to'lovni olmasligi, yoki bir muddat kechikishlar bilan katta yoki kichik summada olishi mumkin. Bunday sharoitda eksportchi forward valyuta bitimida ko'rsatilgan shartlarni, xususan, o'zining bankiga barcha yoki ma'lum qismidagi chet el valyutasini sotish imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Bankning pozitsiyasi quyidagicha: agar mijoz forward valyuta bitimi shartlarini bajara olmay qolsa, bank uni mazkur shartlarni bajarishga undaydi.

Mijoz forward valyuta bitimida kelishilgan miqdordagi valyutani hali sotib olish yoki sotish niyati bor, lekin u mazkur bitimdagi valyutaning yetkazib berilish vaqtini uzaytirish niyati bor. Bunday holatda mijoz quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

a) spot bitimiga muvofiq, bankdan eski bitimni yopishni so'rashi mumkin va oddiy yo'l orqali hisoblangan qo'shimcha davrning kursi bo'yicha yangi bitim tuzishi mumkin;

b) bankdan ushbu bitimdagi sotib olish va sotishning bank kursslarni o'zgartirib, bitimni uzaytirishni so'rash.

Shunday qilib, forward valyuta bitimini uzaytirish qanday oqibatlarga olib keladi?

1. Forward valyuta bitimini yopish singari bank o‘zining tashqi valyuta bozoridagi pozitsiyasini himoya qiladi va shuning uchun:

- agar birlamchi forward valyuta bitimi bank tomonidan valyutani sotishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, endi u sanani uzaytiruvchi o‘zining spot xarid kursini qo‘llaydi (yopishda ham shunday);

- agar birlamchi forward bitimi bank tomonidan valyutani xarid qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, endi u sanani uzaytiruvchi o‘zining spot sotish kursini qo‘llaydi (yopishda ham shunday).

Bank odatda bitim muddatini uzaytirayotganda mijozning joriy hisob raqamida “forward” kursi bilan yopilish “spot” kursi o‘rtasidagi farqni milliy valyutada yozuvlarni qayd qilib boradi, ya’ni mijozning hisob raqami foyda bo‘lganda kreditlanadi va zarar aniqlanganda debitlanadi.

Forward valyuta bitimini uzaytirish yopishga qaraganda quyidagilar bilan ajralib turadi, bunda bank mijoz bilan oddiy forward bitimidan farqli ravishda mijozga maqbul bo‘lgan kurs bo‘yicha yangi forward bitimini imzolaydi.

Bu quyidagi yo‘l orqali amalga oshiriladi:

- bank tomonidan valyutani sotish muddatini uzaytirish ko‘rilayotganda, “spot” kurs bo‘yicha xarid qilish va joriy mukofot yoki diskont bo‘yicha sotishni qo‘llash;

- bank tomonidan valyutani xarid qilish muddatini uzaytirish ko‘rilayotganda, “spot” kurs bo‘yicha sotish va joriy mukofot yoki diskont bo‘yicha xarid qilishni qo‘llash.


Bu yana “diagonal qoida” sifatida mashhurdir, ya’ni forward bitimi uzaytirilayotganda forward kursi quyidagicha aniqlanadi:

Sotishning spot kursi

Xaridning spot kursi

Sotishning
mukofot yoki diskonti

Xaridning
mukofot yoki diskonti



Agar ushbu qoida hali unchalik darajada tushunarli bo‘limasa, forvard valyuta bitimi kursini quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

a) agar bu bitim bank tomonidan sotishni (va mijoz tomonidan sotib olishni) nazarda tutsa:

- muddatni uzaytirish sanasiga bankning spot xarid kursi (bitim muddati uzaytirilmaganda, bankning bitimni yopish kursi);

- bitim muddatini uzaytirish davrida (masalan, agar bitim bir oya uzaytirilgan bo‘lsa, unda sotish kursiga forvard diskonti hisoblanadi yoki mukofot qo‘shiladi) bankning sotish kursiga minus diskont (yoki sotish kursiga plus mukofot).

b) agar bu bitim bank tomonidan sotib olishni (va mijoz tomonidan sotishni) nazarda tutsa:

- muddatni uzaytirish sanasiga bankning spot sotish kursi (bitim muddati uzaytirilmaganda, bankning bitimni yopish kursi);

- bankning xarid kursiga minus diskont yoki bitimni uzaytirish davriga plus mukofot. Ta’kidlash lozimki, forvard bitimini uzaytirishda bank mijozga bitimni yopishga, ya’ni «diagonal qoida»ga nisbatan ancha qulay ayirboshlash kursini taklif qiladi.

Moliyaviy fyuchers bitimlari 70-yillarda xalqaro valyuta bozorida bиринчи bor qо‘llанылғанлыгининг о‘зидайоқ кенг тарқалди. Moliyaviy fyucherslar konsepsiysi xом ashyo va oziq-ovqat mahsulotlaridan keladigan foydaga asoslanadi. Standart hajmdagi va miqdordagi har qanday mahsulot fyucherslar birjasida oldi-sotdi obyekti sifatida qatnashishi mumkin. Agar qandaydir bir mahsulot fyuchers operatsiyasining obyekti hisoblangsа, tasavvur qilish mumkinki, bunday operatsiyani yevro, funt sterling yoki shveytsariya franki bilan o‘tkazish osonroq hisoblanadi. Shuni aytish mumkinki, aloqa tizimining doimiy ravishda takomillashishi, bitimlarni tuzadigan joy – ma’lum bir mahsulotlar yoki shartnomalar sotiladigan va xarid qilinadigan о‘rta asrlarni eslatuvchi o‘ziga xos aylanma savdo rastalari mavjud bo‘lgan katta operatsion zalni eslatadi. Operatsiyalar faqatgina operator xodimlarning ularga maxsus belgilangan joyda turgan holatlarda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, shartnomalarni sotish va sotib olish mumkin.

Shartnomalarni sotish va sotib olish oddiy baqirish-chaqirishlar orqali amalga oshiriladi. Turli birjalarda ish turlicha bo'lsa-da, umumiy ma'lumot uchun faqatgina bitimlar bo'yicha to'lov muddati va stavkalari haqida chegaralangan ma'lumotlar beriladi.

10.2. Valyuta risklari va ularni sug'urta qilinishdagi muammolar

Faol bozorda alohida bitimlar yoki bitimlarning kichik guruhlari ommaga ma'lumot tariqasida yetkazilmaydi, chunki stavkalar juda tezlikda o'zgaruvchi tavsifga egadir. Yuqorida ta'kidlanganidek, valyuta kurslari bo'yicha fyucherslar kelajakdagi ma'lum bir sanaga ma'lum hajmdagi valyutani oldi-sotdi qilish bitimidir. Bu jihatlari bilan ular forvard valyuta bitimlariga o'xshaydi, biroq, forvard bitimlaridan farqli o'laroq, ular:

- a) juda oddiy bekor qilinadi;
- b) valyutaning qat'iy belgilangan summasiga tuziladi;
- v) rasmiy birjalarda sotiladi;

g) fyuchersning sotuvchilari fyuchers majburiyatlari bajarilishini kafolatlash uchun birga dilleriga «pullik marja»ni to'lashni ko'zda tutishlari kerak.

Valyuta opzioni. Valyuta opzioni birinchi marta 1982-yili Filadelfiya birjasida amalga oshirilgan edi. Shundan so'ng, valyuta opsiyonlari bilan savdo jahonning ko'pchilik birjalarida amalga oshirila boshlandi. Opciondan investitsiya portfelining muhim elementi va sug'urtalashning samarali usuli sifatida foydalanish uchun uning qanday ishlashini bilish lozim.

Valyuta opzioni uning xaridoriga ma'lum bir huquqni beradi, ayni paytda uning zimmasiga kelajakdagi ma'lum muddatda belgilangan narx bo'yicha AQSH dollarining muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish majburiyatini yuklamaydi. Opcionni sotuvchi xaridor oldida kelajakdagi muayyan muddatda qat'iy belgilangan narx bo'yicha muayyan miqdordagi AQSH dollarini xarid qilish va sotish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Opcion shartnomasining tuzilishi har qanday oldi-sotdi savdo bitimi singari sotuvchi va xaridorning mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Opcionning xaridori ushbu operatsiyani amalga oshirish huquqini

olish evaziga belgilangan miqdordagi pulni — vositachilik haqini to'laydi. Opcion oldindan belgilangan muddatgacha kuchga ega bo'ladi. Ushbu muddat ekspiratsiya sanasi deb ataladi. Opcion turli tovarlar uchun tuzilishi mumkin. Shuningdek, u tovarni amalda yetkazib berilishini ko'zda tutmasligi mumkin.

Opcionlarning quyidagi ikkita asosiy turi mavjud:

- «koll-opsion» yoki xarid qilish uchun opson;
- «put — opson» yoki sotish uchun opson.

Opcionning amal qilishi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish va opson strategiyalarini tahlil qilishda foyda-zararlar diagrammasidan foydalilaniladi. Ushbu diagrammalar bu opson yoki bir necha opsonlar tovarlarga har-xil narx qo'yilgan vaqtida qancha foyda (zarar) keltirishi mumkinligini ko'rsatadi. 1 AQSh dollari uchun 1200 ros.rubli nisbatidagi kurs bo'yicha valyuta sotib olingan yoki sotilgan holatda foyda va zararlarning o'zgarishi 10diagrammada ko'rsatilgan. Abssiss o'qi bo'yicha AQSh dollarining vujudga kelishi mumkin bo'lgan kursi ko'rsatilgan. Ordinat o'qi bo'yicha esa, valyutani xarid qilish va sotish operatsiyasi keltirishi mumkin bo'lgan foyda va zararlar aks ettirilgan. 1-chi diagrammada AQSh dollari kursi 10 bandga oshgan holatda investor har bir xarid qilingan dollar kursi 10 bandga oshgan holatda investor har bir xarid qilingan dollar uchun 10 rubl foyda ko'rishi, kurs 10 bandga tushganda esa, har bir dollar uchun tegishli ravishda 10 rubldan ziyon ko'rishini aks ettirgan. Valyuta opsonlarning yo'nalishi. Valyuta opsonlari valyuta riskini kamaytirish va oldini olish maqsadida foydalilaniladi va ulardan quyidagi hollarda foydalinish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Valyuta tushumining to'lovining vaqtini va miqdori aniq bo'lmaganda. Agar bitim amalga oshmasa, opson bozorda sotilishi (agar uning qandaydir bir qiymati bo'lsa) mumkin, yoki daromad bilan bajarilishi (agar bajarilish narxi «spot» kursga nisbatan ancha muvofiq bo'lsa) mumkin.

2. Chet el valyutasida baholangan tijorat taklifi hisoblangan xorijiy shartnomani rag'batlantirish uchun.

3. Chet el valyutasidagi mahsulotlarining narx-navosini

(preyskurator) chop etish.

4. Narxga o'ta sezgir bo'lgan eksport va import tovarlarini himoya qilish.

Agar ayrboshlash kursining yaxshi tomonga o'zgarishi yuz bersa, opson importchi eksportchiga undan daromad olish imkoniyatini tug'diradi (bunda u forward valyuta bitimlaridan importchi-eksportchining qat'iy belgilangan kursga bog'lanib qolishini oldini oladi). Bu shuni anglatadiki, daromad importchi-eksportchining mijozlariga tayinlangan narxlarda aks etadi. Kompaniya ma'lum bir belgilangan valyutaning holatini (riskini) bilmasdan chet el valyutasini sotish haqida forward valyuta bitimi tuzmaydi.

Masalan, tasavvur qilaylik, Kamol Ltd. Kompaniyasiga Germaniyada yevroda tayinlangan narx bo'yicha bitim tuzish taklif etilgan. Kamol Ltd. Kompaniyasi taxminicha, bitim 1.850.000 funt sterling qiymatida turadi. Bu bitimga takliflarning ko'pligi va raqobatning kuchlilagini e'tiborga olib, kompaniya bu bitimni 2 mln. funt sterlingda baholadi. Hozirgi vaqtda 1 funt sterling, 2,80 yevroning tashkil etilishini hisobga olib, u 5,600.000 yevro miqdoridagi taklifni tashlaydi. Bitim olti oy muddatdan oldin tuzilmaydi.

Amerika opsoni deb, odatda opsonning harakat muddatini xohlagan vaqtida bajarilishiga va shuning uchun opsonning harakat muddati uning birinchi va oxirgi hisob-kitob sanasi orasida o'rnatiladi.

Yevropa opsoni deb, odatda opsonning faqat hisob-kitobning oxirgi davrida bajarilishiga aytildi. Opcion bitimi bo'yicha hisob-kitobni amalga oshirish uchun ikki ish kuni olinadi va shuning uchun valyuta opsoni uning egasi tomonidan hisob-kitob ko'zda tutilgan kundan ikki kun oldin bajarilishi shart, masalan, agar opcion egasi uni bajarilishini istasa, Yevropa opsoni hisob-kitob sanasidan ikki kun oldin bajarilishi shart.

Valyuta opsonlari turli moliya institutlarida rasmiylashtirilishi mumkin:

a) ular bankning mijozlari uchun yoziladi- birjadan tashqari opsonlar;

b) ularni opson birjalaridan sotib olish mumkin-birja opsonlari

Birjadan tashqari opsonlar odatda bank tomonidan ishbilarmon mijozga mos keluvchi tijorat shartnomasiga yoziladi. Ular mijozning talabidagi summasi, bahosi (ya'ni, ayrboshlash kursi) bilan birga, uning bajarilish sanasiga ham aniq moslashtirilgandir.

Bu turdag'i opsonlarning eng asosiy kamchiligi uning muomalasining yo'qligi hisoblanadi. Mijoz opsonning bajarilish sanasigacha ushlab turishi yoki uni bajarishi, yoxud uning muddati o'tib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Birja opsonlari--bu valyuta opson bitimlarining jamlangan summasi va vaqtning davriy yig'indisidir.

Bitimning bajarilish sanasi va summasi birjadan birjagacha o'zgaradi, lekin masalan, Filadelfiyada har bir sterling bitimi bajarilish bahosi (ayrboshlash kursi) 12.500 f.st. summasida tuziladi va mart, iyun, sentabr va dekabrdagi muddatiga besh sent qadamida kotirovka qilinadi.

Bu opsonlarning muomaladaligi o'zaro quyidagicha katta ehtimollikni olib keladi, bunga muvofiq savdoning asosiy hajmi mos keluvchi tijorat bitimlarida qayd qilinmaydi, balki chayqovchilik xarakteriga egadir. Qoida bo'yicha, bu kabi opsonlarda buyurtmaga nisbatan narxlarning diapozoni nisbatan kamroqdir (birjadan tashqari). Birja opsonlarning kamchiligi bo'lib, uni tugallash va kerakli summani aniq «moslash»ning iloji yo'qligi hisoblanadi.

Valyuta opsonlari kamchiligi. Valyuta opsonlarining ommabopligi o'sib bormoqda va undan foydalanish borgan sari kengayib bormoqda. Banklar o'z mijozlariga ularni sotishda faol qatnashishiga harakat qiladi.

A) Lekin valyuta opsonlarning quyidagi kamchiliklari mavjuddir:

Qiymat. Valyuta opsonlari kompaniyalarini nafaqat ularni yomon holatdan, valyuta risklaridan himoya qiladi, balki ularga valyuta kurslarining «ijobiy» o'zgarishidan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu xizmat so'zsiz qimmat hisoblanadi. Mukofotning qiymati valyuta bilan qoplangan umumiy summani 5% atrofini tashkil qiladi, shunday bo'lsa-da, summaning aniqligi kutilayotgan kursning ayrboshlanishi o'zgarishiga bog'liqdir.

B) «Oldindan» to‘loving zarurligi. Valyuta opsiyonlari uning tuzulish vaqtida to‘laniladi. Bu barcha kompaniyalarga yoqmaydi, chunki ular opsiyonni amalga oshirishni istasalar ham, ular har doim naqd pulga ega bo‘lmaydi.

V) Savdo opsiyonlarni barcha valyutalarga nisbatan olib bo‘lmaydi, shunday bo‘lsa-da, birjadan tashqaridagi opsiyonlar har qanday erkin konvertirlanadigan valyutaga erkin tarzda sotiladi.

G) Birjadan tashqari opsiyonlarning muomalasi mavjud emasligi.

Svop operatsiyalari. Valyuta bozoridagi xalqaro bitimlar, xususan, kapitalning qisqa muddatli eksporti svop-bitimlardan tez-tez foydalanishga olib kelmoqda. Agar kapitalning eksporti boshqa valyutaga bog‘lanishni taxmin qilsa va agar kafolat asosida bajarilishi shart hisoblansa, svop-bitimdan foydalanishni taqozo etadi.

Svop operatsiyasi- bu bir vaqtning o‘zida chet el valyutasini har xil sanaga turli hisob-kitoblar shartida teng summada sotib olish va sotishdir. Svop – bitimlar, shuningdek, banklar tomonidan chet el valyutasidagi o‘z majburiyatlarini qoplash maqsadida foydalaniladi. Shunday qilib, banklar svop bitimlardan o‘z valyuta pozitsiyalarini muvofiqlashtirish usulini va valyuta kurslarini tebranishi oldini olish maqsadida foydalanadi.

Qisqa muddatli kapitallar chet elga investitsiyaga asosan ikki sabab bilan qiziqadilar:

a) mahalliy valyuta bozori investitsiyalash imkoniyatlarini ta‘minlay olmaydi;

b) boshqa mamlakatga va valyutaga investitsiyalash juda katta foydani va‘da qiladi.

Birinchi voqeani masalan, Shveytsariyaga nisbatan qo‘llaymiz. U yerda haqiqiy ichki valyuta bozori mavjud emas; nisbatan kichik banklar, shuningdek, korporativ va xususiy mijozlar o‘z jamg‘armalarini yirik Shveytsariya bankiga joylashtirishi mumkin, lekin yirik bank o‘z navbatida kapitallarni mahalliy valyuta bozoriga joylashtirish imkoniyatiga ega emas, chunki kichik mamlakatlarda bunday qimmatli qog‘ozlarning amal qilishi amri mahol. Shunday qilib, yirik Shveytsariya banklari ortiq likvid kapitallarni chegaradan tashqariga joylashtirishga majbur bo‘ladilar. Bu asosan Yevrobozorda xedjirlash asosida muddatli

depozitlarga joylashtirish bilan amalga oshiriladi.

10. 3. Valyuta risklari, ularni sug‘urta qilinishidagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari

Respublikamizda ham rivojlanayotgan boshqa davlatlar kabi ma’lum valyutaviy cheklashlar mavjud. Ularning eng asosiysi milliy valyutani erkin konvertlanadigan valyutalarga to‘la qonli konvertatsiyalashning yo‘qligidir.

Bu, masalan, quydagilarda namoyon bo‘ladi: Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarmoqchi bo‘lgan korxona o‘zining tarkibini yaxshilashga, yangi texnologiyalar kiritishga, malakali mutaxassislariga ehtiyoj sezadi. Bunga amalda erishish uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o‘rganish, ulardan yangi texnologik asbob-uskunalarни sotib olish, o‘z mutaxassislarini chet ellarda o‘qitish yoki chetdan jalb qilish kerak. Buning uchun chet el valyutasidagi mablag‘lar zarur bo‘ladi.

Hozirda Respublikada bozor munosabatlari rivojlanayotgan davrda konvertatsiyaga valyuta rezervlarining yetishmasligi chet el investitsiyasini jalb qilishga ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Milliy valyutani boshqa valyutalarga erkin konvertirlanishiga erishish- iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish hamda pul-kredit va valyuta siyosatini takomillashtirishni ta’minalashni talab etadi.

Bunga osonlikcha erishilmaydi. Chunki dunyoning hamma mamlakatlari ham erkin konvertirlanadigan valyutaga ega emas.

O‘z milliy valyutasining qadrini oshirish uchun har qanday davlat o‘z hududida valyutani tartibga solish usullari bilan chet el valyutasini milliy naqd va naqd pulsiz oborotga ta’sirini kamaytirgan holda milliy valyutani boshqa valyutalarga erkin ayrboshlanishini ta’minalashi uchun barcha shart-sharoitlarni yuzaga keltirishi shart. Bir qator davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erkin konvertatsiyasiga faqatgina iqtisodiyotning ma’lum rivojlanish bosqichida erishiladi.

Hatto Yaponiya, Janubiy Koreya va Janubiy – Sharqiy Osiyorning boshqa rivojlanayotgan davlatlari uzoq vaqt mobaynida turli shakldagi valyutaviy cheklashlarni qo‘llashga majbur bo‘lganlar.

Valyuta rezervlarini yetishmasligi sharoitida valyuta bozorini rivojlantirish maqsadida Markaziy bank Moliya vazirligi bilan birgalikda 1994-yili Respublika korxonalarining eksportdan tushgan tushumlarining 15 foizini majburiy sotishni tasdiqladi, bu vaqtida bu majburiy sotuvdan tashqari eksportdan tushgan tushumdan olinadigan 15 foizli soliq ham mavjud.

Bundan keyingi qadam soliqni bekor qilinishi va uning o'rniga korxona eksportidan tushgan tushumdan olinadigan majburiy sotuvni 30 foiz qilib belgilanishi bo'ldi. Ushbu chora-tadbir korxonalarini eksportga qiziqishlarini yanada oshirdi. Chunki endi ularning foydasining bir qismi majburiy tarzda olinmasdan, balki chet el valyutasidagi tushumining bir qismi milliy valyutaga ayriboshlanib korxonaning o'ziga qaytariladi. Bu tushgan tushum Markaziy bankning valyuta zahirasini oshirishga qaratilgan edi.

1994 -yil 1- iyuldan respublika milliy valyutasi so'mning kiritilishi bilan uning qadrini kuchaytirish uchun zaruriy chora-tadbirlar o'tkazishga ehtiyoj sezildi. Bunga ichki bozorni to'yintirishga, korxona faoliyatini eksport potensialini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash qo'l keldi. Shuning uchun 1994-yil 7-oktabrda O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori milliy valyutani barqarorligini ta'minlashdagi muhim bosqich bo'ldi. Chunki ushbu qarorda birinchi bo'lib respublika hududida qonuniy yagona to'lov vositasi — so'm rasmiy e'lon qilindi.

Shu bilan birga naqd pulsiz chet el valyutasida importyor-korxonalarining talabini ta'minlash uchun chet el valyutasidagi rezervlarga qo'shimcha ehtiyojni qondirishni ta'minlash zarurati yuzaga keldi. Va oqibatda 1995- yilda markazlashgan barcha eksport tushumi va davlat resurslari Markaziy bankka majburiy sotilishi belgilab qo'yildi. Ma'lumki, 1997- yilda paxta tolasini eksporti eksport hajmining 40 foizini, elektr-energiya, yoqilg'i mahsulotlari eksportdan tushayotgan barcha tushumning 6 foizini tashkil qildi.

Hozirgi vaqtida import o'rnini bosuvchi yoki eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish texnologiyasini va respublikaga birinchi

darajali kerakli xalq iste'moli mollarini olib kelishni ta'minlaydigan korxonalariga ichki valyuta bozorini rivojlantirish maqsadida korxonaning so'mdagi mablag'larini erkin ayirboshlanadigan valyutaga ustuvor tarzda konvertirlashning ishlab chiqilgan mexanizmi amal qilmoqda.

Bundan tashqari, respublika hukumatining qaroriga muvofiq, chet el investitsiyasi ishtirokidagi eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalariga so'mdagi mablag'larini erkin ayirboshlanadigan valyutaga o'z vaqtida konvertatsiyalash kafolatlangan, shu jumladan chet el ta'sischilariga tegishli ulushning foydasi va devidendini konvertatsiyasi ham.

Valyuta operatsiyalarini va valyuta bozorini rivojlantirishdagi keyingi qadam bo'lib, korxonalarining valyuta tushumidan Markaziy bankka 30 foizlik majburiy sotuvi bekor qilindi va buning o'rniga valyuta bozorini liberallashtiruvchi birjadan tashqari valyuta bozori yuzaga keltirildi. Bu vakolatli banklarga talab va taklifdan kelib chiqib, mustaqil ravishda ayirboshlash kurslarini o'rnatish imkoniyatini yaratdi. Vakolatli banklarning birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalar o'tkazishda manba bo'lib korxonalarining 30 foizlik majburiy sotuvidan tashqari, ularning o'z resurslari hamda mijozlarining chet el valyutasidagi depozitlari va boshqa jaib qilingan mablag'lari hisoblanadi.

Valyutani tartibga solish sohasi bo'yicha olib borilgan choratadbirlar korxonalarining valyuta resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Yuqorida gilardan shuni xulosa qilish mumkinki, respublikamizda o'tkazilayotgan valyuta operatsiyalarining hajmi sekin-asta bo'lsada, barqaror holatda rivojlanish an'anasiga ega.

Biroq, so'mning to'liq konvertirlanishiga erishish uchun bir qator birinchi darajali vazifalarni hal etish lozim: eksport va ishlab chiqarish tarkibini yaxshilash, texnologik qolqolikni bartaraf etish, ishlab-chiqarilayotgan mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirish zarur. Bu natijalarga erishish uchun ma'lum vaqt kerak. Shu bilan birga, milliy valyutani to'liq konvertirlagan holda raqobatbardosh

iqtisodiyot bilan jahon bozoriga kirish sharaflidir. Demakki, so‘mni ichki konvertirlash asosiy maqsad bo‘lmay, balki milliy iqtisodiyotni jahon bozoriga teng huquqli integratsiyasi uchun qo‘yilgan bir vosita xolos. O‘zbekistonda katta hajmda forward operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari va valyuta opsiuni hamda valyuta fyuchersi operatsiyalari bilan Yevropa bozoriga chiqish imkoniyatlari mavjuddir. Respublikada spot-bozorining rivojlanmaganligi muddatli bitimlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining faqatgina bir necha tijorat banklarigina yetakchi chet el banklari bilan korrespondent munosabatlarni o‘rnatganlar. Bundan tashqari, MDH davlatlari banklarida korrespondent hisob raqamlar ochish bo‘yicha turli cheklovlar mavjuddir. Tabiiyki, tashqi savdo uchun zarur hisoblangan chet el banklari bilan korrespondent munosabatlarni rivojlantirish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari valyuta operatsiyalarining yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, xalqaro hisob-kitob shakllarini rivojlantirish hisoblanadi. Bu bиринчи navbatda hujjalashtirilgan akkreditiv va to‘lov topshiriqnomasiga tegishlidir. Lekin, bugungi kunda chet ellik sheriklar akkreditivni qoplash summasini va yuqori komission to‘lovlarini talab qilmoqdalar, to‘lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitobda esa, yuqori hajmda oldindan to‘lash talab etilmoqda. Shu bilan birga, Respublikada valyuta operatsiyalarini rivojlantirish uchun valyuta ayirboshlash operatsiyalarini rivojlantirish lozim. Buning uchun, xalqdan naqd chet el valyutasini jalb qilib sotib olishi va erkin tarzda sotishi kerak. Bu turdagи valyuta operasiyalariga qattiq valyuta cheklovini joriy qilish tijorat banklariga bo‘lgan ishonchning yanada pasayishiga va chet el valyutasiga bo‘lgan fetishizm rivojlanishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda Respublikada bir qator qo‘shma va chet el banklari tashkil topdi. Ular bir necha o‘n yillik xorijiy tajribalarni bizda qo‘llashga va respublikadagi bank raqobatchiligi rivojlanishiga ko‘maklashmoqda.

Bunday qo‘shma banklar Respublikamizga bo‘sh kapitallarni,

investitsiyalarni va xalqaro kreditlarni jalb qilishi mumkin. Bundan tashqari, ular xalq xo'jaligini kreditlashi, demakki, ishlab chiqarishni rag'batlantirishi mumkin.

Bozor munosabatlarining rivojlanishini hisobga olib, umuman keltirilgan hamma ma'lumotlarni tahlil qilsak, Respublikamizda tijorat banklari valyuta operasiyalarining rivojlanish istiqbollari yetarlidir.

Banklarning bosh maqsadi o'z faoliyatining barqarorligini, samaradorligini, foydalilagini, raqobatbardoshliligin hamda uning obro'yini saqlashdan iboratdir. Buning uchun bankda yetarli sharoitlar mavjud bo'lib, buni banklarning 2001- yilda olgan daromadlaridan ham ko'rsak bo'ladi.

Bundan ko'riniib turibdiki, tijorat bank daromadlarida kreditdan olayotgan daromadlar ulushi kamayib bormoqda, chunki u ilgarilari 60%dan ko'prog'ini tashkil etgan bo'lsa, 2001- yilda 47%ni tashkil etgan. Ikkinchisi o'rinda bankning vositachilik operatsiyalaridan olingan daromadlari tashkil etayapti, u jami daromadlarni 41%ini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasining 2003- yilgacha mo'ljallangan investitsion dasturiga kiruvchi loyihibar ,ya'ni:

- xususiylashtirish jarayonida chet el sarmoyalarining qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollantirish;
- xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish kabi dasturlar natijasida faoliyat ko'rsatish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Agar biz banklarning 2003-yildagi xususiy tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes subyektlariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan berilgan kreditlarni tahlil qiladigan bo'lsak, tijorat banklari bu yo'nalishda katta ish qilganligini ko'ramiz.

Joriy yil davomida oylik inflyatsiya darajasi asta-sekin pasayib bordi. Tijorat banklari pul taklifini boshqarish pul bazasining o'sish sur'atlari va bank tizimi likvidliligin so'f ichki aktivlar va xalqaro rezervlar dinamikasini tartibga solish uchun harakat qilyapti.

Bank tizimi tomonidan iqtisodiyotdagagi yechimni kutayotgan muhim muammolardan biri bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro qarzlar muammosini hal etish borasida ham bir

qator ishlar amalga oshirilyapti. Qishloq xo'jalik korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning byudjet oldidagi qarzları restrukturlandi shuningdek, korxona va tashkilotlar o'rtasidagi noto'lovlarni bartaraf etish choraları sifatida maqsadli kreditlar berildi va faktoring xizmatlari ko'rsatildi. Bu esa, o'z navbatida respublikamizdagi o'zaro muddati o'tgan debtorlik va kreditorlik qarzlarini deyarli bartaraf etish imkonini beradi. 2001-yil davomida bank tizimining iqtisodiyotga bergen kreditlari miqdori 54,2 foizga oshdi.

Bank faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri moliya bozorida bankning vositachilik rolini kuchaytirishdir. Shu asnoda banklar kredit siyosatini investitsion jarayonlardagi faoliyatini yanada oshirishga kreditlash va investitsiya obyektlarini tanlashda avvalo o'z qo'yilmalarining samaradorligini baholashdan kelib chiqqan holda yo'naltirishga katta e'tibor beryapti.

Pul kredit siyosatining 2002-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari inflyatsiya darajasini pasaytirishga, al mashuv kursini unifikatsiya qilishga, milliy valyutani mustahkamlashga, investitsion faollikni kuchaytirishga, bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga va tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro qarzlar muammosini bartarf etishga yo'naltiriladi.

Pul-kredit siyosatining tezkor ko'rsatkichlari sifatida rezerv pullar, Markaziy bankning hukumat va tijorat banklariga nisbatan bo'lgan talabini va sof xalqaro aktivlar o'zgarishi orqali belgilangan. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha choraklik va oylik chegaraviy mo'ljallar o'rnatiladi va ularning bajarilishi pul-kredit siyosatining bilvosita instrumentlari orqali nazorat qilib boriladi.

Milliy valyutani konvertatsiya qilish huquqiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni jiddiy ravishda kengaymoqda, almashtirish shoxobchalari soni ko'paydi, xorijiy valyuta sotib olish tartibi soddashtirildi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, birjadan tashqari valyuta bozorini kengaytirish va naqd pulsiz hamda naqd valyutani konvertatsiya qilish ko'lamlarini

ko'paytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2001-yil 22-iyun kuni qaror qabul qildi. Qarorda O'zbekiston bozoriga konvertatsiya qilinadigan valyuta tushumini keskin ko'paytirish uchun mavjud imkoniyatlar va resurslarni jalb qilish, investitsiya muhitini shakllantirish va eksportga ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirishga doim bugungi kunda olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish, eksport imkoniyatini rivojlantirishni rag'batlantirish Respublika kengashi ushbu masalalar bo'yicha ishlarni tanqidiy baholasin va joriy yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo'yicha 2002-2005-yillarga mo'ljallangan aniq takliflar kiritish.

O'zbekiston Respublikasi makro iqtisodiyot va statistika vazirligi, Moliya Vazirligi, Markaziy banki manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida inflyatsiya darajasini pasaytirishga, makroiqtisodiy barqarorlik darajasini oshirishga, ichki bozorni raqobatbardosh iste'mol tovarlari bilan to'ldirish bo'yicha sifat jihatidan yangicha yondoshuvlarni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Moliya vazirligi, tijorat banklari bilan birgalikda bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga pul-kredit siyosatini qat'ylashtirish va pul aggregatlari ustidan ta'sirchan nazoratni kuchaytirish, naqd pul muomalasini mustahkamlash va pul mablag'larning bankdan tashqari aylanmasini qisqartirishga doir takliflar kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining birjadan tashqari valyuta bozorini barqaror rivojlantirish uchun erkin muomaladagi valyutada birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi.

Quyidagilar birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasini shakllantirishning asosiy manbalari etib belgilandi:

- Vakolatli banklar tomonidan jalb qilingan mijozlar bo'sh valyuta mablag'larining bir qismi;
- Vakolatli banklarda valyuta tushumi 50%ini majburiy sotishdan qoladigan va talab yetilmagan mablag'larning bir qismi;
- Kafolatli etkazib berish bo'yicha va eksportning belgilangan prognozidan ortiqcha yuqori likvidli mahsulotlarning xorijiy

kompaniyalar va firmalarga sotishdan olingen valyuta tushumi;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan valyuta aktivlarini boshqarishidan olinadigan xorijiy valyutadagi daromadlari.

Jalb etiladigan bo'sh valyuta mablag'larni birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasiga yo'naltirishda olinadigan birja summasi vakolatli banklar daromadlarining soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadi.

Kichik korxonalarini, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishni, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish maqsadida 2001-yil 1-iyuldan boshlab:

- mikrofirmalar, kichik korxonalar o'zлari ishlab chiqargan tovarlar eksportidan tushgan valyuta tushumini majburiy sotishdan ozod qilindi;

- kichik biznes korxonalariga o'zлari ishlab chiqargan tovarlarni valyuta tushumini belgilangan tartibda eksport qiluvchilarining hisob raqamiga o'tkazgan holda, bank muassasalari kassalari orqali naqd xorijiy valyutaga eksport qilishga ruxsat etildi;

-xorijiy kompaniyalar va firmalarga yuqori likvidli mahsulotlarning ayrim turlarini kafolatlangan hajmlarda erkin almashtiriladigan valyutaga sotib olishga doir eksklyuziv huquq berildi. Bunda tovarlar muqobil bank kafolati yoki sug'urta polisi asosida haqini oldindan to'lash shartlarida yetkazib beriladi;

- yuqori likvidli mahsulotlarning ayrim turlari eksport kontraktlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida ro'yxatdan o'tkazilmasdan oldin yetkazib berish shartlarida sotiladi;

- yuqori likvidli mahsulotlarni ko'rsatib o'tilgan shartlarda sotishdan tushgan valyuta tushumi birjadan tashqari bozorning talab va taklifdan kelib chiqib shakllanadigan erkin kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga sotiladi, maqsadli ravishda birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligining quyidagi operatsiyalar bo'yicha xorijiy valyutani xarid qilish va sotishni 2001- yil 1-iyuldan boshlab birjadan tashqari valyuta

bozorining talab va taklifidan kelib chiqib shakllanadigan erkin kursiga o'tkazish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi:

- eksport qiluvchilar tomonidan valyuta tushumining 50%ini majburiy sotish;

- asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, xom ashyo, materiallar va xizmatlar importga yangidan jalb qilinadigan xorijiy kreditlarga xizmat ko'rsatish;

- xorijiy investorlar foydasi, devidendlari va boshqa daromadlarini repatriatsiya qilish;

-xizmat safari xarajatlari.

Vakolatli banklar eksport qiluvchi korxonalarga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun so'mda qisqa muddatli kreditlar berishni keng joriy etdilar.

Birjadan tashqari valyuta bozorining erkin kursi bo'yicha xorijiy valyutani sotib oluvchi korxonalar 2001-yil 1-iyuldan boshlab erkin almashtiriladigan valyutani xarid qilashga 5 % yig'im to'lashdan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari:

- valyuta almashtirish operatsiyalarini ko'paytirish uchun erkin almashtiriladigan valyutadagi resurslarni jalb qilish vositalardan kengroq foydalanish;

- banklararo kredit, shu jumladan, xorijiy valyutadagi kimoshdi savdolarini yanada rivojlantirish va ular hajmlarini ko'paytirish;

- turistik komplekslar, savdo markazlari, buyum bozorlari, aeroportlar va bojxona postlarida almashtirish shoxobchalarini tarmoqlarini qo'shimcha ravishda ko'paytirishga doir kompleks qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tuzilmalar bilan iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari va bosqichlarini hamda valyuta siyosatini ishlab chiqish masalalari bo'yicha hamkorlik aloqalarining kengaytirilishini ta'minlash zarurligi kelib chiqadi.

Qisqacha xulosalar

Markaziy bankning qayta moliyalash mexanizmi tijorat banklarining kredit resurslar bo‘lgan talabini qondirishga, joriy barqarorligini doimiy ta’minlashga va ishlab chiqarish tarmoqlarining tarkibiy o‘zgarishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan investitsiya dasturlarini ustuvor ravishda moliyalashga xizmat qiladi.

Bank likvidliligi va pul bazasining shakllanishi doimiy ravishda monitoring qilib boriladi.

Tijorat banklari o‘zining faoliyati doirasida mablag‘larni iqtisodiyotning real tarmoqlariga olib kelishiga, banklarda aholi omonatlari hajmining oshishiga va ularni ishlab chiqarishga yo‘naltirishga shart – sharoitlar yaratish bo‘yicha ishlarni davom ettiradi.

Qat’iy pul-kredit siyosatini amalga oshirish va inflyatsiya sur’atlarini pasaytirish asosida asta-sekin valyuta bozorini erkinlashtirishga o‘tish hamda birjadan tashqaridagi valyuta bozorini yanada faollashtirish orqali 2002-yilda milliy valyutaning joriy xalqaro operatsiyalari bo‘yicha erkin almashtirilishiga doir chora-tadbirlarda qatnashadi.

Vazirlar Mahkamasi 2002-yilda va joriy yilning birinchi yarim yilligida valyuta siyosatini yanada erkinlashtirish, birjadan tashqari valyuta bozorini mustahkamlashga doir bir qancha aniq chora-tadbirlar ko‘riganligi, unda tijorat banklarining roli ancha oshganligini qayd etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Forvard valyuta bitimlariga izoh bering.
2. Fyuchers bitimlari nima?
3. Valyuta opsonini qanday tushunasiz?
4. Forvard kursi va spot kursi o‘rtasidagi farq nima?
5. Moliyaviy fyuchers bitimlariga sharh bering.
6. Tijorat banki likvidligini boshqarish tahlili. (1539)¹⁰
7. Arbitraj nima?

¹⁰ TDIU va MDH mamlakatlari iqtisodiy mutaxassisliklari bo‘yicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun savolnomasi.

8. Autrayt kursi va uni aniqlash usullari.

9. Opsion nima va uning turlari?

10. SVOP operatsiyasi mohiyati?

Asosiy adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. -Т.: Молия, 2003.

2. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. -М.: Экономика, 2004.

3. Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки: конспект лекций. -М.: Приор издат., 2004.

4. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2004.

5. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. -- Ростов н/Д. изд. Центр Март, 2004.

6. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>

7. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>

• Bank operatsiyalarini sug‘urtalash» fani bo‘yicha yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish qo‘llanmasi

O‘quv fani: Bank operatsiyalarini sug‘urtalash. TDIUning 3-kurs bakalavriati uchun

Mashg‘ulot mavzusi: Bank tizimi va bank turlari.

Ajratilgan vaqt: 5 soat.

Fakultet: Xalqaro iqtisodiy munosabatlar.

Kafedra: Xalqaro moliya.

Tayyorlovchi: dotsent Ismatullayev Izzatulla.

Maslahatchilar: O.Yu.Rashidov kafedra mudiri, professor
A.K.Pak. i.f.n., dotsent

O‘qitish shakli – ma’ruza mashg‘ulotlari

1. Uslubiy qo‘llanmaning qisqacha varianti.

1-mashg‘ulot.

Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Asosiy savollar:

1. Tijorat banklari bozor infratuzilmasining asosiy tarmog‘i sifatida. O‘zbekiston Respublikasining bugungi kundagi bank tizimi va operatsiyalari – 40 min.

2. Bank turlari. Bank tizimi islohotlari - 40 min.

O‘qitishdan kutilayotgan natijalar (yoki o‘qitilayotganlarning vazifalari)		
Nimani biladi va tushunadi (o‘rganishning maqsadlari)	Nimani amalga oshiradi (psixomotor maqsadlar)	Nimani his etadi (samarali yoki his – hayajon va qadr – qimmatli maqsadlar)
“Bank tushunchasi”ga ta’rif beradi.	Bank tushunchasini tahlil qiladi	Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun bank tizimining ahamiyatlari ekanligini anglab yetadi.
Bank tushunchasi, turlari va ularni amal qilish jarayonlarini sanab beradi.	Bank tushunchasi va tizimi, mohiyatini tushuntirib, uning shakllanish jarayonlarini tahlil qiladi.	Bank tizimiga aloqador masala muhokamasi yuzasidan guruhdag'i muhokamada hamkorlikka intilishni namoyon etadi.
Bank tizimini shakllanish usullarini ko‘rsatib beradi.	Xorijiy mamlakatlar bank tizimining shakllanish usullarini o‘rgatadi.	Bank tushunchasi va tizimining zaruratini bilib oladi.
Bank tizimi va uning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatiga baho beradi.	Bank tizimining mamlakat va xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotidagi ahamiyatini aniqlaydi.	Bozor munosabatlarida iqtisodiy bank tizimining ko‘rsatishining tushunib yetadi.

O'qituvchining maqsadlari:

- bank tizimining mohiyatini olib berish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitidagi bank tizimi faoliyatini tushuntirib berish;
- bank tizimining turlarini ko'rsatish;
- bank tizimini shakllanish usullari bilan tanishtirish;
- bank tizimini boshqarish usulini o'rgatish.

Texnologik karta

Ko'rilayotgan savollar	O'qituvchining faoliyati	Talabalarning faoliyati
1. Tijorat banklari bozor infratuzilmasining asosiy tarmog'i sifatida. O'zbekiston Respublikasining bugungi kundagi bank tizimi va operatsiyalari – 40 min.	<p>O'qituvchi qisqacha kirish qiladi va ma'ruza matning bir bo'lagini o'qishga o'tadi – 10 min.</p> <p>Qiziqtirish fazasi. O'qituvchi talabalarни faollashtirishga ko'maklashuvchi savollarni beradi: 1.Bank deganda nimani tushunasiz? 2.Bank tizimi nima uchun kerak?</p> <p>Anglab yetish fazasi. O'qituvchi topshiriq beradi: 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linib va ushbu guruhlar tarkibida bank tushunchasi va uning ta'rifidan kelib chiqadigan fikrlarni jamlash, bank tushunchasi bilan bog'liq ta'rifni izohlash vazifasini beradi.</p> <p>Mulohaza fazasi. O'qituvchi quyidagi savolni beradi: 1. Bank tizimi va uning zarurligining asosiy sabablarini sanab bering. 2. Bank tushunchasiga oid qanday ta'rif munozaralidir? O'qituvchi birinchi savol bo'yicha xulosa qiladi.</p>	<p>Talabalar o'z e'tiborlarini ushbu mavzu yuzasidan berilgan savollarga qaratadi va savollarga javob beradi – 10 minut.</p> <p>Talabalar bank tushunchasi va tizimi ta'riflari yuzasidan fikrlarni umumlashtirib, jamlaydilar.</p> <p>Bundan so'ng kichik guruhlarning yetakchilari o'z variantlarining taqdimotini amalga oshiradilar - 10 min.</p> <p>Kichik guruhlar tarkibidagi talabalar mazkur savollarga javob tayyorlaydilar va ularning taqdimotini o'tkazadilar – 10 min.</p>

<p>2. Bank turlari. Bank tizimi islohotlari - 40 min</p>	<p>O'qituvchi ma'ruza matnining bir bo'lagini o'qishga o'tadi – 10 min. qiziqtirish fazasi. O'qituvchi juftliklarda muhokama qilinishi uchun savol qo'yadi: 1. Bank tizimining qanday turlari mayjud? 2. Bank turlarini shakllanish usullariga o'z fikringizni bildiring?</p> <p>Anglab yetish fazasi. O'qituvchi kichik guruhlarga topshiriq beradi: Qquyidagilarni tushuntirib berish lozim 1. Bank tizimining turlanishi qanday omillarga bog'liq? 2. Bank turlariga o'z munosabattingizni bildiring? Mulohaza fazasi. Talabalarga savol: 1. Moliya bozorining turi va bank tizimi orasida qanday bog'liqlik bor? 2. Bank va kredit tizimlari tushunchalari qanday sharoitlarda ishlatalidi? O'qituvchi ikkinchi savol buyicha xulosa qiladi.</p>	<p>Talabalar o'z e'tiborlarini ushbu mavzu yuzasidan berilgan savollarga qaratadi, juftliklarda muhokama etadi va savollarga javob beradilar – 10 min.</p> <p>Kichik guruhlar bank tizimining turlanishi hamda ushbu turlar bilan bog'liq fikrlarni muhokama etadilar hamda berilgan savollar yuzasidan javob tayyorlaydilar – 10 min.</p> <p>Kichik guruhlar moliya bozori va bank tizimi, kredit tizimi tushunchalarining ishlatalish jarayoni kabi berilgan savollar yuzasidan javob tayyorlaydilar – 10 min.</p>
---	--	--

2-mashg'ulot

Ajratilgan vaqt - 2 soat.

Asosiy savollar

3. Tijorat banklarini litsenziyalash tartibi. Tijorat banklari kapitaliga qo'yilgan talablar - 40 min.
4. Tijorat banklarining bugungi kundagi faoliyatini takomillashtirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolini oshirish yo'llari - 40 min.

O'qitishdan kutilayotgan natijalar (yoki o'qitilayotganlarning vazifalari)

Nimani biladi va tushunadi (o'rGANISHNING maqsadlari)	Nimani amalga oshiradi (Psixomotor maqsadlar)	Nimani his etadi (samarali yoki his-hayajon va qadr-qimmatli maqsadlar)
“Tijorat banklariga qo'yilgan talablar”ni sanab beradi	Tijorat banklariga qo'yilgan talablarni tushuntirib, izohlab beradi	Mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bank tizimiga ta'sir etuvchi omillarni anglab yetadi
“Iqtisodiyotdagи holatning va Markaziy bank talablari orasidagi o'zaro bog'liqlik”ni tushuntira oladi	Milliy pul birligining sotib olish qobiliyati va uning bank tizimi faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, tushuntirib o'tadi	Bank tizimiga ta'sir etuvchi omillar muhokamasi yuzasidan guruhdagi muhokamada hamkorlikka intilishni namoyon etadi
Tijorat banklarining iqtisodiyotdagи roli va unga qiladigan o'zaro ta'sirini tushuntira oladi	Bank tizimi faoliyatining o'zgarishinining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri tahlil etiladi va tushuntiriladi	Bank tizimi va unga qo'yiladigan talablar o'zgarishining mamlakat iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini bilib oladi
Tijorat banklarining faoliyatini takomil-lashtirish va mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirish kabi tushunchalarining farqiga boradi	Bank tizimi, va uning iqtisodiyotdagи ahamiyati va uni paydo bo'lish shart-sharoitlari tushuntiriladi	Bank tizimini litsenziyalash va bank tizimini mamlakat iqtisodiy hayotidagi roli(mohiyati)ni anglab yetadi

O'qituvchining maqsadlari:

- bank tizimiga qo'yilgan talablar bilan tanishtirish;
- tijorat banklariga qo'yiladigan talablarga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflash;
- **Markaziy bankning tijorat banklariga qo'yadigan talablari va iqtisodiy muhit orasidagi o'zaro bog'liqlikni izohlash;**
- bank tizimini litsenziyalash va bank tizimining mamlakat iqtisodiy bayotidagi roli(mohiyati)ni ko'rsatish;

Texnologik karta

Ko'rileyotgan savollar	O'qituvchining faoliyati	Talabalarning faoliyati
3. Tijorat banklarini litsenziyalash tartibi. Tijorat banklari kapitaliga qo'yilgan talablar – 40 min.	<p>O'qituvchi ma'ruza matnining bir bo'lagini o'qishga o'tadi – 10 min.</p> <p>Qiziqtirish fazasi. O'qituvchi talabalarni faollashtirishga ko'maklashuvchi savollarni beradi: 1.Banklarni litsenziyalashda qanday talablar qo'yildi? 2. Tijorat banklarining ochilish davrida Markaziy banklar tomonidan beriladigan ruxsatnomalar nimalardan iborat va ularga ta'sir tuvchi omillar qanday tavsiflandi?</p> <p>Anglab yetish fazasi.</p> <p>O'qituvchi topshiriq beradi: 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linib va ushbu guruhlar tarkibida valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash yuzasidan kelib chiqadigan fikrlarni jamlash va ularni tasniflash bilan bog'liq masalani izohlash vazifasini beradi</p>	<p>Talabalar o'z e'tiborlarini ushbu mavzu yuzasidan berilgan savollarga qaratadi va savollarga javob beradi – 10 min.</p> <p>Talabalar tijorat banklari faoliyatiga qo'yilgan talablarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tasniflash bilan bog'liq fikrlarni umumlashtirib, jamlaydilar.</p> <p>Bundan so'ng kichik guruhlarning yetakchilari o'z variantlari taqdimotini amalga oshiradilar – 10 min.</p> <p>Kichik guruhlar tarkibidagi talabalar</p>

	<p>Mulohaza fazasi. O'qituvchi quyidagi savolni beradi: 1. Qanday obyektiv omillar banklarning faoliyatiga ta'sir etadi va ushbu jarayon qanday yuz beradi? 2. Qanday subyektiv omillar mamlakat bank tizimiga ta'sir etadi va ushbu jarayon qanday yuz beradi?</p> <p>O'qituvchi uchinchli savol bo'yicha xulosa qiladi</p>	<p>mazkur savollarga javob tayyorlaydilar va ularning taqdimotini o'tkazadilar – 10 min.</p>
	<p>O'qituvchi ma'ruza matnining bir bo'lagini o'qishga o'tadi – 10 min.</p> <p>Qiziqtirish fazasi. O'qituvchi juftliklarda muhokama qilinishi uchun savol qo'yadi: 1. Tijorat banklari faoliyatining o'zgarishi va ushbu o'zgarish zaminida qanday omillar yetadi ?</p> <p>2. Tijorat banklari faoliyatini o'zgarishining mamlakat iqtisodiy hayotiga ta'siri qanday? 3. Bank litsenziyasi nima va u qanday holatlarda vujudga keladi?</p>	<p>Talabalar o'z e'tiborlarini ushbu mavzu yuzasidan berilgan savollarga qaratadi va savollarga javob beradilar – 10 min.</p>
	<p>Anglab yetish fazasi. O'qituvchi kichik guruhlarga topshiriq beradi: quyidagilarni tushuntirib berish lozim</p> <p>1. Tijorat banklari faoliyatini nima maqsadda va qanday tartibga solish kerak? 2. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning qanday usul va instrumentlari mavjud?</p> <p>Mulohaza fazasi. Talabalarga savol: 1. O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari faoliyatiga ta'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?</p> <p>2.O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklarini litsenziyalash kim tomonidan va qanday tartibga solinadi?</p> <p>O'qituvchi to'rtinchi savol bo'yicha xulosa qiladi.</p>	<p>Kichik guruhlardan tijorat banklarini litsenziyalash va ular faoliyatini tartibga solish maqsadlari, usullari va instrumentlariga aloqador muammoli masalalarni muhokama qildilar. Kichik guruhlardan berilgan savollar yuzasidan javob tayyorlaydilar – 10 min.</p> <p>Kichik guruhlardan tarkibidagi talabalar mazkur savollarga javob tayyorlaydilar va ularning taqdimotini o'tkazadilar – 10 min.</p>

IZOHLI LUG'AT

Kredit - o‘z egalari qo‘lida vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatdir.

Kredit tamoyillari - tovar va pul ko‘rinishidagi mablag‘larni:

- qaytarib berishlik;
- muddatlilik;
- foiz to‘lash shartlari asosida berish natijasidir.

Kredit - o‘zga mulki bo‘lgan pulni qarzga olib ishlatish borasidagi munosabatdir.

Moiiya - barcha xo‘jalik subyektlarining o‘ziga tegishli pul mablag‘lari xususidagi aloqadir.

Kredit subyektlari-korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholidir.

Kredit obyekti - vaqtincha bo‘sh turgan, berilishi mumkin bo‘lgan pullar va tovarlardir.

Kredit vazifalari:

■ pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat) yuzaga chiqarib, ularni xo‘jalik oborotiga jalg qilishdir;

■ bo‘sh turgan pul mablag‘larini harakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, pulni pul topadi, degan qoidani amalga oshirishdir;

■ qarz berish orqali pul mablag‘larini turli tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko‘chib turishini ta‘minlashdir;

■ qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdir.

Tijorat krediti - sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir.

Bank krediti - banklar pulni uning sohiblariga foiz to‘lash sharti bilan o‘z qo‘lida jamlaydilar va o‘z nomidan qarzga berib, foiz olishdir.

Iste’mol krediti - tijorat banklari iste’molchilariga tovar sotib olish uchun bergan qarzidir.

Davlat krediti - banklar davlatdan qarz olishidir.

Xalqaro kredit - bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati

bo‘lib, bu harakat tovar va valyuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berishlik, muddatlilik va haq to‘lashlik asosida berish bilan bog‘liqdir.

Ssuda - qarzga beriladigan pul ssuda deyiladi.

Ssuda kapitali - qarzga berilgan pul ishga solinib, yangidan pul topish, daromad olish uchun ishlatilishidir.

Kreditni qayta taqsimlash - jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini bu pullarga ehtiyojmand bo‘lgan subyektlar o‘rtasida qayta taqsimlashdir.

Kredit turlari:

- qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha bo‘lgan kreditlar)
- uzoq muddatli kreditlar (muddati bir yildan ortiq bo‘lgan kreditlar) dir.

Kreditlash chegarasi - kredit munosabatlarining subyektlariga yoki ssudalarning turlariga nisbatan aniq ko‘rsatkichlar shaklida belgilab qo‘yiladigan kreditdan foydalanishning qat’iy chegarasi kreditlash chegarasidir.

Kreditning chegaralari - kreditning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqli tomonlarini, ayni vaqtda, o‘sha kategoriyalar bilan o‘zaro aloqalarini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

Kreditlashtirish - kredit resurslari hisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasidir.

Lizing - zavodlarni, sanoat tovarlarini, uskunalarini, qo‘zg‘almas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun ijara ga berish to‘g‘risidagi shartnomadir.

Lizing turlari

- operativ lizing
- moliyaviy lizing

Forseyting - ma’lum huquqlarga yon berishdir.

Kontokorrent krediti - bankning mijozni bo‘lgan korxona ko‘p sonli korxonalar bilan ikki tomonlama aloqada bo‘lgan hollarda qo‘llashdir.

Hisobli kredit - vekselni tijorat bankiga sotish yo‘li bilan olinadigan kreditdir.

Lombard krediti - qisqa muddatli, miqdori qat’iy belgilangan ssuda bo‘lib, oson sotiladigan qo‘zg‘aluvchi mulkdir.

Aktseptli kredit - bunda bank unga mijoz tomonidan qo‘yilgan

o'tkaziluvchan vekselni ma'lum shart bilan aktseptlashdir.

Rambursli kredit - akkreditivni aktseptli kredit bilan uyg'unlashuvidir.

Bank aktsepti - importchi banki tomonidan uning vekselini aktseptlanishidir.

Yevrokreditlar - yevrovalyutalarda beriladigan kreditlar.

Yevrovalyuta - o'sha valyutani mamlakat tashqarisidagi barcha yig'indisidir.

Kredit mexanizmi - xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, kreditlash shartlari, usullari va kreditni boshqarishdir.

Kreditga layoqatlilik - korxonaning bankdan so'ragan ssudani u o'z vaqtida va to'liq qaytara olish imkoniyatidir.

Kredit siyosati - bankning kredit resurslarini joylashtirish sohasidagi qarorlarni qabul qilishga imkon beruvchi qoidalar va cheklanishlar majmuidir.

Foiz stavkasi - qarzdor kishining olgan qarzi uchun pul egasiga to'laydigan to'lovidir.

Marja - savdo, birja, sug'urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.

Kredit ekspansiyasi - mamlakatning ssuda kapitallari bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko'payishi va buning oqibatida, kredit qo'yilmalari hajmining keskin ko'payishi.

Remoliyalashtirish siyosati - Markaziy bank tomonidan tijorat banklari ixtiyoridagi tijorat veksellarni hamda qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish va shu yo'l bilan kredit berishdir.

Kredit resurslarining auksioni - kredit resurslarini erkin, ochiq tarzda auksion orqali sotishdir.

Majburiy zahiralar siyosati - tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zahira fondiga o'tkazilishidir.

Libor- Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida yetakchi erkin almashinadigan valyutalar-AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya ienasi, Buyuk Britaniya funt sterlingi kabi valyutalardagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasidir.

Foiz xavf-xatari - foiz stavkalarining darajasi va harakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfidir.

Substandart kreditlar - 2 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan kreditlar.

Muammoli ssudalar - qaytarilish muddati kelgan, lekin bank mijozining to'lovga noqobilligi tufayli to'lanmayotgan ssudalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident Farmonlari, Qarorlari, Farmoyishlari va I.A. Karimov asarlari.

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, -Т.: “Ўзбекистон”, 2002.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида”ги қонуни, -Т.: “Ўзбекистон”, 1995.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонуни, -Т.: “Ўзбекистон”, 1996.

4. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси, // Халқ сўзи, 2002, 9 январ 6 сон.

5. Ўзбекистон Республикасининг Валютани тартибга солиш тўғрисидаги Қонуни, 2003, 11 декабр.

6. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996.

7. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. -Т.: “Ўзбекистон”, 1995.

II. Mahalliy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ma’ruza matnlari

1. Абдуллаева Ш.З. Пул, кредит ва банклар. -Т.: Молия 2000,

2. Гозибеков Д.Г. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. -Т.: Молия 2003.

3. Тожиев Р.Р. Халқаро молия. Электрон дарслик. ТДИУ 2004.

4. Йўлдошев М., Турсунов Й. Суғурта ҳуқуқи. -Т.: Молия 2002.

5. “Ўзбекистон Республикаси Банк тизими”, Ф.М. Муллажонов таҳрири остида, -Т.: “Ўзбекистон”, 2001.

III. MDH va Yevropa mamlakatlarida chop etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar

1. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. -М.: Экономика, 2004.

2. Деньги, кредит, банки. Учебник для ВУЗов. Под ред. Е.Ф. Жукова, Л.М. Максимова, А.В. Печникова и др. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003.

3. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. -М.: ФиС. 2003.
4. Лизелотт Сурен. Валютные операции. -М.: Дело 2004.
5. Малахова Н.Г. Деньги, кредит, банки. Конспект лекций. - М.: Приор издат., 2004.
6. Миляков Н.В. Финансы. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2004.
7. Наговицин В.М. Валютная политика. -М.: Финансы и статистика, 2003.
8. Свиридов О.Ю. Финансы, денежное обращение, кредит. Экспресс справочник для студ. вузов. – Ростов н/Д. изд. Центр март, 2004.
9. Титова Н.Е, Кожиев Ю.П. Деньги, кредит, банки. Учеб. пособие для студентов ВУЗов. -М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003.
10. Финансы, денежное обращение, кредит. Учебник для ВУЗов под ред. проф. Т.Б.Поляка. -М.: ЮНИТИ- ДАНА, 2003.

IV. Mahalliy, MDH va Yevropa mamlakatlarida chop etilgan monografiya va ilmiy maqolalar

1. Газибеков Д. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. -Т.: Молия, 2003.
2. “Международные инвестиции и международные закупки”. Под.ред. Есипова В.Е. СПб, ГУЕФ, 2003.
3. Экономическое обозрение журнали. -Т.: №9 (36) 2004 .
4. Акрамов Э.А. Экономические реформы Республики Узбекистан. -М.: ТОО «Люкс арт», 2003.
5. Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок. -М.: Перспектива, 2003.
6. Черкасов В.Е. Международные инвестиции. -М.: Дело.
7. Хорн Ж. Основы управления финансами. Пер с анг. -М.: Финансы и статистика, 2003
8. Тоймухамедов И.Р. Банк кредити рисклари. «Бозор, пул ва кредит» журнали № 4. 2003-2004.

V. Foydalangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalar

1. Алимов Н.Р. Ўзбекистон Республикаси инвестиция бозорида тижорат банкларининг роли. -Т.: 2004. номзодлик

дессертацияси.

2. Кенжабоев А.Т. Тадбиркорлик фаолиятида ахборотлаштириш миллий тизимини шакллантириш муаммолари. -Т.: 2005. номзодлик дессертацияси.

VI. Foydalangan magistrlik dissertatsiyaları va bitiruv malakaviy ishlari

1. Нурматов Н.Ё. Хориж капитали иштирокидаги инвестицион лойиҳаларни молиялаштириш хусусиятлари ва муаммолари. ТДИУ, 2004. Магистрлик дессертацияси.

2. Уразқұлов И.А. “Банк рисклари ва уларни диверсификациялаш”. Иқтисод магистри даражасини олиш учун диссертация. БМА. -Т.: 2004.

VII. Xalqaro ilmiy anjumanlar materiallari

1. Газибеков Д. «Ўзбекистонда инвестициявий мухит ва уни яхшилаш йўллари», «Ўзбекистон Республикаси банк тизимини ислоҳ қилиш жараёнида эркинлаштириш ва жаҳон тажрибасини кўлилашнинг долзарб муаммолари» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция тўплами. БМА, 2003 йил 30 май.

2. Доклад о развитии человека за 2003г. Деловой партнер Узбекистана. №40, 2003 год 4 октябрь.

VIII. Me'yoriy hujjatlar (instruktsiyalar)

1. Ўзбекистон Республикаси банклари тўғрисида электрон тўловлар тизими бўйича ҳисоб-китоблар юритиш тўғрисида Низом (янги таҳрир) 2004.

2. Ўзбекистон Республикасида нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тўғрисида Низомга ўзгартириш ва қўшимчалар. 2004 йил 23 июн.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. «Микрофирмалар ва кичик корхоналарни ривожлантиришни рафбатлантириш борасидаги чора-тадбирлари тўғрисида» Тошкент. 20.06.2005 Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг меъёрий ҳужжатлари тўплами. -Т.: 2003.

IX. Pedagogik va axborot texnologiyalar bo'yicha o'quv va uslubiy qo'llanmalar

1. Охунова Г.Н. Образовательная технология по курсу «Маркетинг в сфере образования» Книга 3. Технологии

обучения в экономическом образовании.- Т.: ТГЭУ, 2005.

2. Голыш Л.В. Введение в технологизацию обучения в экономическом вузе: Книга 2. Технологии обучения в экономическом образовании. -Т.: ТГЭУ, 2005.

3. Илфор педагогик технологиялар асосида дарс ўтиш йўллари бўйича. Ўқув услубий ишланмалар тўплами. -Т.: ТДИУ, 2005.

X. Statistik to‘plamlar va Internet yangiliklari

1. www.travel-library.com www.thebanker.com
2. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
3. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>
4. <http://www.bankofengland.co.uk/coreuproses.htm>
5. <http://www.boi.or.ip./en/sirvo.htm>
6. www.cer.uz
7. www.tech.avtobank.ru
8. www.dengiforum.com
9. www.finansmag.ru

MUNDARIJA

Kirish	5
I BOB. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklar va ularning turlari	7
1.1. Bozor iqtisodiyoti va uning bo‘g‘inlarida risklar va unda bank riskining tutgan o‘rni	7
1.2. Makro va mezo darajadagi risklar.....	12
II BOB. Bank risklari, ularning turlari va hisoblash usullari	16
2.1. Bank aktiv operatsiyalari bo‘yicha risklar	16
2.2. Bank risklarini hisoblash usullari	16
III BOB. Bank risklarini boshqarish usullari	30
3.1. Bank risklarini boshqarish usullari va strategiyasi.....	30
3.2. Kredit portfelini diversifikatsiyalash risklarni boshqarish usuli sifatida..	33
3.3. Kreditga layoqatlilikni aniqlashning bank riskini kamaytirishdagi o‘rni	36
3.4. Bank xavfsizligini ta’minalash riskni kamaytirish omili sifatida	41
IV BOB. Bank risklari klassifikatsiyasi	45
4.1. Bank risklarini iqtisodiy klassifikatsiyalash va uning zaruriyati	45
4.2. Bankning aktiv operatsiyalari bo‘yicha risklar	49
V BOB. Kredit risklari va ularni sug‘urtalash	56
5.1. Kredit risk tushunchasi.	56
5.2. Kredit riskini boshqarish muammolari.	57
5.3. Kredit risklarini hisoblash usullari.	61
VI BOB. Banklarning kredit siyosati va risklar	68
6.1. Banklarning kredit portfeli va uni tashkil qilish asoslari.....	68
6.2. Kredit portfelining sifat tahlili risklarni pasaytirish omili sifatida....	71
VII BOB. Bank risklarini kompleks tahlil qilish	77
7.1. Banklarning aktiv operatsiyalari miqyosidagi risklar va ularning darajasi.....	77
VIII BOB. Kredit risklari, ularni boshqarish va baholash	83
8.1. Kredit risklarini boshqarish muammolari.....	83
8.2. Kredit risklariga ta’sir etuvchi omillar va ularni boshqarish.....	85

IX BOB. Valyuta risklari va ularni aniqlash	91
9.1. Valyuta riskining nazariy asoslari, vujudga kelish sabablari.....	91
9.2. Valyuta kurslari hamda tijorat banklari valyuta operatsiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik va undagi risklar.....	95
X BOB. Valyuta risklarini sug‘urtalash	112
10.1. Muddatli bitimli operatsiyalar valyuta riskidan himoya vositasi sifatida	112
10.2. Valyuta risklari va ularni sug‘urta qilinishdagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari.....	117
«Bank operatsiyalarini sug‘urtalash» fani bo‘yicha yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish qo‘llanmasi.....	133
Izohli lug‘at.....	139
Foydalanimagan adabiyotlar ro‘yxati	143
MUNDARIJA.....	147

CONTENTS

Introduction.....	5
I chapter The bank risk condition in the market attitude	7
1.1. Risks in economy branch and it role in the banks risks	7
1.2. Risks macro and micro economy level	12
II chapter The vide bank risks and it vide	16
2.1 The bank risks on active coring banks.....	16
2.2 The method calculated of risk.....	19
III chapter Management the banks risk.(risk on the bank).....	30
3.1 The strategy management risk on the bank.....	30
3.2. Diversification credit bag, as the factor management of the risk.....	33
3.3 Estimate credit, as the factor decompress risk on the bank.....	36
3.4 Economy safely banks works, as the factor minimization risks.....	41
IV chapter Classification banks risks.....	45
4.1 The economy classification banks risks.....	45
4.2 The risks on active coring of the bank.....	49
V chapter Credit riska and their insurranse	56
5.1 Comprehends of the credit risk.....	56
5.2 The factors, influence on the credit risks.....	57
5.3 The problems management credit risks.....	61
VI chapter The credit politics of the banks and risks.....	68
6.1 Credit bag of the banks and base it organization.....	68
6.2 Qualitative analyze the credit bag, as the factor minimization risks.....	71
VII chapter Complex analyze risks on the bank.....	77
7.1 The risks on the active coring and analyze.....	77
VIII chapter Management, method rating of the credit risks.....	83
8.1 The base directed credit risks.....	83
8.2 The problems management credit risks.....	85
IX chapter Currency risks and it rand.....	91
9.1 The basic base arisen currency risks.....	91

9.2 Communication currency rate and currency operation and arise currency risks	95
X chapter Insurance of the currency risks.....	112
10.1 The urgency currency operations, as the factor protection by the currency isks	112
10.2 The problems insurance currency operations.....	117
Information technologic.....	133
Clossary.....	139
Literature.....	143
Contetns.....	149

I.ISMATULLAYEV

BANK OPERATSIYALARINI SUG'URTALASH

O‘quv qo‘llanma

Nashr uchun mas‘ul:

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi direktori
Qurbanmurod Jumayev

Muharrirlar:

F. Hayitov, Z.Yo‘ldoshyev

Musavvir va texnik muharrir:

A. Mamasoliyev, N. Ortiqov, Sh.Tojiyev

Musahhihlar:

Sherzod Irzoyev, Mahfuza Aminjonova

Terishga berildi 04.10.2005 y. Bosishga ruxsat etildi 20.11.2005 y.

Qog‘oz formati 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset bosma usulida bosildi.

Nashr bosma tobogi 9,5. Nusxasi 500.

Buyurtma № 141

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot
jamg‘armasi nashriyoti, 700000, Toshkent,
J. Neru ko‘chasi, 1-uy.

«AVTO-NASHR» sho‘ba korxonasi
bosmaxonasida chop etildi.

700005, Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.



Ismatullayev Izzatulla Fatxullayevich 1971 yili Toshkent xalq xo'jaligi institutini tamomlagan. 1981yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

1972-1978 yillarda «Moliya» kafedrasining assisenti, 1981-1991 yillarda katta o'qituvchisi bo'lib ishlagan.

1991-yildan Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetining «Xalqaro moliya» kafedrasida dotsent lavozimida mehnat qilib kelmoqda.

U 2 ta o'quv qo'llanma, 50 dan ortiq ilmiy maqolalarning muallifi.